

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT ARXITEKTURA QURILISH INSTITUTI**

**Yodgorov V., Isamuxamedova Sh.,  
Saidov M., Davletov I., Berdieva D., Muxibova G.**

**INVESTITSIYALAR VA BIZNESNI BAHOLASH**

**O'quv qo'llanma**

**Bakalavriat yo'naliishlari:** 5580900 - Ko'chmas mulk ekspertizasi va uni boshqarish

5810900 - Servis (uy - joy, kommunal va maishiy xizmatlar)

**Magistratura mutaxasisligi:** 5A 340901 - Ko'chmas mulkni baholash va boshqarish  
5A 340206 - "Qurilish iqtisodiyoti"

**Yodgorov V.U., Isamuxamedova Sh., Saidov M.S., Davletov I.X.,  
Berdieva D.A., Muxibova G.Ya.**

Investitsiyalar va biznesni baholash: O'quv qo'llanma. - T.: TAQI, 2012. – 158 bet.

Ushbu o'quv qo'llanmada arxitektura va qurilish sohasi barcha bakalavriat ta'lif yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari talabalari, shuningdek iqtisodiyot va biznesga qiziquvchilarning keng ommasi foydalanişlari uchun mo'ljalangan.

Qo'llanmada investitsiyaning mazmuni - mohiyati, investitsiya faoliyati va investitsiya siyosati, Davlat investitsiya dasturlarini shakllantirish, investitsion faoliyatni rivojlantirishda investitsiya muhitining o'mi, xorijiy investitsiyalar mazmuni va ahamiyati, investitsiya faoliyatida kapital qurilish va kreditlash, investitsiyalarni moliyalashtirish yo'llari va ularning iqtisotidiy samaradorligini baholash, biznesni baholash uslubi, biznesni baholashda xarakatli yondashuv, investitsion loyihalarni baholash, qimmatbaho qog'zlar qiymatini baholashga oid mavzular o'rın olgan.

Mazkur o'quv qo'llanma oliy ta'lif muassasalarining "Ko'chmas mulk ekspertizasi va uni boshqarish", "Servis (uy - joy, kommunal va maishiy xizmatlar)" ta'lif yo'nalishlari va magistraturaning "Qurilish iqtisodiyoti", "Ko'chmas mulkni baholash va boshqarish" mutaxassisligi hamda arxitektura va qurilish sohasining boshqa barcha ta'lif yo'nalishlari va mutaxassisliklari talabalari, shuningdek qurilish iqtisodiyotiga qiziquvchilar ham foydalanişlari uchun tavsya etiladi.

**Taqrizchilar:** TAQI "Iqtisodiyot va ko'chmas mulkni boshqarish"  
kafedrasи dotsenti, i.f.n. Ortiqov Nodir Yoqubjonovich

TDIU "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasи dotsenti,  
i.f.n. Islomov Anvar Ashurqulovich

O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lif vazirligi turdosh oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsya etgan.

## KIRISH

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharotida O'zbekistonning investitsion salohiyatini oshirishda iqtisodiy o'sishni ta'minlash nuqtai nazaridan katta e'tibor qaratilmoqda. Investitsiyalarning mavjudligi va yetarli darajadalogi - iqtisodiyot rivojlanishining asosiy sharti hisoblanadi. O'zbekistonning kelajakdag'i rivojlanishining asosiy omillaridan biri – bu jalb etilgan va samarali o'zlashtirilgan investitsiya resurslari hajmi bilan belgilanadi.

Mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish va sifatlari qo'llashga imkon beruvchi xo'jalik mexanizmni shakllantirish, hamda investitsion jarayonlar bilan boshqarishni takomillashtirish – bu davlatimizning eng asosiy strategik vazifalaridan biridir.

Muhtaram Prezidentimiz joriy yilning 19 yanvarida I O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yilda respublikani ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalariga bag'ishlangan majlisidagi ma'rurasida ta'kidlanganidek; 2011 yilda yalpi ichki mahsulotning o'sishi kutilganidek, amalda 8,3 foizni tashkil etdi. 2000 – 2011 yillar mobaynida yalpi ichki mahsulot hajmi 2,1 barobar oshdi. Mazkur ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston dunyoning iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan mamlakatlar qatoridan joy oldi. ... o'tgan yili sanoat ishlab chiqarishi 6,3 foiz, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish 6,6 foiz, chakana savdo aylanmasi 16,4 foiz va aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish 16,1 foizga barqaror yuqori sur'atlar bilan o'sdi.<sup>1</sup>

Shu bilan bir qatorda, 2010 yildagi qulay investitsion muhitning yaratilishi tizimli islohotlarni tezlatishida bosh omil bo'ldi. 2010 yildagi iqtisodiy o'sish sarflangan barcha moliyaviy manbalar hisobidan investitsiya hajmi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 25 foizni tashkil qildi. Shu bilan birgalikda 72 foiz atrofidagi barcha o'zlashtirilgan investitsiyalar ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnik qayta jihozlashga yo'naltirildi.

O'zbekistonda mustaqillik yillari davrida olib borilgan iqtisodiy islohotlar tufayli qulay investitsion sharoitlar yaratilgan. Mamlakatda kapital investitsiyalarning kengayishiga katta e'tibor berilmoqda, ya'ni asosiy kapitalni qaytadan ishlab chiqarishga yo'naltirishdir.

2011 yilda xalqaro moliya institutlari va xorijiy kompaniyalar bilan tuzilgan shartnomalar asosida iqtisodiy optimizmning real sektoriga 3 milliard dollardan ortiq

<sup>1</sup> Karimov I.A. 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'rusi // Xalq so'zi. 2012 yil 20 yanvar.

investitsiya kiritish mo'ljallangan.

Shu boisdan milliy iqtisodiyot tarmoqlarida, jumladan kapital qurilish tarmog'ida investitsiya siyosati, investitsion faoliyat samaradorligini oshirish, shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirdorlikni rivojlantirish masalalarini nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rghanish, ularni hal etish yo'llarini topish va hayotga tatbiq etishda mazkur "Investitsiyalar va biznesni baholash" nomli o'quv qo'llanma muhim ahamiyat kasb etadi.

Qurilish sohasida iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlari va muammolarini mukammal bilishlarida, xususan qurilish iqtisodiyotiga oid muammolarni hal etishda, shuningdek, sohada puxta investitsiya siyosatini yuritish va chet el investitsiyalarini yanada ko'proq jaib qilish kabi masalalarda talabalarning chuqur bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishlarida barcha o'zbek tilidagi adabiyotlar qatorida mazkur o'quv qo'llanma ham o'z samarasini beradi degan umiddamiz.

Mazkur o'quv qo'llanma arxitektura va qurilish sohasining barcha bakalavriat ta'lif yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari talabalari, shuningdek iqtisodiyot va biznesga qiziquvchilar ham foydalanishlari uchun mo'ljallangan.

O'quv qo'llanmaning tayyorlanishida ayrim kamchiliklar bo'lishi tabiiy holdir. Shu sababdan mualliflar mazkur o'quv qo'llanmani takomillashtirish yuzasidan beldiriladigan taklif va mulohazalar uchun o'z minnatdorchiliklarini bildiradi.

*Manzilimiz: 100011, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 13-uy, Toshkent arxitektura qurilish instituti, 1-bino, "Iqtisodiyot va ko'chmas mulkni boshqarish" kafedrasi, 222-xona.*

## I-BOB. INVESTITSIYALAR NING IQTISODIY MAZMUNI VA MOHIYATI

### 1.1. Fanning predmeti, maqsadi va vazifalari.

«Investitsiyalar va biznesni baholash» fani o'zining rivojlanish jarayonida ko'pgina fanlar bilan aloqadorlikda o'z predmetini o'rganib kelgan. Xususan, aniq fanlar: statistika, matematik programmalashtirish, soliq nazariyasi, qimmatli qog'ozlar va birja ishi, iqtisodiyot nazariyasi, makroiqtisodiyot, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, xalqaro iqtisodiyot va boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqlikda rivoj lanib boradi.

Iqtisodiyot nazariyasi fani bilan bog'liqligini ko'radian bo'lsak, «Investitsiyalar va biznesni baholash» fani iqtisodiyot nazariyasi fanining tarkibiy qismi ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, bu fanlarning umumiy maqsadi ham bir hisoblanadi. Iqtisodiyot nazariyasida iqtisodiyot yaxlit bir tizim sifati da qaraladi, undagi tarkibiy o'zgarishlarning mamlakat iqtisodiy o'sishidagi ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, iqtisodiy o'sishning samarali yo'llari tadqiq qilinadi. Shu o'rinda «Investitsiyalar va biznesni baholash» fani muhim instrument sifatida ko'zga tashlanadi. Hozirgi globallashuv sharoitida mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilish, samarali investitsiya loyihamalarini tanlashtirish, biznesni baholash va ularni monitoring qilish jarayonini esa bizga «Investitsiyalar va biznesni baholash» fani o'rgatadi.

«Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar bozori» fani bilan bog'liqlikni ko'radian bo'lsak, bunda asosan korxona va tashkilotlarni xususiyashtirish jarayonida investoring aktiv ishtiroti ko'zga tashlanadi. Qimmatli qog'ozlar bozorida xususiy korxona va tashkilotlar, kompaniya va korporatsiyalar faoliyatiga investitsion yondashuv investitsiyaning bu korxonalar rivojidagi o'mrimi belgilab beradi. Korxona, tashkilotlarni tashkil etishda milliy va chet el investitsiyalarining roli, samarali investitsiya faoliyatining korxona yalpi daromadini oshirishdag'i o'mni bu fanlarning uzviy bog'liqlikda ekanligini ko'rsatib beradi. Xususilashtirilayotgan korxonalar ustaviga investorlarning ishtiroti, kapital qo'yilmalardan samarali foydalanish bu ikki fanning o'zaro bog'liqligini ko'rsatib beradi.

«Bank ishi» fani va «Investitsiyalar va biznesni baholash» » fanlari ham boshqa fanlar singari uzviy bog'liqlikda o'z ob'yektini o'rganadi. Bunda asosiy e'tibor investitsiya loyihamalarini moliyalashtirish va baholash manbalariga qaratiladi. Ya'ni, investitsiya loyihamalarini moliyalashtirishning asosiy manbai bo'lib bank krediti hisoblanadi. Bank krediti orqali investitsiyalar va biznis

loyihalarini moliyalashtirish, olingen kreditdan samarali foydalanish, mablag'larni o'z vaqtida qaytarish, investoring doimiy moliyaviy faoliyatidan xabardor bo'lish, zarur bo'lganda olingen kreditni restrukturatsiya qilish va boshqa shu kabi jarayonlar bu fanlarning o'zaro bog'liqlikda kechishini ta'minlaydi. O'z navbatida investor moliyalashtirish manbalarini izlash jarayonida bevosita banklarning foiz stavkasi, barqarorlik darajasi, bankning o'z majburiyatlarini vaqtida bajarishda so'ralayotgan garov qiymati, bank tomonidan taqdirm etiladigan imtiyozlar kabi jihatlarga alohida e'tibor beradi.

Respublikamiz bozor iqtisodiyotiga turli mulkchilik shakllariga asoslangan xo'jalik yurituvchi sub'yektlarni ko'paytirish, jumladan, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish va boshqaruv faoliyatining rivojlanishini taqozo etadi. Shuningdek, iqtisodiyotni rivojlantirish, yangi investitsiya loyihalarini hayotga tadbiq etish va ularni moliyala shtrishning optimal variantlarini qidirib topish talablarini keltirib chiqardi. Amaliyotda amalga oshirilayotgan investitsiya va biznes loyihalarining hajmi, miqdori va moliyalashtirish manbalariga qarab iqtisodiyotda yuz berayotgan o'zgarishlar haqida xulosalar chiqarish mumkin. Investitsiya loyihasi tushunchasining tobora keng qo'llanishi, avvalombor, ushbu atamaning iqtisodiy mohiyatini anglab olish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Investitsiya loyihasi tushunchasi uning yo'naltirilgan maqsadini amalga oshirish uchun texnologik jarayonlarni, texnik va tashkiliy hu\_jjalashtirish jarayonini, ob'yektlarni barpo etish va ishga tushirish jarayoni ni, moddiy, moliyaviy, mehnat resurslarining harakatini, shuningdek tegishli boshqaruv qarorlari va tadbirlarni o'zida mujassamlashtiruvchi tizim sifatida qarash mumkin. Investitsiya loyihasi o'z maqsadi, yo'nalishi, amal qilish sohasi, muddati va chegarasiga ega bo'lgan alohida faoliyat turi hisoblanadi.

Investitsiya loyihasi to'liq va mukammal hisob-kitoblar yordamida asoslangan yuridik hujjalalar to'plami hisoblanadi.

Investitsiya loyihasi investitsion tadbirkorlik va tashabbusning natijasi sifatida yaratilgan investitsion hujjat bo'lib, investitsiyalar bilan ta'minlangan har qanday tadbirlar majmuasi hisoblanadi, ya'ni u cheklangan muddат davomida foyda olish yoki ijtimoiy samaraga erishish yo'lidagi bir-biri bilan o'zaro bog'liq tadbirlar yig'indisi hisoblanadi.

Bugungi kunda investitsiyalar va biznes loyihalarini moliyalashtirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish deganda, investitsiya loyihasini ishlab chiqish, uni amaliyotga maqsadli tadbiq etish, ya'ni loyihami amalga oshirish va ekspluatatsiya qilish, shuningdek, monitoringini olib borish

xarajatlarini qoplash uchun optimal investitsiya resurslarini shakllantirish va ularning hisob-kitobini chiqarish hisoblanadi.

Umumiy olganda, investitsiya resurslarini shakllantirishni uchta guruhga bo'lish mumkin:

- o'z mablag'lari;
- qarz mablag'lari;
- jaib qilingan mablag'lar.

Korxonalar investitsion loyihalarni qabul qilishi uchun ko'pchilik hollarda ularning o'z ichki mablag'lari yetishmaydi. Shuning uchun tijorat banklari qarz mablag'lari jaib qilinadi. Investitsiya loyihalariga qanchalik ko'p mablag' sarflansa undan kutilayotgan sof foyda me'yori ham shunchalik kamayib boradi. Shu bilan birga, investitsiya loyihasiga sarflanadigan korxona ichki mablag'lari hisobiga kutilayotgan sof foyda me'yori ham shunchalik yuqori bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, xarajatlar va foydalilikni taqqoslash orqali kutilayotgan sof foyda me'yoriy qarz foizlari miqdori bilan tenglashgunga qadar investitsiya loyihalariga tegishli mablag'lar ajratiladi. Shunga ko'ra, qarzlar bo'yicha foizlar miqdori o'zgarishi bilan investitsion xarajatlar o'zgaradi va turli hajmdagi investitsiyalarga kapital qo'yishda qarz foizlar miqdori ham belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Biroq boshqa omillar ham borki, ular investitsiya loyihasini moliyashtirishga bo'lgan egri talab o'zgarishiga sabab bo'ladi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi: investitsiya darajasi o'zgarib turishi; investitsion loyihaga sarflanadigan xarajatlar; texnik xizmat ko'rsatishlar qiymati; texnologik o'zgarishlar; kapital qo'yilmalar va ishiab chiqarish quvvatlari zahiralari; soliq siyosati omillaridir.

Ular ta'sirida kutilayotgan sof foyda me'yori o'sishi yoki kamayishi tufayli investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga bo'lgan talab ham o'zgarib turadi.

Hozirgi kunda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning yangi, usuli sinditsirlashtirilgan kreditlash (sindikatga uyushgan bir necha kreditorlarning kreditlari majmui) paydo bo'ldi. Iqtisodiy adabiyotlarda bu so'zning aniq atamasi yo'qligi sababli, ko'pchilik hollarda moliyalashtirishning bu turini sindikatlashtirilgan kredit deb ham ataladi.

Sindikatlashmoq, sindikat tuzib birlashmoq ma'nosini bildirib, investitsiyalarni moliyalashtirish tizimida yirik investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirishni tashkil etish usullaridan birini anglatadi. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda sindikatlashtirilgan kreditning asosiy xususiyati shundan iboratki, bunda bir necha kreditorlarning mavjudligi, moliyalashtirish uchun berilgan kredit summasi va u bilan bog'liq risklarning ishtiropi kreditorlar (banklar) o'rtasida taqsimlanishidadir.

Investitsiya loyihalarni moliyalashtirishda sindikatlashtirilishi mumkin bo'lgan kreditlarga loyihaviy moliyalashtirish ham kiradi. Loyihaviy moliyalashtirishda kreditni qaytarishning manbai bo'lib, loyihani amalga oshirish natijasida olingen foyda hisoblanadi.

Hozirgi vaqtida yirik investitsiya loyihalarini ro'yobga chiqarish, faqatgina maqsadli moliyalashtirilgandagina samarali amalga oshirilishi mumkin. Maqsadli moliyalashtirish kredit resurslaridan foydalanishdagi o'sha javobgarlikni bartaraf etadi.

Maqsadli moliyalashning afzalligi shundaki, bunda kreditor nafaqat qarz resurslarini taklif qiladi, balki ularni qulay sharoitlarda tovarlar bilan ta'minlaydi.

Investitsiya loyihalarini har tomonlama (xususan moliyaviy, texnologik, tashkiliy, muddati va boshqa) xarakterlash mumkin. Buarning har biri investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda muhimdir, lekin ko'p hollarda investitsiya faoliyatida moliyaviy va iqtisodiy mezonlar hal qiluvchi rol o'yaydi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatda investitsiya va beznesni baholashda, xususan, moliyalashtirish jarayonini samarali olib borish, kelgusida yuqori daromad keltirib, iqtisodiyotdagi ishsizlik masalasini hal etishda ham muhim omil bo'lib hisoblanadi.

## **1.2. Investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni va mohiyati.**

Xorijiy mamlakatlarning tajribasi va investitsiya to'g'risida o'zimizda qabul qilingan qonunning tahlilidan kelib chiqib investitsiyaning shartli ravishda uchta turini ajratish mumkin:

- 1) Moliyaviy investitsiyalar.
- 2) Moddiy investitsiyalar.
- 3) Aqliy (intelektual) investitsiyalar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir investitsiya turining o'ziga xos o'rni bo'ladi. Moliyaviy investitsiyalar tarkibiga mahalliy va xorijiy mamlakatlarning pul birlklari, banklardagi omonatlari, depozit, sertifikatlar, aktsiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar hamda ularga tenglashtirilgan boyliklar kiradi.

Moddiy investitsiyalar tarkibiga asosiy fondlar, ya'ni binolar, asbob-uskunalar, inshootlar, kommunikatsiyalar va boshqa turdag'i asosiy ishlab chiqarish fondlarning aktiv va passiv qismlari kiradi.

Aqliy (intelektual) investitsiyalar miqdori juda rang-baragdir, ya'ni ular, mulkiy huquqlar shaklidagi investitsiyalar, aqliy mehnatga oid shaklidagi investitsiyalar va tabiiy resurslardan foydalanish shaklidagi investitsiyalardan iborat.

Mulkiy huquqlar guruhiga kiradigan investitsiyalarning xillari bozor munosabatlarning nechog'lik rivojlanishiga bog'liq. Milliy mehnatga oid haq huquqlar shaklidagi investitsiyalar tarkibiga mualliflik huquqlari, «Nou-xau», kashfiyotlar, tovar belgilariga beriladigan litsenziyalar va boshqa xil egalik huquqlari kiradi. Tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari ko'rinishidagi investitsiyalarga yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqlarini o'z ichiga oladi.

Hamma turdag'i investitsiyalar, ularning hajmidan qat'iy nazar, biror bir investision jarayonning natijasidir.

Olimlarning investitsiyalar to'g'risidagi fikrlarini, investitsiyalar xususida qonunlarimizda keltirilgan ko'rsatmalarni umumlashtirilib investitsiyaga quyidagicha ta'rif beriladi. «Investitsiya deb har bir investoring ixtiyoridagi moliyaviy, moddiy va aqliy boyliklarni birlamchi iqtisodiy samara olish maqsadida biror-bir investision ob'yektga sarflanishiga aytildi».

### 1.3. Investitsiyalarning tasniflanishi.

Investitsiya to'g'risidagi tahlillar va berilgan ta'riflarga asoslanib hamda iqtisodiyot rivojlanishiga har tomonlama ijobiy ta'sirini hisobga olib, uning quyidagi vazifalarini belgilash maqsadga muvofiqdir:

- iqtisodiyotda ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish vositalarini optimal joylashtirish bilan keng tarmoqli bozor infratuzilmalarini shakllantirishga imkon yaratish;
- iqtisodiyotdag'i takror ishlab chiqarish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi barcha yo'nalishlarni va imkoniyatlarni amaliyotga tadbiq etish;
- mamlakatning milliy xususiyatlarini hisobga olgan holdagi qonuniy kafolatlangan investorlarni qoniqtiruvchi ulushini yaratadigan va moliyaviy o'sishni ta'minlovchi infratuzilmalarni faollashtirish;
- iqtisodiyotning barcha sohalarini faollashtirish orqali mamlakatning barqaror o'sishi va jahon iqtisodiy tizimiga integrasiyalashuvini tezlashtirish.

Iqtisodiyotga kiritilayotgan investitsiya miqdori va uning dinamikasi mamlakatdagi iqtisodiy o'sish sur'atlarini belgilovchi asosiy omillardan biri bo'lib, mazkur omil, o'z navbatida, investitsiya resurslari manbalarining tarkibiy tuzilishiga va uning barqarorligiga bog'liqdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiya resurslari manbalarini makro va mikro darajada farqlanishidan qat'iy nazar, mamlakat investitsiya bozorida o'ziga xos o'rniغا va iqtisodiy chegaralariga ega. Bozor munosabati sharoitida investitsiya resurslari manbalarini ichida kreditlar o'ta muhim strategik ahamiyatiga

egadir. Chunki, bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning o'z mablag' manbalari cheklangan bo'lib, ular, asosan, joriy harajatlarni qoplash uchun sarflanadi, qolgan qismi esa cheklangan mablag' sifatida investitsiya faoliyatini chegaralab qo'yadi. Shu bois hozirda investitsiya resurslari bozorida taklifni, nafaqat, barqarorlashtirish, balki yetarli miqdorda oshirish uchun uning manbalari tarkibida davlat ulushini kamaytirgan holda chet el kreditlari va mahalliy banklar kreditlarini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Investitsiya faoliyati va uning manbalari iqtisodiyot rivojining jadal sur'atlarini belgilab berish bilan birga u har qanday tizimda ko'p jihatdan mintaqqa va mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sib borishini va taraqqiy etish darajasini ifoda etishi lozim.

#### **1.4. Investitsiya jarayoni mazmuni va asosiy bosqichlari.**

Barcha korxonalarning faoliyati u yoki bu darajada investitsiya faoliyati bilan bog'liqdir. Investitsiyalash bo'yicha qaror qabul qilishni turli omillar murakkablashtiradi:

- investitsiya turi;
- investitsiya loyihasi qiymati;
- investitsiyalashga yo'naltirish mumkin bo'lgan moliyaviy resurslarning chegaralanganlik darajasi;
- qarorni qabul qilish bilan bog'liq, tavakkalchilik darajasi;
- amalga oshirish mumkin bo'lgan loyiҳalar soni va boshqalar.

Investitsiya zaruriyatining asoslari turlicha bo'ladi. Umuman olganda ularni 3 turga bo'lish mumkin: mavjud moddiy texnik bazani aniqlash, ishlab chiqarish faoliyati hajmini oshirish, yangi faoliyat turlarini o'zlashtirish.

U yoki bu yo'nalish bo'yicha investitsiya loyihasini qabul qilish bo'yicha mas'uliyat darajasi turlichadir. Masalan, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini aniqlash bo'yicha qaror qabul qilish deyarlik qiyinchiliksiz amalga oshadi. Chunki, odatda, korxona rahbariyati qanday hajmda va qanday asosiy vositalar kerakligi haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. Biroq, gap asosiy faoliyatni kengayitirshi bilan bog'liq investitsiyalar haqida borsa, masala murakkablashadi. Bunda bir qator yangi omillarni inobatga olish zarur bo'ladi: tovarlar bozorida korxona holati o'zgarishi xavfsining mavjudligi; moddiy, mehnat va moliyaviy resurslar qo'shimcha hajmlarining mavjudligi; yangi bozorlarni o'zlashtirish imkoniyati va boshqalar.

Investitsiyalar har qanday iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi va uning taraqqiyotini ta'minlovchi kuch ekan, barcha imkoniyatlarimizni ishgaga solib

iqtisodiyotimizga yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmini oshirishimiz lozim.

Shu bois investitsiya faoliyati to'g'risida so'z yuritishdan avval bu sohaga oid ba'zi bir atamalar (investitsiya, kapital qo'yılma, xorijiy investitsiya) mohiyatini aniqlab olishimiz zarur bo'ladi. Misol uchun, o'gan asrdaning ikkinchi yarmida «investitsiya» va «kapital qo'yilmalar» tushunchalari bir xil mazmunda talqin qilinib kelinardi. Bunday hollarda kapital qo'yilmalar deganda asosiy fondlarni vujudga keltirish va takror ishlab chiqarish, mavjud qvvatlarni ta'mirlash va ularni kengaytirishga mablag'lar solish deb tushunilardi. Bu unchalik to'g'ri emas, chunki mablag'lar aylanma aktivlarga ham, noroddiy aktivlarning ayrim turlariga ham, turli moliyaviy vositalarga ham solinadi.

Hozirga qadar «investitsiya» tushunchasi mohiyatini iqtisodchi olimlar turlicha talqin qilib keladilar. Ayrim iqtisodchilar uni «tadbirkorlik faoliyatiga daromad olish maqsadida safarbar etilgan barcha turdag'i boylik» deb tushunsalar, ayrimlari lotincha «INVEST» so'zining aynan tarjimasi «solish» degan ma'noni bildirishidan kelib chiqqan holda «kapital solish» bilan birga qilib ta'rifladilar.

Xususan, Nobel mukofotining iqtisodiyot bo'yicha laureyati bo'lgan U.F. Sharpning eng ommabop hisoblangan «Investitsiya» darsligida - «Investitsiyalar kelgusida (ehtiimol nomuayyan) qiymatlik olish maqsadida hozirgi vaqtida muayyan qiymatlikdan voz kechishdir»<sup>2</sup>, - deb ta'riflanadi.

Shved iqtisodchi olimi Klas Eklund fikricha, «investitsiya — bu kelajakda ko'proq iste'mol qilish sharoitiga ega bo'lish uchun ertyangi kunga qoldirilgan narsa. Uning bir qismi bozirda ishlatalmasdan zaxiraga qoldiriladigan iste'mol buyumlari bo'lib, boshqa qismi esa bu ishlab chiqarishni kengaytirishga yo'naltirilgan resurslardir»<sup>3</sup>. Bu iqtisodchi olim investitsiyalarning mohiyatini soddaroq talqin qilgan bo'lib, u «kapital qo'yilmalarga» berilgan ta'rifga ko'proq mos tushadi.

«Ekonomika, prinsip, problema i politika» darsligining mualliflari investitsiya tushunchasini quyidagicha sharxlardilar, ya'ni «investitsiya «INVESTMENT» — bu moddiy zaxiralarning ko'payishi, ishlab chiqarish vositalarining jamg'arilishi va ishlab chiqarishga harajatlardir». Ushbu ta'rif o'z mazmuniga ko'ra, ko'proq, «kapital qo'yilmalar» tushunchasiga mos kelishini ta'kidlab o'tish joiz.

Rossiyalik iqtisodchi olim E. V. Mixailova esa «investitsiyalar kelajakda daromad yoki ijtimoiy samara olish maqsadida kapitalni har qanday shaklda qo'yish sifatida ifodalanadi», degan fikrni ilgari suradi. Bu ta'rif umumiy va

<sup>2</sup> U. Sharp, G. Aleksandr, Dj. Beyli. Investitsii. Per. s. angl. - M.: «INFRA», 2000 Y., 979 - bet.

<sup>3</sup> Klas Eklund. Effektivnaya ekonomika: shesakoya model. - M.: «Ekonomika», 1991 y., 96 - bet.

sodda qilib tushuntirilgan bo'lib, bozor iqtisodiyoti manfaatlariga mos talqin qilingan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan D. G'. G'ozibekov va T. M. Qoraliyevlar investitsiyani daromad (foyda) yoki ijtimoiy samara keltiradigan va tadbirkorlik, ishbilarmonlikning davlat tomonidan ta'qiqlanmagan faoliyatlariga jalg qilinadigan (sarflanadigan) barcha turdag'i mulkiy va intellektual boyliklar deb ta'rifladi. Samara keltiradigan mulkiy va intellektual boyliklar, ya'ni investitsiyalar quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

- pul mablag'lari, banklardagi maqsadli jamg'armalar, paylar, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar;
- harakatdagi va harakatda bo'limgan mulkiar (binolar, inshootlar, asbob-uskunalar);
- mualliflik huquqi, ixtirolardan foydalananish huquqlaridan (nau-xau) tashkil topgan mulkdorlik huquqlari, boshqa intellektual boyliklar;
- yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalananish huquqlari hamda mulkchilik huquqlari;
- boshqa boyliklar.

Ayniqsa, D.G'. G'ozibekovning «Investitsiyalarni moliyalashtirish muammolariv» nomli ilmiy asarida investitsiyalarning makrodarajadagi va ishlab chiqarish nazariyasidagi, moliya nazariyasidagi va umuman, iqtisodiyotdagi mohiyatini ochib berishi alohida ahamiyatga ega. Muallifning fikricha, investitsiyalarning mohiyatini ta'riflayotganda ularning turli xil xatarlar va kutilayotgan daromadlar bilan bog'liqligini hamisha yodda tutmoq kerak. Pulning daromad keltirish layoqati pul keladigan manbalarga va uning nimalarga sarflanishiga, ya'ni pulning qayerdan kelishi va nimalarga investitsiyalanishiga bog'liq.

Binobarin, kapital manbalarining ishonchliligi bilan mablag'larni investitsiyalashning to'g'riligi o'rtasida uzviy bog'liqlik kuzatiladi. Investitsiya ana shu belgilari bilan boshqa mablag' solishlardan farqlanib turadi. Shuningdek, investitsiyalarning noaniqlik ehtimoli bo'lgan va kelgusida kutilayotgan qiymatga kapitalning aniq bugungi qiymatini almashtirishdan iboratligi, buning dalili sifatida investitsiyalarning safarbar etilishida ularni ongli ravishda aniq va noaniq bo'lgan risklar bilan bog'lanishini keltirib o'tadilar. Va ta'kidladiki, investitsiyalar qaratilgan soha va yo'nalish ob'yektlari, investitsiyalash sub'yektlari, qayta ishlab chiqarish va harakat yo'nalishlaridan kelib chiqib, muayyan maqsadlarni ko'zлади va ular bilan bog'liq bo'lgan aniq va noaniq

risklar bilan to'qnashadi.

Biz investitsiyalarning mohiyatini ochishda ularning maqsadlari va ular bilan bog'liq bo'lgan risklar qayta ishlab chiqarish, qaratilgan soha va yo'nalish ob'yektlaridan, investitsiyalar sub'yektlari va harakat yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda ularni tasniflashni maqsadiga muvofiq deb hisoblamiz.

Investitsiyalar aniq va noaniq, lekin ehtimoli bor risklar ostida kapitalni muayyan jarayonlarga, muayyan vaqtga bog'lash bo'lib, uning hozirgi qiymatini saqlash, kapitallashtirish va jamg'arish maqsadiga qaratiladi.

Shuningdek, investitsiya tushunchasining mazmuni O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi qonunida «Iqtisodiy va boshqa faoliyat ob'yektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar» sifatida ham ta'riflanadi.

Yuqoridagilarni tahlil qilib, umumlashtirar ekanmiz investitsianing juda keng tushunchaga ega ekanligini va uni har xil talqin qilish mumkinligini ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun «investitsiya» tushunchasiga ta'rif berayotganda uning barcha jihatlarini hisobga olmog'imiz lozim. Iqtisodiy fanning turli bo'limlarida, shuningdek amaliy faoliyatlarining turli yo'nalishlariga tadbiqan mablag' solish sohalari va ob'yektlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, bu atamaga turli ma'no berilmogda.

Fikrimizcha, bu atamaning barcha jihatlarini umumlashtirib, quyidagicha ta'rif berish lozim. «Investitsiya» bu soyda (daromad) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida, davlat, huquqiy va jismoniy shaxslar (investorlar) tomonidan cheklangan imkoniyatlardan samarali foydalanib, cheklanmagan ehtiyojni qondirish uchun iqtisodiyotning turli sohalariga ma'lum muddatga sarflangan barcha turdag'i boyliklar.

Investitsiya mohiyatini ochuvchi ushbu ta'rifga binoan hozirgi bozor iqtisodiyoti davrida investor «cheklangan imkoniyatlardan samarali foydalanib, ishlab chiqarishga «ma'lum miqdordagi» mablag' sarflashi natijasida qisman foyda olishi, ushbu holatni umumjamiyat miqiyosida kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning barcha jabhalarida qatnashishi natijasida iqtisodiy-moliyaviy va ma'naviy o'sishini ta'minladi. Bu o'z o'rnda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning — «Investitsiya sohasi mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini, barqarorligini ta'minladi va xalq xo'jaligi barcha tarmoqlarining jadal o'sishi, bo'lg'usi yuksalishning muhim poydevori bo'lib xizmat qiladi», — deb ta'kidlagan fikriga bevosita to'g'ri keladi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, investitsiya iqtisodiyot holatini tavsiflovchi «asosiy birlamchi» elementi degan xulosa qilish mumkin. Shundan kelib chiqib, investitsiya ma'lum sub'yekt orqali iqtisodiyot sohalaridan daromad olish yoki

samaraga erishish maqsadida sarflanayotgan ekan, uni bevosita va bilvosita daromad keltiruvchi investitsiyalarga ajratish maqsadga muvofiqdir.

### **Nazorat savollari**

1. Investitsiyalarning iqtisodiyotdagi roli va ahamiyati.
2. Investision faoliyatni amalga oshirish shakllari.
3. Ijtimoiy samara keltiruvchi investitsiyalar mohiyati.
4. Investitsiyalarning iqtisodiy vazifalar.
5. Moliyaviy investitsiyalarning iqtisodiyotdagi roli va ahamiyati.
6. Moddiy investitsiyalarning iqtisodiyotdagi roli va ahamiyati.
7. Aqliy (intellektual) investitsiyalarning iqtisodiyotdagi roli va ahamiyati.
8. Investitsiya faoliyati sub'yektlari sifatida davlat investitsiyalarining roli va vazifalari.

## **II-BOB. INVESTITSIYA FAOLIYATI VA INVESTITSIYA SIYOSATI**

### **2.1. Investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirishda davlatning roli**

Investitsion faoliyatning tashabbuskorlari bo'lib, investorlar (yoki investitsiya sub'yektlari) maydonga chiqadi.

Investorlar o'zлari egalik qiladigan va qarzga olingan mulkiy va aqliy qadriyatlarini tadbirkorlik ishiga ishlatalish to'g'risida qarorga kelgan investision faoliyat sub'yektlaridir. Investorlar ulush qo'shuvchilar, kreditorlar, xaridorlar rolda maydonga chiqishlari, shuningdek, investision faoliyatning boshqa qatnashchilari vazifalarini bajarishlari mumkin.

Investision jarayonning asosiy ishtirokchilari bo'lib davlat, korxona va tashkilotlar, kompaniyalar va jismoniy shaxslar hisoblanadi. O'z navbatida bularning har biri investitsiya jarayonining talab hamda taklifida ishtirok etishlari mumkin.

**Investisiyalar faoliyatining sub'yektlari bo'yicha ularni asosiy uch guruhga ajratish mumkin, ya'ni bular:**

- davlat investisiyalar;
- xususiy investisiyalar;
- chet el investisiyalariga bo'lish mumkin.

Davlat investisiyalariga - shu davlatning davlat byudjeti va mahalliy byudjet shaklidagi mablag'larning bir qismini, ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy va iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun joylashtirish tushuniladi.

Davlat tomonidan mablag' ajratish yo'li bilan, ya'ni vaqtida bu ishni hukumat va boshqaruв organlari investision va ssuda resurslarini byudjetdan mablag' bilan ta'minlash hisobiga amalga oshiradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida davlatning investision faoliyatidagi roli asosan fan-teknika taraqqiyotini rag'bantirish, malakali isbchi kuchini yetishtirib berish, ishlab chiqarish infrastrukturasiga mablag'lar ajratish singari qimmat turadigan jarayonlarga davlat sektori byudjetidan yetarli mablag' berish bilan cheklanishi kerak. Bundan tashqari, iqtisodiy mustaqillikni ta'minlash va fan-teknika taraqqiyotini tezlashtirish, jamoat ishlab chiqarishi sohaлarini sog'lomlashtirish, qoloq tumanlar ijtimoiy infrastrukturasiini industirlash hamda yaxshilash maqsadlarida iqtisodiyotning ustuvor sohaлariga davlat tomonidan ssudalar va subsidiyalar ko'rinishida yordam berilishi mumkin.

Ijro etuvchi organning ixtiyoriy darajasi uchun ham o'z faoliyatini

moliyalashtirish uchun ko'p miqdorda pul mablag'i talab etiladi. Bu faoliyat maktab, kasalxonalar va turar joylarni qurishda kapital qo'yish bilan bog'liqdir. Asosan bunda loyihalar turli xil uzoq muddatli qarz majburiyatlarini obligatsiyalar chiqarish orqali moliyalashtiriladi. Pul mablag'lariiga bo'lgan talabning yana bir manbasi bu davlatning joriy harajatlaridir. Masalan, shahar hokimiyatlari uchun to'plangan mahalliy soliqlar va yig'imlar kelib tushmasidan oldin joriy harajatlar uchun pul mablag'lari kerak bo'lishi mumkin. Bunday holda ular qisqa muddatli obligatsiyalar chiqarish yordamida moliyalashtiriladi.

Ayrim hollarda ijro etuvchi organ pul taklifini amalga oshiruvchilar tomonida qatnashishi mumkin. Agar viloyatda qandaydir muddat davomida pul mablag'i bo'sh turadigan bo'lsa, u holda bu mablag'ni joriy hisobda ushlab turish o'rniغا, hokimiyat bu mablag'ni qisqa muddatli instrumentlarga joylab, bu orqali daromad olishi mumkin.

Xususiy investitsiyalar esa – turli xil xususiy korxona va tashkilotlar, firmalar, tadbirkorlar hamda aholi tomonidan biror bir faoliyatga foyda olish maqsadida jolashtirgan mablag'lari kiradi. Bunda davlat va yuqori vazirligi bo'limgan xususiy yuridik va jismoniy shaxslar, xo'jalik uyushmalari, jamiyatlar, shirkatlar shuningdek jamoat tashkilotlari va boshqa yuridik shaxslar va jismoniy shaxslar tomonidan mablag'lar ajratish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Ko'p korxonalar faoliyat turidan qat'iy nazar, o'zini faoliyatini ta'minlab turish uchun ko'p miqdorda mablag'ga muxtoj bo'ladi. Bu korxonalarning ham uzoq hamda qisqa muddatli harajatlarini mavjud. Korxonalarning qisqa va uzoq muddatli harajatlarini moliyalashtirish uchun korxonalar turli xildagi qarz majburiyatlarini va aktsiyalarni muomalaga chiqaradi. O'z navbatida ularda bo'sh pul mablag'lari mayjud bo'lsa, ular bu mablag'larni boshqa faoliyatga yo'naltiradi va bu orqali daromad oladi.

Jismoniy shaxslar esa investitsion jarayonga turli xil usulda mablag' yetkazib berishi mumkin, masalan pul mablag'larini bank hisob raqamlardida joylash, obligatsiya, aktsiya va sug'urta polislarni sotib olish, turli xildagi mulkni sotib olish va h.k. Moliaviy instrumentlarni tanlash – muhim masala bo'llib, u investor o'z oldiga qo'yadigan maqsadlariga bog'liqdir.

Chet el (xorijiy) investitsiyalar – bu chet eldan kirib kelayotgan mablag'lar oqimi hisoblanadi. Investitsiyaning ushbu turi ham davlat va xususiy turlarini o'z ichiga oladi. Bunda investitsiya faoliyati davlatlar, yuridik shaxslar va chet el fuqarolari tomonidan chet el investitsiyalarini berish yo'li orqali amalga oshiriladi.

Mulkka egalik qilish huquqiga, bekamu-ko'st xo'jalik yuritish yoki operativ ravishda boshqarish huquqiga, shuningdek daromalar manbaiga, jamg'armalariga

ega bo'lgan va qarzga beriladigan hamda jalb etiladigan mablag'larni olish huquqidан foydalana oladigan respublikamiz va chet el fuqarolari, yuridik shaxslar, shuningdek ajnabiy davlatlar tomonidan birqalikda investitsiyalar ajratish yo'li bilan.

Demak, investitsiyalarni amalga oshirishda investition faoliyatni olib borish shakllari ham mulkchilik shakllariga qarab belgilanadi. Mablag'larning qaysi sohalarga ajratilishi, hajmlari va investitsiyalar berishda qatnashish shartlariga qarab investition faoliyatning quyidagi ob'yektlari tafovut qilinadi:

Xalq xo'jaligining hamma sohalarida yangidan yaratiladigan va zamonaviy holga keltiriladigan asosiy fondlar va aylanma mablag'lar; fan-tehnika mahsulotlari, aqliy qadriyatlar, aktsiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar, pul ulushlari, mulkiy huquqlar va boshqalar.

**Investitsiyalar** – iqtisodiy va boshqa faoliyat ob'yektlariga kiritilgan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlarini yig'indisiga tushuniladi.

**O'zbekiston Respublikasida investition faoliyatni quyidagi yo'llar bilan amalga oshirish mumkin:**

- yuridik shaxslar tuzish yoki ularning ustav jamg'armalarida (kapitallarida) ulushli ishtirok etish, shu jumladan mol - mulkni yoki aktsiyalarni olish;

- qimmatli-qog'ozlarni, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan emissia qilingan qarz majburiatlarini olish;

- kontsessialarni, shu jumladan, tabiiy resurslarni qidirish, ishlab chiqish, qazib olish yoki ulardan foydalanishga bo'lgan kontsessialarni olish;

- mulk huquqini, shu jumladan ular joylashgan yer uchastkalari bilan birqalikda savdo va xizmat ko'rsatish sohalari ob'yektlariga, turar joylarga mulk huquqini, shuningdek, yerga hamda boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish (shu jumladan, ijara asosida foydalanish) huquqini qonun xujjalariiga muvofiq olish.

Tadbirkorlikning mulkchilik turidan qat'iy nazar investitsiya faoliyati doirasida davlat byudjeti, byudjetdan tashqari fondlar, korxonaning o'z mablag'lari, tijorat banklari mablag'lari va aholi tomonidan joylashtirilgan ulushli mablag'lar hisobidan to'g'ridan- to'g'ri moliyalash orqali o'z faoliyatini amalga oshiradilar.

O'zbekiston Respublikasi hukumati kafolati ostida chet el investitsiyalari va kreditlarini jalb etgan holda amalga oshiriladigan investitsiyalar markazlashgan investitsiya hisoblanadi.

Markazlashtirilgan investitsiyalarini amalga oshirish bo'yicha qarorlar davlat organlari tomonidan ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishning istiqbolga mo'ljallangan taxminlari, aniq maqsadga mo'ljallangan taxminlari, aniq maqsadga mo'ljallangan ilmiy texnik va kompleks davlat dasturlari hamda ana shu investitsiyalarning maqsadga muvofiqligini aniqlovchi texnik-iqtisodiy asoslar negizida qabul qilinadi.

Umum davlat ahamiatiga molik bo'lgan, aniq maqsadga mo'ljallangan kompleks davlat dasturlarining loihalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi belgilaydigan tartibda ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi davlat byudjetidan moliyalanadigan investitsiyalarning hajmlarini tasdiqlaydi.

## **2.2. O'zbekistonda investitsion faoliyatning me'yoriy qonuniy bazasi.**

Investitsiya munosabatlарining davlat tomonidan tartibga solinishi huquqiy sharoyitlar yaratish, ushbu faoliyatni yuritish uchun kafolatlar berish, bu faoliyat sub'yeqtlarini sug'ortalash va boshqa vositalar orqali ijtimoiy yoki davlat manfaatlarini amalga oshirish yo'lida tashkil etiladi.

Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- investitsiya faoliyatini qonunchilik negizini takomillashtirish;
- soliq to'lovchilar va soliq solish ob'yeqtlarini, soliq stavkalari va ularga doir imtiyozlarni tabaqlashtiruvchi soliq tizimini qo'llash;
- asosiy fondlarni jadal amartizatsiya qilish;
- normalar, qoyidalar va standartlarni belgilash;
- monopoliyaga qarshi choralarни qo'llash;
- kredit siyosati va narx belgilash siyosatini o'tkazish;
- yerga va tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalaniш shartlarini belgilash;
- investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish mexanizmlarini belgilash;
- O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga kiritilgan investitsiya loihalarining amalga oshirilishi monitoringini yuritish.

Hozirgi davrda investitsiya munosabatlari kapitallarga egalik qilish, ulardan foydalaniш va ularni tasarruf etish borasidagi munosabatlarni qamrab oladi va nafaqat milliy iqtisodiyot doirasida, balki xalqaro iqtisodiyot darajasida

resurslarni taqsimlash, qayta taqsimlash jarayonlarini aks ettiradi.

Ma'lumki investitsiya faoliyati kapital, tadbirkorlik, moliya, innovatsiya, ijtimoiy, iste'mol va boshqa investitsiyalarning hamma turlari bilan bog'liq bo'lib, odatda, soliqlarning fiskal (xazinani to'ldirish) va tartibga solish funktsiyalaridan foydalalish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu faoliyat, shuningdek, amartizatsiya siyosatini, dotasiyalar, subsidiyalar tizimini, kredit, narx siyosatini, davlat kafolatlari tizimini, imtiyozlar yaratishni, chet el investorlarining huquqlarini himoya qilishni va boshqalarni ham qamrab oladi. Davlat harajatlarini moliyalashtirish uchun turli darajadagi byudjetlarga zarur mablag'lar tushumlarini ta'minlashga qaratilgan fiskal vazifaning bajarilishi, milliy iqtisodiyotning rivojlanish darajasiga bog'liq. Tartibga solish funktsiyasining ishlatalishi davlatning takror ishlab chiqarish jarayonida ayrim tarmoqlarga investitsiyalar oqimlarini boshqarishi bilan amalga oshiriladi. Shu bilan birga, iqtisodiyotning turli sohalarida kapital jamg'arilishi jarayonlarini kuchaytirish yoki susaytirish, aholining to'lovga qobil talabini kengaytirish yoki qisqartirish yo'llari bilan tartibga solish funktsiyasini bilan foydalaniadi. Soliqlarni tartibga solish makroiqtisodiy jarayon va proporsiyalarga ta'sir etishiga qaratiladi. Soliqqa tortishda imtiyozlar asosan mikroiqtisodiyotga qaratilgan va iqtisodiy sub'yektlar manfaatlarini hisobga oladi. Biz yuqorida ko'rib o'tgan funktsiyalar soliq stavkalari miqdorini o'zgartirish, imtiyozlar va sanktsiyalar (jazo choralar) qo'llash, soliq kreditlari berish, to'lov muddatlarini kechiktirish va boshqa yo'llar bilan amalga oshiriladi.

Jahondagi ko'pgina mamlakatlarda soliqlarning investitsiya faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan tartibga solish funktsiyasidan samarali foydalaniadi. Masalan, Yaponiya, Tayvan, Janubiy Koreyada o'tish davrida soliq proteksionizmdan unumli foydalilanigan. AQSh da «buyuk depressiya»ni bartaraf etish davrida ham xuddi shunda bo'lgan.

Yaponiyada sanoat kompaniyalari ilg'or texnika va texnologiyaga qilingan investitsiyalarning 7 foiziga teng miqdorda foyda solig'ini qisqartirish huquqiga ega. Kanadada bunday chegirma ilg'or texnikaga qilingan investitsiyalarning 7 foizdan 20 foizigacha miqdorini tashkil qiladi.

Soliq krediti ko'rinishidagi imtiyozlar tadbirkorlikning ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlannmalar (ITTKI) harajatlariga tadbigan ham keng qo'llaniladi. Bir qator mamlakatlarda soliq krediti kompaniyalarning foyda solig'idan bu kompaniyalarning o'tgan yil yoki bazis davr uchun o'rtacha yillik me'yorlarga nisbatan ITTKI xarajatlari o'shining muayyan hissasini chegirish ko'rinishida amal qiladi (AQSh da 20 foiz, Frantsiyada - 50 foiz, Yaponiyada - 20 foiz, Kanadada 100 foiz va undan yuqori).

G'arb mamlakatlarda soliq imtiyozlari, birinchi navbatda investitsiyalar va ilmiy texnika faoliyatini rag'batlantirish, shuningdek ayrim tarmoqlar va mintaqalarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash uchun joriy qilinadi. Ularning yordamida ishlab chiqarishni kengaytirish va modernizatsiyalash, texnikalar bilan qayta jihozlash uchun sharoitlar aratiladi. Investitsiya, ilmiy-texnika faoliyatini, tadbirkorlikni butun mamlakat doirasida, mintaqasi miqyosida va ayrim faoliyat sohalari bo'yicha rag'batlantirishga yo'naltirilgan soliq imtiyozlari eng barqaror imtiyozlar hisoblanadi. Soliq imtiyozlari quyidagi shakkarda qo'llaniladi:

- foyda solig'idan chegirma tarzida beriladigan soliq krediti;
- foyda solig'i bazasini kamaytirish chegirmalari;
- soliqdan butunlay ozod qilish yoki pasaytirilgan soliq stavkalarini belgilash;
- jadallashtirilgan amortizatsiyani qo'llash.

Turli mamlakatlarning tajribalari tasdiqlashicha, jadallashtirilgan amartizatsiya:

- kapital jamg'arilishini tezlashtirish (chunki yashirilgan foydaning jami summasi kapital qo'yilmalarga ketadi);
- asosiy kapitalning yangilanishini jadallashtirish, muayyan darajada uni inflatsiyadan bexatar qilish va raqobatbardoshlikni ko'tarish;
- investitsiyaga yo'naltiriladigan foydani soliqqa tortishdan qonuniy ravishda ozod qilish imkoniyatlarini beradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida u yoki bu investitsiya ob'yektiga qo'yilma qo'yish shu maqsaddan keladigan daromad darajasiga bog'liq. Daromd normasi, u orqali esa ushbu aktivlarning baholari, investitsiya tovarlariga bo'lgan talab va taklif orqali aniqlanadi. Bunday hollarda davlat o'zining pul-kredit siyosati orqali investitsiyaga bo'lgan talab va taklifni tuzilishi va nisbatiga ta'sir etishi mumkin. Natijada esa investitsiya qatnashchilari moliyaviy aktivlarning daromadlilik me'yoriga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bizga ma'lumki har bir davlat o'zining iqtisodiy holatidan kelib chiqib u yoki bu turdag'i investitsiya bozorini tartibga solish kontsepsiyasini qo'llaydi. Jahon amaliyotida qo'llanilgan har qanday konsepsiyalar ikki darajali maqsadni o'z ichiga oladi.

**1. Oraliq maqsad-** talab va taklif nisbati, foiz stavkalari va pul massasining o'sishini mutanosiblashtirish ishlarini amalga oshirish ko'zda tutiladi.

**2. Pirovard maqsad-** milliy daromadni o'stirish, aholining bandlilik darajasini ta'minlash, inflatsiyani pasaytirish va boshqalar hisoblanadi.

**Oraliq maqsad esa pul-kredit va moliya sohasidagi talab va taklif o'rtafigi mos keladigan nisbatni tartibga solish mo'ljali sifatida xizmat qiladi.**

**Pirovard (strategik) maqsad pul-kredit siyosatini ishlab chiqarishga ta'sir etish darajasini aniqlaydi.**

**Umuman olganda davlat tomonidan investitsiya faoliyatini tartibga solish quyidagi maqsadlarga bog'liq:**

- ishlab chiqarish va bandlilik o'rtafigi tebranishni muvozzanatlash;
- bahoni barqarorlashtirish (hech bo'limganda inflatsiya darajasini pasaytirish);
- milliy daromadni o'stirish;
- to'lov balansini yaxshilash (ichki va tashqi qarzlarni qisqartirish);
- davlat byudjeti kamomadini pasaytirish.

**Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan rag'batlantirishda davlat tomonidan amalga oshiraladigan chora tadbirlarga quyidagi kiradi:**

1. Kredit ekspantsiyasi (tijorat banklar tomonidan beriladigan kredit resurslarning foiz stavkasini pasaytirish yo'li bilan ssuda kapitalining taklifini oshirish).

2. Davlat mansaftor bo'lgan tarmoqlarni byudjet resurslari hisobidan kreditlash.

3. Davlat manfaatdor bo'lgan qarzdor tarmoqlarni to'lov qobiliyatini kafolatlash.

O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida» gi Qonunida quyidagi davlat tomonidan investitsiya faoliyatini tartibga solish choralarini belgilangan:

- investitsiya faoliyatining qonunchilik negizini takomillashtirish;
- soliq to'lovchilar va soliq solish ob'yektlarining, soliq stavkalari va ularga doir imtiyozlarini tabaqaqlashtiruvchi soliq tizimini qo'llash;
- asosiy fondlarning jadal amartizatsiya qilish;
- monopoliyaga qarshi choralarini qo'llash;
- investitsiya loihalarining ekspertiza qilish mexanizmini takomillashtirish;
- O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturiga kiritilgan investitsiya loihalarini amalga oshirish monitoringini yuritish.

### **2.3. Zamonaviy investitsion siyosyatni amalga oshirishda chet el investitsiyalarining o'rni**

Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishda mamlakatning tashqi iqtisodiy siyosatini tartibga solish ham muhim ahamiyatga ega.

**Tashqi iqtisodiy siyosat** – bu milliy joriy va strategik maqsadlarga muvofiq tashqi iqtisodiy munosabatlар sohasida davlat idoralari tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuasidir.

Biror davlatning o'z milliy iqtisodiyotini chet el raqobatidan himoya qilishga qaratilgan iqtisodiy siyosati *proteksionizm* deb ataladi va bu siyosatning ayrim usullari xalqaro ayriboshlashning bir munkcha erkinlashuviga qaramay, barcha mamlakatlar tomonidan qo'llaniladi.

Ma'lumki, tarixan tarkib topgan ob'yektiv holatga ko'ra O'zbekiston sobiq Ittifoqdosh respublikalar iqtisodiyoti bilan chambarchas bog'langan edi. Shu bois O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyat ikki yo'nalishda olib borilmoqda; birinchidan, sobiq ittifoqdosh respublikalar bilan, ikkinchidan, respublika ilgari bevosita o'zaro munosabatlarda bo'limgan xorijiy davlatlar bilan. Agar birinchi yo'nalish, O'zbekistonni kam harajatlar sarflab, keng ko'landa xom ashyo, tayyor mahsulotlar, texnologiyalar, fan-texnika axborotlari bozoriga kirib borishini ta'minlasa, unga qudratli transport tarmoqlari va aloqa vositalaridan foydalanish imkoniyatini yaratса, ikkinchi yo'nalish, respublika iqtisodiyotini keng ravishda jahon hamjamiyatiga birlashuvining iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy asoslarini yaratish imkonini beradi.

O'zbekistonda tashqi iqtisodiy sohadagi davlat siyosatini shakllantirishda sobiq Ittifoqdan meros bo'lib qolgan iqtisodiy aloqalarning xususiyatlari ham hisobga olingan. Bu xususiyatlar quyidagilardan iborat:

- asosan an'anavy tovarlar savdosi bilan cheklanib qolish, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning xizmatlar va axborotlar, moliya kapitali va ishchi kuchi bilan ayriboshlash kabi turlarini deyarli rivojlanmaganligi;

- importning eksportdan ustunligi. Masalan, 1990 yilda respublikamizning tashqi savdo oboroti tashib keltirish hajmi 2,8 mlrd. so'mni, chetga mahsulot chiqarish hajmi 1,2 mlrd. so'mni tashkil etgan edi;

- eksport va import strukturasining samarasizligi: chetga asosan xom ashyo chiqarilgan, chetdan xalq iste'moli mollari keltirilgan.

Bunday holat respublika iqtisodiyotidagi nomutanosiblikni yanada chuqurlashtirdi. Shuning uchun ham, O'zbekistonni jahon hamjamiyatiga qo'shilishi Respublikaning mavjud imkoniyatlarini ob'yektiv baholashni va ulardan milliy manfaatlar yo'lida imkonli boricha to'liq foydalanishni talab qiladi.

Eslatish lozimki, O'zbekiston sobiq Ittifoqning yirik respublikalaridan biri bo'lib, aholisining soni bo'yicha 3-o'rinni va yalpi milliy mahsulot hajmi bo'yicha 5-o'rinni egallab kelgan. O'zbekiston yalpi milliy mahsulotning hajmi bo'yicha Bolgariya, Singapur, BAA, Quvayt kabi davlatlardan oldinda bo'lib, dunyodagi 40 ta yirik mamlakatlar qatoriga kiradi. Respublika tabiiy resurslarga boy, sanoatda va qishloq xo'jaligida yetarli darajada rivojlangan ayrim ishlab chiqarishlarga ega. Masalan, O'zbekiston tabiiy gaz qazib olishda dunyoda 9-o'rinda, oltin qazishda 7-o'rinda, oltingugurt kislotosi va mineral o'g'itlar ishlab chiqarishda hamda pilla yetishtirishda 7- o'rinda turadi. 90-yillar O'zbekiston iqtisodiy mustaqilligining dastlabki bosqichi hisoblanadi va davlatning tashqi iqtisodiy siyosatining maqsadlari shu davrning o'ziga xos xususiyatlariaga mos kelishi kerak. Ular orasida eng muhimlari quyidagilar:

- eksportni rivojlanтирish va uning tuzilishini yaxshilash. Chunki eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni shakkantirish milliy ishlab chiqarishni texnik iqtisodiy jihatdan jahon darajasiga ko'taradi, uning tuzilishini takomillashtiradi, respublika valyuta zahiralarini ko'paytiradi;

- import tuzilishini takomillashtirish, ya'ni milliy ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va kengaytirishga qaratish, ilgarigi xato va kamchiliklarni bartaraf etish;

- ishlab chiqaruvchi kuchlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish uchun chet el investitsiyalarini jalb etish;

- O'zbekistonning tashqi iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, ya'ni ma'lum darajada tashqi iqtisodiy faoliyatda eksport – import operatsiyalari, valyutani olib chiqish, boshqa xalqaro bitimlar ustidan davlat nazoratini o'rnatish.

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy siyosati aniq belgilangan maqsadlar va ularni amalga oshirish uchun asosiy tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Birinchidan, Respublika milliy iqtisodiyotining kuchli eksport bo'g'inini tashkil etuvchi va uni jahon bozorida munosib o'ringa ega bo'lishini ta'minlovchi sohalarini aniqlash.

Ikkinchidan, iqtisodiyotning eksport bo'g'inida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash usullaridan keng foydalanish. Bu usullar quyidagilardan iborat:

- eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni kengaytirish uchun imtiyozli foizlar bo'yicha ko'p muddatli kreditlar ajratish, mo'ljalangan investitsiyalarni sug'ortalash;

- eksport qiluvchilarga milliy ishlab chiqarish va uning xorijiy raqobatchilari ishlab chiqarishi harajatlari o'tasidagi farqni qoplash;

- davlat tomonidan respublikaga zamonaviy texnologiyalar, tajribalar, bilimlarni kirib kelishiga subsidiyalar ajratish;

- eksport va importni leisenziyalash yoki chetga mol chiqarishga va chetdan uni olib kelishga ruxsatnomalar berish;

- ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi, xorijdan keltiriladigan xom - ashyo va materiallar, asbob-usukunalar va jihozlar ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish va boshqalar.

Shu bilan birga, tashqi iqtisodiy-siyosat milliy valyutani mustahkamlash va uni boshqa valyutalarga erkin almashinuvini ta'minlashni, ichki narxlarni jahon bozori narxlariiga yaqinlashtirish maqsadida baholar islohotini tugallashni, tashqi iqtisodiy faoliyatning me'yoriy va huquqiy asoslarini xalqaro talablar darajasiga yetkazishni nazarda tutadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish davlat tashkilotlari tomonidan chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqish va uni bajarilishini ta'minlash jarayonini o'zida aks ettiradi. Bu chora-tadbirlar mamlakatning xalqaro ixtisoslashuvdag'i ishtirokidan keladigan foydani olish, jahon xo'jaligidagi davri pasayishlarning ta'sirini yo'qotish yoki kamaytirish, shuningdek valyuta kurslarining tebranishi va jahon iqtisodiyotidagi boshqa salbiy hodisalarining ichki iqtisodiyotga ta'sirini pasaytirishga yoki yo'qotishga, dunyo bozorida milliy ishlab chiqarish mavqeini mustahkamlashga yo'naltirilgan. Boshqacha aytganda, davlat tomonidan tartiblash har bir mamlakat tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy vazifasini, ya'ni milliy iqtisodiyotni samarali rivojlanishi uchun qulay tashqi sharoit yaratishni ko'zda tutuvchi chora-tadbirlarni amalga oshirishdir.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishda tub iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan mamlakatlarda katta ahamiyat beriladi. Ayniqsa O'zbekistonda iqtisodiyotni barqarorlashtirish va xo'jalik yuritishning yangi modelini shakllantirishda bosh islohotchi sifatida davlat muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatini boshqarish quyidagi tashkilotlar orqali amalga oshiriladi:

- Respublika Prezidenti, Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojlanish strategiyasini aniqlaydi, uning normativ bazasini, ishlab chiqadi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning barcha ishtirokchilari harakatiga umumiy rahbarlikni va ular ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- tashqi iqtisodiy aloqa vazirligi-yagona tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishni, xalqaro aloqalarning barcha ishtirokchilari, ya'ni davlat, shirkat, psychilik, jamoat, xususiy tashkilotlar faoliyatini nazorat qilishni ta'minladi;

- tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning davlat usullarini ishlab

chiqadi va qo'llaydi (bojxona tariflari, eksport kvotalari, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishga ruxsat va boshqalar);

- vazirlikka taqdim etilgan ro'yxatga mos keluvchi mahsulotlar bo'yicha eksport-import operatsiyalarni o'tkazadi;

- tashqi iqtisodiy faoliyat sub'yektlari tomonidan tuziladigan tashqi iqtisodiy shartnoma va kelishuvlarni tekshirishni amalga oshiradi.

Jahon amaliyotida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning bilvosita usullariga qaraganda bevosita usullaridan kengroq foydalaniлади. Bevosita usullar o'zining mazmuniga ko'ra iqtisodiy, ma'muriy, me'yoriy - huquqiy ko'rinishga ega bo'lishi mumkin.

Litsenziyalash va kvotalash iqtisodiy xarakterdagi bevosita usullar ichida keng tarqalgani hisoblanadi.

Litsenziyalash - bu tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirishga davlat tashkilotlaridan ruxsat olishning ma'lum tartibidir. Tashqi iqtisodiy operatsiyalarga mahsulotlar, ishlar va xizmatlar eksporti hamda import, moliya operatsiyalari o'tkazish, xorijda ishchi kuchini ishga joylashtirish va boshqalar kiradi. O'zbekistonda litsenziyalar faqat davlat ro'yxatida qayd etilgan tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga beriladi, boshqa yuridik shaxslarga berish taqiqlangan. Litsenziyalash ma'lum vaqt davomida umum davlat maqsadlariga no'ljallangan mahsulotlar, xizmatlar bilan bitimlar bo'yicha eksportni (importni) chegaralash va nosog'lom raqobatni ogohlantirish chorasi sifatida qo'llaniladi.

Mahsulotlar eksporti va importini litsenziyalash davlatga ular oqimini qattiq tartibga solishga, ba'zi hollarda ularni vaqtincha chegaralashga va shu asosda tashqi iqtisodiy taqchillik o'sishini to'xtatishga hamda savdo balansini tenglashtirishga imkon beradi.

Litsenziyalar - bosh litsenziyalar va bir martalik litsenziyalarga bo'linadi. Bosh litsenziyalar markaziy hukumat tomonidan beriladi va o'zida ma'lum mamlakatlarga strategik bo'limgan, litsenziya hujjatlarini haqiqatda rasmiylashtirishni talab qilmaydigan mahsulotlar eksportiga rasman ruxsat berishni aks ettiradi. Bir martalik litsenziyalar - litsenziya berish huquqiga ega bo'lgan davlat idoralari tomonidan eksport yoki import bo'yicha har bir alohida bitimga ruxsat ko'rinishida beriladi.

Mahsulotlar, ishlar va xizmatlar eksporti va importiga litsenziyalar berish huquqiga O'zbekiston Respublikasining quyidagi boshqaruv tashkilotlari ega Vazirlar Mahkamasi, Moliya, Adliya, Ichki ishlar, Sog'liqni saqlash, Xalq ta'limi vazirliklari, shuningdek Markaziy bank.

Belgilangan chegaralar doirasida amalga oshiriladigan bitimlarga litsenziyalar har bir alohida bitim uchun mol yetkazib berish hajmi yoki

qiymatiga tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tomonidan beriladi.

Moliya operatsiyalarini o'tkazishga litsenziyalar asosan respublika Moliya vazirligi va Markaziy banki tomonidan o'z va xorijiy banklarga, moliya muassasalariga beriladi. Ular milliy moliya-kredit muassasalariga mamlakat ichida va uning tashqarisida chet el valyutasi bilan operatsiyalarни amalga oshirish, xorijiy moliya-kredit muassasalariga esa ichki bozorda yuridik va jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish huquqini beradi.

Umuman, moliya operatsiyalarini litsenziyalash davlatga mamlakat ichida valyuta oqimi harakatini tartibga solish imkonini beradi.

Milliy davlat va shunga o'xshash tuzilmalarga beriladigan ishga joylashtirish litsenziyaları, ularga xorijiy sheriklar bilan kelishgan holda xorija o'z, ishchi kuchini yetkazib berish huquqini beradi.

Litsenziyalash bilan bir qatorda jahon amaliyotida mahsulotlar, shuningdek ishchi kuchi eksport va importini chegaralash maqsadida kvatalash keng qo'llaniladi.

Bu usulning mohiyati shundan iboratki, unda vakolatli davlat yoki xalqaro tashkilot alohida mahsulotlar, xizmatlar, mamlakatlar va mamlakatlar guruhi bo'yicha ma'lum davrga eksport yoki importga miqdori yoki qiymat chegaralarni (kvotalarini) belgiladi. Davlat tomonidan tartibga solish tadbirni sifatida kvatalash to'lov balanslarini, ichki bozorda talab va taklifni balanslashtirish uchun, muzokaralarda o'zaro kelishuvga erishish uchun qo'llaniladi. O'zbekistonda kvatalash xalq iste'mol mollarini va strategik xom ashyoning muhim turlarini olib chiqishni chegaralash usuli sifatida qo'llanilmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlatlararo tartibga solish tadbirni sifatida kvatalash asosan xalqaro barqarorlashtirish bitimlariga muvofiq qo'llaniladi. Bu bitimlar, qandaydir bir mahsulotni ishlab chiqarishda yoki eksport qilishda har bir ishtirokchi mamlakatning xissasini belgilaydi.

Masalan, neft eksport qiluvchi mamlakatlar xalqaro tashkiloti hissasiga jahon neft zahiralarining 77 foizdan ortig'i to'g'ri keladi. Neftning jahon bozoridagi narxini barqarorlashtirish maqsadida bu tashkilot o'z a'zolariga eksport kvotalari miqdorini belgilaydi.

### Nazorat savollari

1. Investitsiya faoliyati sub'yektlari sifatida davlat investitsiyalarining roli va vazifalari.

2. Investitsiya faoliyati sub'yektlari sifatida xususiy investitsiyalarining roli va vazifalari.

3. Investitsiya faoliyatini sub'yektlari sifatida chet el investitsiyalarining roli va vazifalari.
4. Investitsiya resurslari haqida tushuncha.
5. Investitsiya muhiti va unga ta'sir etuvchi omillar.
6. Investitsiya iqlimi haqida tushuncha.
7. Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish yo'nalishlari.
8. Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan rag'batlantirish yo'nalishlari.
9. Jadallashtirilgan ammortizatsiyaning korxona investitsiya faoliyatiga ta'siri.
10. Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan rag'batlantirishda soliq imtiyozlari turlari.
11. Investitsiya faoliyatini tartibga solishda pul-kredit siyosatining roli va vazifalari.
12. Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishda tashqi iqtisodiy faoliyatning roli.
13. Proteksionizm siyosatining mohiyati va ahamiyati.
14. Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishda faoliyatni litsenziyashlashning roli.

### **III-BOB. DAVLAT INVESTITSIYA DASTURINI SHAKLLANTIRISH**

#### **3.1. O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturining mazmuni va maqsadlari**

O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturi (keyingi o'rinnlarda - Dastur deb ataladi) respublikani ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirish prognozlarining tarkibiy qismi hisoblanadi va davlat investitsiya siyosatini ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror va tadrijiy rivojlantirishga va iqtisodiyotga zarur tarkibiy o'zgartirishlarni, tabiiy, mineral - xom ashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlovchi investitsiyalar qo'yish asosida uning jahon iqtisodiy tizimiga keng integratsiyalashuviga erishish Dasturning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Dastur quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- mablag' bilan ta'minlash manbalari bo'yicha kapital qo'yilmalar prognozi;
- ustuvor investitsiya takliflarining yig'ma ro'yxati;
- investitsiya loyihalarining aniq dasturi;

**Dasturning muvozanatlanganligini ta'minlash.**

Dastur:

- tabiiy, mineral - xom ashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan foydalanishning samaradorligini oshirishni;

- davlat byudjeti hamda respublikaning ichki va tashqi qarzları hajmlarini o'zaro bog'lashni;

- mablag' bilan ta'minlashning tasdiqlangan manbalari bilan ob'yeqtlni ishga tushirish va kreditlarni uzishni, shuningdek, qurilish industriyasi va qurilish materiallari sanoati quvvatlarini muvozanatlashni;

- yangi korxonalarni iqtisodiy va ekologik jihatdan asoslangan holda joylashtirishni hamda mintaqalarni kompleks rivojlantirishni, tabiiy boyliklardan, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzilmalaridan, mehnat resurslaridan yanada samaraliroq, foydalanishni hisobga olgan holda ishlab turgan korxonalarda qo'shimcha quvvatlar tashkil etishni ta'minlashga qaratilgan kapital qo'yilmalar prognozini ifoydalaydi.

**Dasturni shakllantirish tartibi va muddatlari.**

Dasturni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishga oid barcha ishlarni Vazirlar Mahkamasining Investitsiya dasturlari departamenti muvofiqlashtiradi.

Dasturni shakllantirish davlat maqsadli dasturlari, iqtisodiyotni ustuvor yo'nalishlarini va alohida mintaqalarni rivojlantirish bo'yicha direktiv qarorlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, vazirliklar va idoralar, uyushmalar, korporatsiyalar, kompaniyalar, mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalar va tashkilotlar, shu jumladan, xorijiy investitsiyalar ishtirokida korxonalarining takliflari asosida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi tomonidan Moliya vazirligi va Markaziy bank bilan birgalikda amalga oshiriladi va oldingi yil dekabr oyining birinchi kunigaidan kechikmay Vazirlar Maxkamasiga kiritiladi.

Dasturni ishlab chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi har yili investitsiya takliflarini tayyorlashga oid metodik ko'rnatmalarni va ularni taqdim etish muddatlarini manfaatdor vazirliklar hamda idoralarga, uyushmalar, korporatsiyalar va kompaniyalarga Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga, korxonalar va tashkilotlarga yetkazadi.

Ishlab chiqilgan Dastur Vazirlar Mahkamasining ish tartibiga muvofiq Vazirlar Mahkamasini tomonidan tasdiqlanadi.

#### Kapital qo'yilmalar proqnozi.

Kapital qo'yilmalar proqnozi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi tomonidan Moliya vazirligi, Markaziy bank, vazirliklar va idoralar bilan birgalikda joriy yil va proqnozlashtirilayotgan yillar uchun ishlab chiqarish va noishlab chiqarish qurilishlari bo'yicha ishlab chiqiladi.

Proqnoz kapital qo'yilmalarning quyidagi manbalarini hisobga olishi kerak:

a) markazlashtirilgan qo'yilmalar, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

-davlat byudjeti va davlat byudjetdan tashqari fondlar mablag'lari;

-tashqi qarzlar limitlaridan kelib chiqib hukumat kafolati ostida beriladigan chet el investitsiyalari va kreditlari;

b) markazlashtirilmagan kapital qo'yilmalar, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi :

-korxonalar mablag'lari, shu jumladan, qo'shma korxonalar, xorijiy korxonalar va xususiy korxonalarining mablag'lari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining norezidentlari mablag'lari;

-davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari mablag'lari;

-banklarning, shu jumladan, xorijiy banklarning tijorat kreditlari;

-aholi mablag'lari.

Markazlashtirilgan kapital qo'yilmalar limitlari quyidagilar hisobiga belgilanadi:

Davlat byudjeti va davlat byudjetdan tashqari fondlar mablag'lari belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetini shakllantirish chog'ida va yig'ma byudjet tarkibida tasdiqlanadi;

Hukumat kafolati ostida jalb qilinadigan xorijiy investitsiyalar va kreditlar alohida ustuvor investitsiya loihalarini amalga oshirish bo'yicha Vazirlar Mahkamasi qarorlariga muvofiq, markazlashtirilgan kapital qo'yilmalar faqat quyidagalarga ajratiladi:

-respublika iqtisodiyotini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha investitsiya loyihamonini, davlat maqsadli dasturini va davlatlararo bitimlarni amalga oshirishga;

-egasining nomi ko'rsatilgan uy-joy obligatsiyalari bo'yicha uy-joy qurilishiga;

-yangi yerlarni o'zlashtirish va sug'oriladigan yerlarni tik lashga, suv xo'jaligi qurilishi va kichik hidroenergetikani rivojlantirishga;

-aholi yashaydigan joylarning, birinchi navbatda, yakka tartibda qurilgan uy-joy mavzelerining muhandislik infratuzilmasini rivojlantirishga;

-ma'orif, sog'lioni saqlash, madaniyat va ijtimoiy infratuzilmanning boshqa tarmoqlari ob'yektlari qurilishiga;

-davlat boshqaruvi organlari, huquqni muhofaza qilish organlari, davlat ilmiy muassasalarining moddiy-tehnika bazasini rivojlantirish va mustahkamlashga;

-umum davlat tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishga va tabiiy ofatlardan himoya qilish inshootlari qurilishiga.

#### **Ustuvor investitsiya takliflarining yig'ma ro'yxati.**

Ustuvor investitsiya takliflarining yig'ma ro'yxati Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, vazirliklar va idoralar, uyushmalar, korporatsiyalar, kompaniyalar, mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, korxonalar va tashkilotlarning takliflaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy vazirligi tomonidan Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi va Xorijiy sarmoya lar bo'yicha agentlik bilan birgagikda tuziladi.

Quyidagilar (ekologiya normalari va talablariga muvofiq kelishib ular uchun majburiy shartdir) investitsiya takliflarini Dasturga kiritish uchun tanlab

olishning asosiy mezoni hisoblanadi:

**a) ishlab chiqarish ob'yeqtari bo'yicha:**

- mahalliy xom - ashyo va mineral resurslarni chuqur qayta ishlash ko'lamini kengaytirish, ularni raqobatbardosh tayyor mahsulot darajasigacha yetkazish;

- eksport salohiyatini rivojlantirishga mo'ljallangan rentabelli, yuqori texnologiyali va resurslarni tejovchi ishlab chiqarishlarni tashkil etish;

- kommunikasiyalar, sug'orish, ishlab chiqarish infratuzilmasining zamonaviy tizimlarini rivojlantirish;

- iste'mol bozorini eng zarur tovarlar va xizmatlar bilan to'ldirish;

**b) noishlab chiqarish ob'yeqtari bo'yicha:**

- aholining ijtimoiy infratuzilma xizmatlariga bo'lgan birinchi navbatdagi ehtiyojlarini qondirish;

- noishlab chiqarish xizmatlari sifatini va ular bilan aholini qamrab olish darajasini oshirish.

**Bunda ishlab chiqarish loihalari bo'yicha Dasturga kiritish uchun:**

-texnologiya jihatidan o'zaro bog'langan yoki tarmoqlararo ahamiatga ega bo'lgan;

-to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ishtirokida amalga oshiriladigan;

-qishloq joylarda va ishchi kuchi ortiqcha bo'lgan mintaqalarda joylashtiriladigan kichik va o'rta biznes;

-respublikaning eksport salohiyatini rivojlantirishni ta'minlaydigan takliflar ustuvor huquqqa ega bo'ladi.

Yig'ma ro'yxat mamlakatimiz investorlarini va xorijiy investorlarni jalb qilish uchun aniq ustuvor yo'nalishlarning qisqacha bayoni hisoblanadi, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi va tegishli kanallar, xalqaro axborotnomalar, moliya instituti, internet tarmog'i orqali potentsial investorlarga yetkaziladi.

**Yig'ma ro'yxatda kiritilgan investitsiya takliflari:**

-keyinchalik Investitsiya loyihalarining aniq dasturiga kiritish uchun ular investitsiya loyihasi jarayoniga kelgunga qadar shakllantirishning barcha bosqichlarida ular ustidan doimiy monitoring amalga oshirilishi va injeniring jihatidan kompleks kuzatib borilishi kerak;

-hukumat kafolati ostidagi xorijiy kredit liniyalaridan foydalanishning ustuvor huquqiga ega bo'ladi.

## **Dasturni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash.**

Investitsiya loyihalarining aniq dasturi (keyingi o'rinnlarda - aniq dastur deb ataladi) har yili ishlab chiqiladi va mablag' bilan ta'minlashning asosiy manbalari bo'yicha buyurtmachilar va xorijiy sheriklar ko'rsatilgan holda ustuvor investitsiya loyihalari, eng avvalo, kelgusi yilga o'tuvchi investitsiya loyihalari ro'yxatini, joriy yil uchun kapital qo'yilmalarni o'zlashtirish prognozini ifoydalaydi.

Investitsiya loyihalarining aniq dasturi, dastur tarkibida tasdiqlanadi va unga yil davomida qo'shimcha investitsiya loyihalari kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi, xorijiy investitsiyalar ishtiropidagi loyihalar bundan mustasno.

Aniq dasturga kiritish uchun quyidagilar majburiy bo'lib hisoblanadi:

- belgilangan tartibda tasdiqlangan texnik- iqtisodiy asoslanishning mavjudligi;

- mablag' bilan ta'minlash manbalarining va kreditlar shartnomada belgilangan muddatlarda uzilishining isbotlanganligi.

Tasdiqlangan aniq dasturga muvofiq buyurtmachilar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi bilan kelishilgan holda Qurilishlarning aniq ro'yxati tasdiqdanadi.

Investitsiya dasturiga kiritilgan investitsiya loyihalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari mablag' bilan ta'minlashda ko'maklashish, soliq, imtiyozlari va boshqa imtiyozlar berish, davlat monitoringini tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Mablag' bilan ta'minlashda ko'maklashish ustuvor investitsiya loyihalarini amalga oshirish, shu jumladan, xorijiy kreditlar bo'yicha majburiy avans to'lovlari va boshqa to'lovlarni to'lash uchun qaytarish yoki qaytarmaslik asosida byudjet mablag'lari ajratish, shuningdek, xorijiy kreditlar uchun hukumat kafolatlari berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Amalga oshirilishi uchun markazlashtirilgan kapital qo'yilmalar hisobiga davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zarur bo'lgan ustuvor investitsiya loyihalari Vazirlar Mahkamasining Investitsiya dasturlari departamentining O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, boshqa vazirliklar va idoralar bilan birgalikda tayyorlagan takliflari asosida O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan belgilanadi.

## **Dasturning amalga oshirilishini nazorat qilish.**

Davlat monitoringi dasturga kiritilgan investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi ustidan davlat nazoratining asosiy mexanizmi hisoblanadi.

Quyidagilar Dasturga kiritilgan investitsiya loyihalari ustidan Davlat monitoringini amalga oshirishning asosiy vazifalari hisoblanadi:

-investitsiya loyihamining va birinchi navbatda, markazlashtirilgan investitsiyalar hisobiga ro'yobga chiqarilayotgan investitsiya loyihamarning o'z vaqtida va samarali amalga oshirilishi, shu jumladan, loyihamarning belgilangan tartibda tasdiqlangan texnik-iqtisodiy asoslashlarining asosiy ko'rsatkichlariga rioya qilinishiga oid qismi ustidan nazoratni ta'minlash;

-davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari, investitsiya jarayoni boshqa qatnashchilarining faoliyatini muvofiqlashtirish, Dasturda nazarda tutilgan investitsiya loyihamini amalga oshirish bilan bog'lik masalalarning o'z vaqtida hal qilinishi uchun ularning javobgarligini oshirish;

-investitsiya loyihamini tasdiqlangan hajmlar va muddatlarga qat'iy muvofiq mablag' bilan uzlusiz ta'minlash;

-xorijiy hamkorlar oldida qabul qilingan majburiatlarning so'zsiz bajarilishini ta'minlash;

-loyihalarni amalga oshirishda paydo bo'ladigan muammoli masalalarni kuzatib borish va ularning tezkorlik bilan bartaraf etilishini ta'minlash;

-investitsiya iqlimini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.

Davlat monitoringi investitsiya loyihami Dasturga kiritilish manfaatdor vazirliklar va idoralar, uyushmalar, korporatsiyalar, kompaniyalar, tomonidan taqdim etiladigan axborotlar asosida Vazirlar Mahkamasining Investitsiya dasturlari departamenti tomonidan tashkil etiladi.

Axborot taqdim etish, shuningdek, Davlat monitoringini amalga oshirish tartibi va muddatlarini Vazirlar Mahkamasini tomonidan belgilanadi.

Investitsiya dasturiga kiritilgan investitsiya loyihamini amalga oshirish uchun javobgarlik loyihamarning buyurtmachilari zimmasiga yuklanadi.

### **3.2. Investitsiya dasturi asosida investitsiyalar va investitsiya faoliyatini tashkil etish**

Markazlashtirilgan investitsiyalarni joylashtirish, qoida tariqasida, davlat shartnomasi asosida amalga oshiriladi.

Davlat shartnomasi investitsiya faoliyati ishtirokchisini – bajaruvchini tanlov (tender) asosida saralab olish orqali tuziladi. Bunday mazkur bajaruvchi uchun qonun xujjalarda muayyan imtiyozlar belgilab qo'yilishi mumkin.

Ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihami O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tasdiqlaydigan O'zbekiston Respublikasining **Investitsiya dasturiga kiritiladi**.

O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturiga kiritilgan investitsiya loyihamini amalga oshirish ishtirokchilariga soliqqa oid va boshqa imtiyozlar

beriladi. Har bir alohida investitsiya loyihasi bo'yicha yoki umuman O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturi bo'yicha beriladigan imtiyozlarning aniq ro'yxati qonun xujjalari belgilangan tartibda aniqlanadi.

Byudjet mablag'lari va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga, shuningdek chet el investitsiyalarini O'zbekiston Respublikasining hukumati kafolati ostida jalg etilgan holda moliyalanadigan investitsiya loyihalari ekspertizadan o'tkazilishi shart. Ekspertizani o'tkazish tartibini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydi. Boshqa manbalar hisobiga moliyalanadigan investitsiya loyihalari sanitariya-gigiyena, radiatsiya, ekologiya, arxitektura-shaharsozlikka oid va boshqa talablar bajarilishiga doir qismida, qonun xujjalari belgilangan tartibda davlat ekspertizasidan o'tkazilishi lozim.

Investitsiya loyihasini markazlashtirilgan manbalar hisobiga mablag' bilan ta'minlash har qaysi ob'yeqt bo'yicha ajratilgan kapital qo'yilmalar limitlari doirasiga qat'iy amal qilgan holda, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot Vazirligi va Moliya Vazirligi bilan kelishilgan qurilishlarning aniq mo'ljalli ro'yxati va qurilishlarning belgilangan tartibda tasdiqlangan titul ro'yxati asosida amalga oshiriladi.

Banklarning kredit resurslari hisobidan moliyalanadigan kichik biznes va xususiy tadbirdorlik investitsiya loyihalari tijorat banki tomonidan mazkur investitsiya loyihasini amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida ekspertiza qilinishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doirasida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari shu shartnomalarda nazarda tutilgan tartibda ekspertiza qilinishi lozim.

Investitsiya faoliyatini cheklab qo'yish, to'xtatib turish yoki tugatish investorning, davlatning vakolatli organi yoki sudning qaroriga ko'ra amalga oshirilishi mumkin.

Davlatning vakolatli organi investitsiya faoliyatini cheklab qo'yish, to'xtatib turish yoki tugatish to'g'risidagi qarorni:

- investor qonunda belgilangan tartibda bankrot deb e'lon qilingan yoki topilganda;

- favqulodda vaziatlar yuzaga kelganda;

- investitsiya faoliyati jarayonida qonun xujjalari belgilangan sanitariya-gigiyena, radiatsiya, ekologiya, arxitektura - shaharsozlikka oid va boshqa talablar, yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlar aniqlangan hollarda qabul qilinishi mumkin.

**Respublikamizda investitsiya dasturini shakllantirish sxemasi**

Bosqichlar	Tadbirlar	Muddatlar	Mas'ullar
1- bosqich	Iqtisodiyot vazirligi uch yillik davrga O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga kiritish uchun takliflarni tayyorlashga oid metodik ko'sratmalarни tarmoq vazirliklari va idorsulari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga (keyingi o'rinnarda buyurtmachilar deb ataladi) har yili yetkazadi	aprel	Iqtisodiyot vazirligi
2- bosqich	Buyurtmachilar loyihalar bo'yicha dastlabki axborotni tayyorlaydi, ularni uch yillik davrda amalga oshirish uchun tanlab oladilar va takliflarni Iqtisodiyot vazirligiga taqdim etadir	may-iyun	Buyurtmachilar
3- bosqich	Iqtisodiyot vazirligi takliflarni ko'rib chiqadi va o'rtacha muddatli davrda aniq tarmoqni rivojlantrish ustuvorliklariga muvofiq loyihalarni tanlab oladi	iyun-iyul	Iqtisodiyot vazirligining tarmoq bo'limlari
4- bosqich	Iqtisodiyot vazirligi Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi, "Davarxitektqurilish" qo'mitasi va vakolatlari banklar bilan birlgilidagi Investitsiya dasturiga kiritiladigan loyihalarni uzil-kesil tanlab oladi	avgust-sentabr	Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi, "Davarxitektqurilish" qo'mitasi, vakolatlari banklar
5- bosqich	Investitsiya dasturining loyihasi Iqtisodiyot vazirligi xuzuridagi Birlashgan xay'at tomonidan ko'rib chiqiladi va uning qaroriga ko'ra ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasining komplekslari bilan kelishish uchun Tashqi iqtisodiy aloqalar va xorijiy investitsiyalar departamentiaga taqdim etiladi	sentabr	Iqtisodiyot vazirligi xuzuridagi Birlashgan xay'at, Vazirlar Mahkamasining komplekslari
6- bosqich	Investitsiya dasturining loyihasiga Vazirlar Mahkamasining komplekslarining takliflari hisobga olinigan holda tuzatish kiritiladi	sentabr-oktabr	Iqtisodiyot vazirligi
7- bosqich	Investitsiya dasturining loyihasini tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritiladi	oktabr	Vazirlar Mahkamasining Tashqi iqtisodiy aloqalar va xorijiy investitsiyalar departamenti
8- bosqich	Investitsiya dasturini amalga oshirishning birinchi yiliga kiritiladigan yangidan boshlanadigan ob'yektlar bo'yicha tanlov savdolari o'tkaziladi	oktabr-noyabr	"Davarxitektqurilish" qo'mitasi, buyurtmachilar
9- bosqich	Tasdiqlangan Investitsiya dasturiga va o'tkazilgan tanlov savdolariga muvofiq belgilangan tartibda shartnomalar tuziladi, qurilishlarning aniq va titul ro'yxatlari, kelgusi yillar loyihalash ishlarning aniq ro'yxatlari tasdiqlanadi	dekabr	Buyurtmachilar, pudratchilar

### **Nazorat savollari**

1. O'zbekiston Respublikasi investitsiya Dasturini shakllantirishning maqsadi va vazifalari.
2. Dasturning muvozanatlanguqligini ta'minlash.
3. Dasturni shakllantirish tartibi va muddatlari.
4. Kapital qo'yilmalar proqnozi.
5. Ustuvor investitsiya takliflarining yig'ma ro'yxatini shakllantirish tartibi.
6. Investitsiya loyihibalarining aniq dasturini tuzish.
7. Dasturni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash.
8. Dasturni amalga oshirilishini nazorat qilish.

## **IV-BOB. INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA MUHITINING O'RNI**

### **4.1. Investitsiya faoliyatini rivojlantirishda investitsiya muhitining o'rni**

Har bir mamlakatdagi investitsiya muhiti, birinchi navbatda, uning siyosiy barqarorlidigidir. Xuddi ana shu omil chet elliq investorlarning boshqa mamlakatga uzoq muddatli shartnomalar asosida resurslarni kiritish imkoniyatini beradi. Bunday muhit uzoq muddatli investitsiya rejalarini amalgalash oshirish imkoniyatini yaratadi. O'zbekistondagi investitsiya muhitining asosiy xususiyati uning Markaziy Osiyoda eng barqaror mamlakat ekanligidadir.

Bizga ma'lumki, har qanday davlatga investitsiyalarning kirib kelishi va rivojlanishi ularga ta'sir etuvchi omillarga bevosita bog'liq bo'ladi. Ta'sir etuvchi omillarning asosiy lari quyidagilar:

- siyosiy va iqtisodiy barqarorlik;
- bozor hajmi va uning kengayish istiqbollari;
- mahsulot qiymati;
- ishchi kuchi;
- mamlakatdagi qonunchilik;

Xorijiy investitsiyalarni, ayniqsa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni respublika iqtisodiyotiga jalb etish uchun mavjud shart-sharoitlarning yaratilishi zarurdir, ya'ni ularga nisbatan qulay investitsiya muhiti barpo etilishi kerak. "Investitsion muhit" juda keng tushuncha bo'lib, u investoring u yoki bu davlat iqtisodiyotiga mablag' qo'yishi uchun shart-sharoitning qulayligini, ya'ni huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omilllar mazmunini o'z ichiga oladi.

Investitsiya muhitiga ayrim qonunlarning yoki me'yoriy xujjalarning to'laqonli bo'lmasligi salbiy ta'sir etadi. Bunday kamchiliklarning bo'llishi investoring o'z istiqbolini belgilash, qo'yilmaning foydalilik darajasini aniqlash borasidagi qobiliyatini kamaytiradi. Agar investor investitsiya muhitidan qoniqmasa, uning asosiy maqsadi xavf ostida qoladi, ya'ni investitsiyalash natijasida olinishi ko'zda tutilgan daromadning risk darajasi yuqori bo'ladi. Albatta, bunday sharoitda, u investitsiyalashni istamaydi.

O'zbekistonda qulay investitsiya muhitining yaratilishi pirovardida: iqtisodiyotga milliy va xorijiy investitsiyalar oqimining faollashuviga zamin yaratadi va uning samarali o'zlashtirish natijasi ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi; import o'rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor

sohalariga yo'naltirish va pirovardida aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlash imkonini yaratadi; kichik biznesni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadalashtirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlaydi; korxonalarning eskirgan ishlab chikarish quvvatlarini, moddiy- texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi; tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalarни barpo etishga ko'maklashadi va h.k.

Mamlakatimizdagi investitsion muhitga ta'sir etuvchi omillar uch guruhga bo'linib, ular siyosiy omil; iqtisodiy omil va ijtimoiy omillarni tashkil etadi.

Birinchi omilga davlatning xorijiy investitsiyalarga bo'lган siosiy munosabati, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi darajasi, davlat apparati boshqarmasining ishlash samarasi, davlatning siosiy barqarorligi va boshqalarni kiritish mumkin.

Ikkinci omil iqtisodiyotning umumiy holati (o'sish yoki krizisi), inflatsiya darajasi, valyuta kursining barqarorligi, soliq va bojxona imtiyozlari, ishchi kuchlarining qiymati va mehnat resurslarini ishlatalish tartibi, aniq tovar va xizmat turlariga bo'lган talab va taklifning mavjudligi, kredit bahosi va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Uchinchi omilda esa jamiyat a'zolarining xorijiy kapital va xususiy mulkchilikni shakllanishiga munosabati, jamiyatning ideologik bilimlari darajasi, ishchi kuchlarining tashkilotchilik qobiliyati va boshqalar e'tiborga olinadi.

Investitsiyalarning iqtisodiyotga kirib kelishi va ularning intensivligi bir qancha omillarga bog'liq bo'lib, bu omillar bir so'z bilan investision muhit deb ataladi.

Investision muhit bir necha omillardan iborat. Ularning asosilari quyidaglardir:

- investitsiya siyosati;
- investitsiya iqlimi;
- investitsiya faoliyati.

**Investitsiya siyosati** - investorlarning haq - huquqlari, imtiyozlarini ta'minlash bilan bir qatorda iqtisodiyot tarmoqlariga tegishli asosiy fondlarni kengaytirilgan qayta ishlab chiqarishga yo'naltirish, soliqa tortish mexanizmi va moliya-kredit siyosatini ta'minsh bilan bilan bog'liq bo'lган tadbirlar yig'indisidan tarkib topadi.

**Investitsiya iqlimi** - juda keng ma'noli tushuncha bo'lib, bunda, investorlar tomonidan o'z mablag'lari qay yo'sinda sarflanishi turli usullar orqali baholanadi, misol uchun, mamlakatda kapital qo'yilmalarni joylashtirish uchun yaratilgan shart-sharoitlar qanchalik darajada ekanligiga baho beriladi, shuningdek, mamlakatning ichki siyosati, iqtisodiyoti, madaniyati va xatto

mafkarasi ham hisobga olinadi.

Investitsiya iqlimi tushunchasi mikro va makroiqtisodiy doiralarda ko'tib chiqiladi va ular o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Makro doiradagi bu tushuncha mamlakatdagi siyosiy, iqtisody, ijtimoiy vaziyat singari omillarni o'z ichiga oladi. Jumladan, davlatning investorlar xususidagi siyosati, xalqaro bitimlarga rivoja qilish an'analarini, xerijiy investitsiyalarni mahalliylashtirishga moyillik, moliyaviy institutlarning mustahkamligi, iqtisodiyotda davlat aralashuvining darajasi va boshqalar singari ko'rsatkichlar hal qiluvchi rolni o'yaydi.

Mikro iqtisodiy investitsiya iqlimida esa investoring aniq sub'yektlar, ya'ni davlat organlari, xo'jalik sub'yektlari, mol yetkazib beruvchilar, mehnat jamoalari, moliya kredit tizimlari bilan bo'ladigan munosabatlari namoyon bo'ladi

**Investision faoliyat** - investitsiyalashning eng asosiy markaziy bo'g'ini hisoblanadi, chunki aynan shu jarayonda investitsiya bir ko'rinishdan ikkinchi ko'rinishga o'tadi, ya'ni jamg'armalar (resurslar), qo'yilmalar (harajatlar), kapital mulk (tayyor mahsulot), iqtisodiy samara (daromad, foyda) shaklini oladi.

Qonun iqtisodiy va siyosiy barqarorlik, soliq tizimining to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi, tadbirdorlik faoliyatini amalga oshiradigan sub'yektlar orasidagi munosabatlarni tartibga solib turuvchi qonuni mexanizmlarning yo'qligi, investitsiya darajasi, milliy valyutaning kursi, chet el investitsiyalarining sug'urta qilish bilan bog'liq himoya mexanizmlarining poyoniga yetkazilmaganligi, investision loyihalari to'g'risida aniq ma'lumotlar yo'qligi, qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanmaganligi va shu kabilar investision muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridaqilardan xulosa qiladigan bo'lsak, investitsiya muhiti sarmoyani muayyan ob'yektga yoki mamlakatga joylashtirishning barcha afzalliklarini belgilaydigan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, va boshqa sharoitlar majmujdir.

#### **4.2. Investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari**

Investitsiya loyihalarini ishlab chiqishda loyiha siklining bosqichlari muhim ahamiatga ega. «Loyiha sikli» tushunchasiga loyihami ishlab chiqish va uni amalga oshirishning turli bosqichlari kiradi. Loyiha siklining boshlang'ich va tugallanish davrlari, g'oyadan to uning moddiy qiymatga ega bo'lganga qadar davrlarni o'z ichiga oladi.

Har qanday investitsiya loyihasini ishlab chiqishda, ya'ni investitsiya g'oyalarining paydo bo'lishidan, to uni amalga oshirish uch xil fazani o'z ichiga

oladi: Investitsiya oldi, investitsiya va ekspluatatsiya (yoki ishlab chiqarish).

Investitsiya loyihasini ishlab chiqishning asosiy bosqichi bo'lib, investitsiya oldi fazasi hisoblanadi.

Ushbu fazada loyiha ishlab chiqiladi, uning imkoniyatlari o'rganiladi, dastlabki texnik – iqtisodiy tadqiqot – kuzatishlar o'tkaziladi, potentision investor va loyihaning boshqa ishtirokchilari bilan muzokalaralar olib boriladi, xom ashyo va uskunalarini yetkazib beruvchilar tanlanadi. Agar investitsion loyihaga kredit jalb qilish ko'zda tutilgan bo'lsa, unda bu fazada kreditni olish bo'yicha bitimlar tuziladi; investitsion loyihani yuridik jihatdan rasmyylashtiriladi; hujjatlarni tayyorlash, shartnomalarni rasmyylashtirish va korxonani ro'yxatga olish amalga oshiriladi.

Loyihaning investitsiya oldi fazasida bo'lg'usi loyihalashtirish ob'yeqtining imkoniyatlari o'rganiladi. Loyihaning bu hayotiy bosqich siklida, uning hayotga mos qobiligi va jalb etuvchanligiga asos yaratiladi. Investitsiya oldi fazasi loyihaning to'liq xarakteristikasini berishi shart.

Ba'zi hollarda investitsiya loyihasining bu hayotiy sikl bosqichining davomiyligini aniqlash juda qiyin kechadi.

Jahon amaliyotida investitsiya oldi fazasi quyidagi bosqichlari mavjud:

1) Investitsiya g'oyalaring shakllanishi, ya'ni g'oyani tanlash va dastlabki asoslash yoki dastlabki investitsion kontsentsiyani shakllantirish (opportunity studies);

2) Investitsiya imkoniyatlarini izlash, ya'ni ishlab chiqariladigan mahsulotga talabni o'rganish, loyihaning qiymati va uning samarasini aniqlash (pre - feasibility studies);

3) Loyihaning texnik – iqtisodiy asoslanishi yoki uning texnik - iqtisodiy va moliyaviy maqbulligini baholash (feasibility studies);

4) Baholovchi xulosani tayyorlash va investitsiyalash uchun qaror qabul qilish (final evaluation).

5) Investitsiya g'oyalaring shakllanishi bosqichida, bu g'oyani tanlash, uni dastlabki asoslash, loyihada ko'rsatilayotgan ishlab chiqarishni tashkil etish, texnik, innovatsion va ekologik nuqtayi nazardan bir qarorga kelish, loyihani amalga oshirish davomida qo'yiladigan boshqa talablarga javob berish, investitsiya g'oyasining ustunligini tarmoq, hududi va davlat idoralari bilan dastlabki kelishuv, loyihani amalga oshira oladigan korxonani dastlabki tanlash va ma'lumotlar memorandumini tayyorlash ishlari ko'rib chiqiladi.

#### 4.1- jadval

Investitsiya oldi fazasi		
1	2	3
Loyihani amalga oshirish imkoniyatlarining tahlili	Loyihani asoslashning tayyorgarlik bosqichi	Loyihani baholash va investitsiya qilish to'g'risida qaror qabul qilish
Investitsiyalash uchun kerak bo'ladijan mablag'lar hajmi va salohiyatlari (potentsial) investorlar	Loyihani mavjud muqobillar bilan solishtirgandagi dastlabki asoslash	Yakuniy qaror sifatida loyihani ijtimoiy-iqtisodiy baholash
Loyihani amalga oshirishning ichki va tashqi shart-sharoitlarini baholash	Qo'shimcha (funktional) izlanishlar	Investitsiyalashning salohiyatli manbalarini aniqlash
Loyihani amalga oshirish imkoniyatlarini makro va mikroiqtisodiy darajada tahlil qilish	Loyihani texnik iqtisodiy asoslash (TIA).	Investitsiyalash tadbirlarini ishlab chiqish

Investitsiya imkoniyatlarini izlash bosqichi, eksport va importni hisobga olgan holda mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talabni dastlabki o'rGANISH, mahsulot va xizmatlar bazaviy, joriy va prognozlashtirilayotgan narxlar darajasini baholash, loyihani amalga oshirish bo'yicha huquqiy – tashkiliy takliflar va loyiha ishtirokchilari tarkibi, tahmin qilinayotgan investitsiya hajmlarini baholash, loyihaning texnik – iqtisodiy asoslarini bo'limlari bo'yicha dastlabki baholashni tayyorlash, shu jumladan, loyihaning samaradorligini baholash, potentsial investorlar uchun investitsion takliflar tayyorlashni o'z ichiga oladi.

Mablag'larni loyiha investitsiyalashdan oldin bajariladigan muhim ishlardan biri bu loyiha bo'yicha investitsiya imkoniyatlarini aniqlashdir. Salohiyatli investorlar, ular qanday bo'lismidan qat'iy nazar rivojlangan yoki rivojlanayotgan davlatlarda yuzaga kelayotgan investitsiya imkoniyatlari to'g'risida ma'lumot olishga qiziqishadi. Bunday investitsiya loyihalari bo'yicha ma'lumotlarni o'rGANISH va tahlil etish ikki xil yo'nalishda amalga oshiriladi:

1. Iqtisodiyot sektori darajasi bo'yicha yondashish (makro).
2. Korxona darajasi bo'yicha yondashish (mikro).

Iqtisodiyot sektori darajasi bo'yicha izlanishlarni olib borish o'sha davlatning butun investitsiya salohiyatini (potentsialini) hamda bu davlatga boshqa davlatlar tomonidan investitsiya qilinishi mumkin bo'lgan mablag'lar hajmini o'rGANISH va tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Korxona miqyosidagi tahlil aniq investitsiya loyihasi bo'yicha qo'yilayotgan

talablardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Loyiha bo'yicha investitsiya imkoniyatlari o'rganish va tahlil qilishda quyidagi omillarga alohida e'tibor beriladi:

- umumiy investitsiya muhiti, shart-sharoitlar;
- qayta ishlaniши mumkin bo'lgan tabiiy boyliklar va xom ashyo resurslari;
- ishlab chiqarilishi mo'ljallanayotgan tovarga (xizmatga) kelgusidagi talab (aholi sonining va aholi xarid qobiliyatining o'sishi hisobiga hamda boshqa omillar);
- loyihaning atrof-muhitga ta'siri;
- boshqa tarmoqlar bilan kelgusidagi o'zaro aloqasi va imkoniyatlari;
- diversifikatsiyalash imkoniyati. Masalan, neft-kimyo majmuasidan formatsevtik ishlab chiqarishga o'tish;
- ishlab chiqarish resurslarining mavjudligi va ularning qiymati;
- eksport imkoniyatlari;
- import o'rnini bosadigan mahsulotlarni ishlab chiqarish;
- qurilish materiallarini ishlab chiqarish.

Investitsiya imkoniyatlari bo'yicha izlanishlar yuqorida keltirilgan omillar bo'yicha har birining alohida tahliliga emas, balki umumiy baholashga asoslanadi.

Loyiha g'oyasini rivojlantirish uchun aniq takliflar kiritishda talab etiladigan ma'lumotlarni miqdori baholash uchun investitsiya imkoniyatlarini tadqiq etish asosiy vosita hisoblanadi. Bunda quyidagi jihatlar tahlil etiladi:

- qayta ishlovchi sanoat uchun kerakli bo'lgan tabiiy resurslar;
- qishloq xo'jaligiga asoslangan sanoat tarmog'i uchun asos bo'lgan amaldagi qishloq xo'jaligi tarkibi;
- muayyan iste'mol talablariga kelgusi talab, aholi o'sishi hisobiga ortib boruvchi talab;
- atrof-muhitga ta'sir ko'rsatish;
- qayta ishlovchi sanoat sektori;
- mahalliy yoki transmilliy va boshqa tarmoqlar bilan mumkin bo'lgan aloqalar;
- umumiy investitsiya muhiti;
- ishlab chiqarish siyosati;
- ishlab chiqarish omillarining mavjudligi va qiymati;
- eksport salohiyati;
- soliq siyosati va boshqalar.

Umumiy imkoniyatlarni tadqiq etishni quyidagi uchta kategoriya ajratish mumkin:

1. Hududdagi imkoniyatlarni aniqlash uchun belgilangan izlanishlar.
2. Sanoat sohasidagi, masalan, qurilish materiallari yoki oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi imkoniyatlarni - aniqlash uchun belgilangan izlanishlar.
3. Tabiiy resurslar, qishloq va sanoat mahsulotlaridan foydalanishga (nest, kimyo, metalluriya, yog'ochni qayta ishlash) asoslangan imkoniyatlarni aniqlash uchun belgilangan izlanishlar.

Loyihaning asoslanishi yoki uni texnik – iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlarini baholash bosqichida keng ko'lamma marketing izlanishlari o'tkaziladi. Bozor segmenti qandayligi o'r ganiladi, mahsulotni ishlab chiqarish dasturi tayyorlanadi, texnik qarorlar shu jumladan, bosh reja ishlab chiqiladi, injenerlik ta'minoti, arxitekturaviy rejalashtirish va qurilish ishlari, fuqarolik mudofasi va atrof muhitni qo'riqlash bo'yicha chora tadbirlar o'tkazish, qurilishni tashkil etish tavsifi, korxonani kimlar boshqarishi va ushbu sohada ularning boshqaruv tajribasi qay darajada ekanligi, korxona ishchitari soni va tarkibi, ular mehnatini tashkil etish.

Loyiha bo'yicha smeta – moliya hujjatlarini tayyorlash, loyihani amalga oshirish bilan bog'liq risklarni baholash, loyihani amalga oshirish muddatlarini rejasiga, loyihaning moliyaviy samaradorligini baholash, loyihaning iqtisodiy samaradorligini baholash, ko'zda tutilayotgan investitsiyalarning qanday ko'rinishda va maqsadlarda ishlatalishi masalalari ko'rib chiqiladi.

Baholovchi xulosani tayyorlash va investitsiyalash uchun qaror qabul qilish bosqichida, texnik – iqtisodiy asoslashni ishlab chiqish tugallangandan so'ng, investitsion loyiha ishtirokchilari taxmin qilinayotgan investitsiya bo'yicha aniq maqsadlar, ehtimolli risklar, harajatlar va foydalarni hisobga olgan holda o'z baholarini beradilar. Qanchalik loyihaning texnik – iqtisodiy asoslanishi sifatlari bo'lsa, uni baholash shunchalik oson bo'ladi.

Investitsiya oldi fazasi harajatlarini umumiy kapital harajatlarning 0,7% dan – 5% gacha ulushini tashkil etadi.

Baholovchi xulosa ishlab chiqarish oldi harajatlarining qanchalik o'rinni yoki to'g'ri ekanligini ko'rsatib beradi.

Loyiha bo'yicha xulosa milliy yoki xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan bajariladi.

Investitsiya va ishlab chiqarish harajatlarini baholovchi xulosa, loyiha o'lchami bo'yicha barcha muhim jihatlarni, ya'ni moliyaviy va iqtisodiy foydaliligini hisoblash va ular bilan bog'liq harajatlarni hisobga olgan holda to'g'ri aniqlangandagina maqsadga muvofiq bo'ladi.

Baholovchi xulosa faqatgina aniq loyiha bilan cheklanib qolmasdan,

shuning uzi bilan bog'liq tarmoq sohasi va tegishli iqtisodiyot bilan ham qiziqqan holda olib boriladi.

Baholovchi xulosa tuzishda keng qamrovli loyihalar uchun to'plangan ma'lumotlar va loyihaning barcha omillari tahlilini qayta-qayta jiddiy tekshirib chiqish talab etiladi.

Investitsiya oldi fazasi natijasi bo'lib, investitsiya loyihasining kengaytirilgan biznes-rejasi hisoblanadi.

Rejalashtirish har qanday tadbirkorlik tizimida hajmidan qat'iy nazar uning ajralmas qismidir. Ilg'or texnologiya va bozor tadqiqotlarining natijalari, yangi ish tashkiliy va tadbirkorlik rejalarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan tashkiliy – boshqaruv va moliya muammolarini hal qilish biznes rejada aks etishi kerak.

*Biznes – reja* – bu hujjat, unda aniq vaziyatda biznesning mohiyati, boshlanish imkoniyati, davomiy va uning kengaytirilishi aks etadi. Bundan tashqari, biznes – reja tadbirkor tomonidan ishlab chiqiladi, agarda boshqa muammolar bo'yicha maslahatlar kerak bo'lsa, bu ishga boshqa soha mutaxassislari jalb qilinishi mumkin.

Odatda bunday rejalar 1-3-5 yil muddatga tuziladi. Tadbirkor tomonidan birinchi yildagi olinadigan samara olar bo'yicha batafsil, keyingi yili – choraklar bo'yicha, keyinchalik yil bo'yicha hisoblanadi.

Biznes-reja aktsiyadorlar tasdig'idan o'tgan taqdirda (hissadorlik jamiyatni bo'lsa), birinchi yilga alohida ish vazifalarini ishlab chiqishga asos bo'ladi. G'arbdagi ko'pchilik firmalar o'z faoliyatini juda aniq rejalashtiradi va biznes-rejani ishlab chiqishda mahsus talablarga asoslanadi. Odatda uning hajmi 40 betdan oshmaydi. Yuqori darajadagi raqobatli sohalarda, ko'zda tutilmagan holatlar bo'lishi mumkin bo'lganda to'liq rejaning muqobili sifatida qisqa varianti qabul qilinadi. Ayrim hollarda biznes-reja o'zlarini foydalanish uchun kichikroq va kattaroq hajmda «tashqi» varianti (bank, sarmoyadorlar, ta'minlovchilar va iste'molchilar uchun) tuziladi. Bunday hajmdagi rejallarga aniq misollar, hisoblar, ko'rgazmalar ilova qilinadi.

Biznes-reja bir necha muhim vazifalarni bajaradi. Biznes – rejani tayyorlash jarayoni fikrashni jonlantiradi, tadbirkorni puxtalik bilan ishlashga va o'z ishini turli nuqtai nazardan tahlil qilishga, haqiqiy imkoniyat va qiyinchiliklarni baholashga majbur qiladi.

Ikkinci vazifa *nazorat*. Qog'ozda bayon qilingan reja kelgusi nazoratlarda va erishilgan natijalarni baholashda har doim ishlatalishi mumkin. U korxona faoliyatini kelgusida yaxshilashga asos bo'lib xizmat qiladi.

Uchinchi asosiy vazifa – *jamg'arish*. U boshqa jismoniy va yuridik

shaxslardan pul mablag'larni jaib qilishga imkoniyat yaratadi. Biznes – reja potentsial qarz beruvchini, aksioner, sarmoyadorni hamda iste'molchini, ta'minlovchilarni ushbu korxona bilan (ishbilarmon bilan) tijorat aloqalarida foyda olishga ishontirishi kerak.

Jahon tajribasida biznes-rejani tuzish bosqichlari va uning tashkiliy qismlari aniq belgilanadi.

Asosiy yo'nalishni saqlagan holda, boshqa bo'limlarga axborotni ko'chirishni yoki ularni birlashtirish hisobiga bo'limlar soni kam bo'lishi mumkin.

Masalan: kichik biznes rejalarida «Bozor tahlili» va «marketing tahlili», shuningdek, «Mahsulot» va «Texnologiya» bo'limlarini birlashtirish mumkin. Kichik biznes-rejasida raqam amalleri ustunlik qilishi mumkin, kengatirilgan biznes-rejada esa olingan va olinadigan ko'satkichlar tahlilida og'zaki yondashishga ko'proq e'tibor qaratiladi.

Korxonani rahbari yoki menedjeri biznes-rejani ishlab chiqarishning aniq sxemasi, uning tartibi va bayoni, hajmi, axborot ustunligini tanlashda quyidagi omillarga alohida etibor berishi kerak bo'ladi:

- korxona statusi va katta - kichikligi (kichik biznes);
  - rejalashtirish faoliyatining bosqichlari (biznes boshlanishi, ya'ni, yangi ishlab turgan korxona faoliyatining davomi);
  - rejaning maqsadli yo'nalishi (asosan ichki ishlarga yoki qarz va sarmoya olishga);
  - biznes xususiyati va qiyinchiligi, xuddi shunday u yoki bu masalalarni ishlab chiqishdagi iboras;
  - kerakli ma'lumot va axborotni borligi;
  - boshqa mutaxassislarning yordamiga muhtojligi va boshqalar;
- Investitsion loyiha hayoti siklining keyingi bosqichi, *investitsion faza* hisoblanadi.

Unda investitsiya loyihasini moliyalashtirish yoki loyihani amalga oshirish ro'yobga chiqadi.

Bu fazada aniq harakatlар belgilab olinadi:

Chunonchi investitsiya loyihasini smeta hujjatlari tayyorlanadi; uskunalarga buyurtmalar beriladi; ishlab chiqarish maydonlari tayyorlanadi; uskunalar o'rnatilib, ularning montaj ishlari tayyorlanadi. Xodimlarni o'qitish ishlari o'tkaziladi va reklama tadbirlari olib boriladi. Unda korxonaning doimiy aktivlari shakllanadi. Ba'zi – bir harajatlar masalan hodimlarni o'qitish, reklama tadbirlari, uskunalarni o'rnatish va ishga tushirish, qisman mahsulotning tannarxiga (bo'lg'usi harajatlari kabi) kiritiladi, qisman ishlab chiqarish oldi harajatlariga

kiritiladi.

- Loyiha hayoti siklining oxirgi bosqichi, *ekspluatatsion yoki ishlab chiqarish fazasi* hisoblanadi.

Bu asosiy uskuna va vositalarni harakatga keltirishdan boshlanadi. Ushbu fazada korxonaning harakatiga start beriladi, mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarila boshlanadi va olingan qarz mablag'lari (bank kreditlari) qaytarila boshlanadi.

Bu faza mos tushumlar va joriy harajatlarni xarakterlaydi. Ishlab chiqarish fazasi davomiyligi investion loyihani umumiyligi xarakteriga sezilarli ta'sir o'tkazadi. U qancha uzoq bo'lsa shuncha jami daromad hajmi yuqori bo'ladi.

#### **4.3. Xo'jalik yurituvchi sub'y eklarning o'z mablag'lari**

Bugungi kunda respublikamizda iqtisodiyotning barcha ustuvor sohalariga xorijiy investitsiyalarni jaib qilish yuzasidan faol siyosat yuritilib, katta tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatda milliy valyutaning erkin ayrboshlanishiga erishilmagan vaqtarda, tashqi iqtisodiy faoliyatdag'i hamda investitsiya iqlimi bilan bog'liq bir qator muammolar respublika iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar, jumladan, bevosita xorijiy investitsiyalar hajmining pasayib borayotganligiga asosiy sabab sifatida ko'rsatilar edi.

Respublika hukumati tomonidan joriy hisoblar bo'yicha milliy valyutani erkin konvertatsiya qilinishi masalasi hal etilgani tufayli tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga va respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarning jaib qilinishi borasida ulkan imkoniyatlar ochib berdi.

Hozirgi kunda mamlakatda investitsiya faolligini oshirish va bevosita xorijiy investitsiyalar oqimi hajmini ko'paytirish maqsadida samarali vositalardan biri sifatida fikrimizcha, birinchi navbatda, milliy korxonalar moliyaviy barqarorligini oshirish, ularning investitsion faolligini hamda salohiyatlari xorijiy investorlar bilan mustaqil ish olib borish imkoniyatlarini kengaytirishni ta'minlash zarur.

O'zbekistonda xorijiy kompaniyalar faoliyatining huquqiy asoslarni shakllantirish jarayoni ham takomillashtirilmoqda. Hozirgi kunda respublikamizda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar majmui ishlab chiqilgan.

Xorijiy investorlar xom ashyo materiallarini qayta ishlashga, iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishga va xizmatlar ko'rsatish, aholini ish bilan ta'minlashga qaratilgan kichik va xususiy tadbirkorlik sohasidagi loyihalarga investitsiyalar kiritishda ularga qo'shimcha kafolatlar beriladi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning o'sish sur'ati ko'p jihatdan turli xil investitsiya muassasalari faoliyatining rivojlanishiga, qimmatli qog'ozlar bozori tashkil topishi, inflatsiya jarayonlari bartaraf qilinishi va ishlab chiqarishning barqarorlashishiga bog'liqdir.

Iqtisodiy islohotlarning chuqurlashtirishi moliyalashtirish manbalari bo'yicha investitsiyalarning tarkibiy o'zgarishiga sabab bo'ldi. Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning asosiy manbasi kortonalarining o'z mablag'lari bo'ldi. Ularning umumiy tarkibdagi ulushi 8,5 foiz daraja ortib, 45,9%ni tashkil etdi. Korxona moliyaviy barqarorligining ortishiga xususiylashtirish jarayonlarining faollashuvi va ishlab chiqarishga soliq yukini kamaytirish bo'yicha davlat tomonidan soliq byudjet siyosatini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar ta'sir ko'rsatdi.

Sanoat tarmoqlari rivojlanishi uchun yo'naltirgan investitsiyalar tarkibi o'zgardi. Kapital kiritilgan asosiy tarmoqlar issiqqlik-energetika, metallurgiya, kimyo va neft, yengil sanoat tarmoqlari bo'ldi.

Umuman olganda, samarali investitsiya loyihalarini o'zlashtirish orqali rivojlangan bozor iqtisodiyotini barpo etish bilan bog'liq ko'pgina vazifalarni hal etishga muvaffaq bo'lamiz. Uning amalga oshirilishi bиргина qo'shimcha faoliyat va ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilishini ta'minlab qolmasdan, balki jamiyat hayotining haqiqiy darajasini ko'rsatib beruvchi aholi turmush farovonligining oshishiga va davlat boyligining ko'payishiiga hamda uning iqtisodiy qudratini oshishga xizmat qiladi.

#### **4.4. Jalb etilgan mablag'lar evaziga investitsiya faoliyatini moliyalashtirish**

Keng ma'noda har qanday biznesni tashkil qilish, boshqarishning har qanday shaklini o'z ichiga oluvchi ijtihoi - iqtisodiy tizimning izohi o'zida boshqariladigan tizim elementlariga boshqaruvchi tizim elementlarini maqsadli yo'naltirilan, tizimli va uzlaksiz ta'sir etish jarayonidir.

Moliyani boshqarishni shakllantiruvchi tashkiliy - tuzilmaviy apparatga moliyaviy apparat deiladi. Moliya tiziminining barcha soha va bug'inlarida, maqsad qilingan natijaga erishish uchun moliyaviy boshqaruvi sub'yektlaridan o'z yo'nalishlari bo'yicha samarali foydaliladi. Biroq, ular uchun moliyaviy boshqaruvning umumiy uslub va qoidalari mavjuddir. Jumladan, moliyani boshqarishda bir nechta umumiy xususiyatga ega bo'lgan funktsional elementlar mavjud:

1. Rejalahshtirish;
2. Operativ boshqarish;
3. Nazorat.

Moliyani boshqarish funksional elementlari ichida asosiy o'rinni rejalahshtirish tashkil qiladi. Chunki aynan rejalahshtirishda sub'yeqt har tomonlama o'zining moliyaviy holatini baholay oladi, ya'ni moliyaviy resurslarning qanday holatdaligi, qanday ko'rsatkichlar moliyaviy resurslardan ustivor ahamiyatga molik bo'lgan yo'nalishlarda foydalanishi va h.k.

*Operativ boshqarish* bu - minimal harajat qilib maksimal samaraga erishish va moliyaviy resurslarni yuqori samara olish uchun qayta taqsimlashga qaratilgan kompleks ishlar yig'indisidir. Operativ boshqarish egiluvchanlik xususiyatiga egadir.

*Nazorat* – boshqaruv elementi sifatida bir vaqtning o'zida moliyani rejalahshtirishda hamda operativ boshqarishda qo'llaniladi. Nazorat haqiqiy natija bilan rejadagi ko'rsatkichlarni taqqlaslashga yordam beradi, moliyaviy resurslarni ko'paytirish yo'llarini ko'rsatadi va ulardan samarali xo'jalik yuritish yo'llarini ko'rsatib beradi.

Moliyaviy boshqarishda strategik va operativ boshqarish bir-biridan farq qiladi. Strategik boshqarish maqsadli dasturlarni realizatsiya qilishda moliyaviy resurslar hajmini aniqlash, istiqboldagi moliyaviy bashorat qilish orqali moliyaviy resurslarni aniqlashni o'zida aks ettiradi.

Moliyani boshqarish shartli holatda umumiy boshqaruv va operativ boshqaruv guruhlariga bo'linadi. Moliyani umumiy boshqaruv sub'yektlariga: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident devoni tashkil etadi. Moliya operativ boshqaruv sub'yektlariga: Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va ularning joylardagi bo'limnalari, sug'urta tashkilotlari, xo'jalik sub'yektlarining moliya bo'lim (xizmat) lari tashkil etadi.

Operativ boshqarish moliya tizimi apparatining bosh vazifasi hisoblanib: Moliya vazirligi, mahalliy moliyaviy boshqarish organlari, korxonalarning moliyaviy xizmat tizimlari kiritiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyani boshqarishni ilmiy asoslangan holda, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning tajribasidan hamda respublika ichidagi xususiyatlarni hisobga olib tashkil qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Moliyani boshqarishni to'g'ri tashkil qilish ulardan samarali foydalanishni belgilab beradi. Birinchi navbatda, moliyani boshqarish sub'yektlari tomonidan ishni qay yo'sinda tashkil qilinganligi operativ boshqaruv organlari faoliyatiga bevosita ta'sir qiladi. Shunga tayangan holda moliyaviy apparatning mavqeい ancha yuqori bo'lishi shart. Aks holda moliyaviy tuzilma ishchilarning malakasi

va mutaxasisligiga bo'lgan yuqori talabni amalga oshira olmaydi va natijada moliyani boshqarishda oqsoqlikka yuz tutadi.

Moliyani boshqarishni qayta ko'rishning markaziy bo'g'inlaridan bo'lib mahalliy - hududiy sub'yektlarning erkin moliya siyosatini yurgizishni ta'minlashdir. 2010 yilda mahalliy byudjetlar daromadi davlat daromadining qariyib 70 foizdan yuqorisini tashkil qilmoqda. Mazkur ko'rsatkich moliyani boshqarishdagi ilk ijobji natijalar nishonasidir.

Moliyaviy rejalashtirishning ob'yekti bo'lib xo'jalik sub'yektlari va davlatning moliyaviy faolyati hisoblanadi. Har bir xo'jalik sub'yekti moliyaviy rejasini tuzadi, ya'ni bu alohida muassasaning smeta harajatlaridan tortib to davlatning yig'ma moliya balansigacha qamrab oladigan muhim jarayondir.

Har qanday moliya rejasida ma'lum bir davrga mo'ljallangan hamda moliya va kredit tizimi bilan bog'liq bo'lgan daromadlar va harajatlar aniqlanadi.

Umuman olganda moliya tizimining barcha soha va bo'g'inlarida, faoliyatidan kelib chiqib, moliyaviy rejalap tuziladi. Masalan: tijorat asosida faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik sub'tektlari daromadlar va harajatlar balansi, notijorat asosida faolitat ko'rsatayotgan muassasalar esa smeta harajatlar ko'rinishida moliyaviy reja tuzadi.

Moliyaviy rejalashtirish bir nechta uslublarga tayangan holda amalga oshiriladi. Shulardan asosiyлari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Ekstrapolatsiya usuli;
2. Normativ usuli;
3. Matematik modellashtirish usuli.

*Ekstrapolatsiya usulining* mohiyti shundaki, o'tgan hisobot davrining moliyaviy natijalaridan xulosa chiqarib kelgusi hisobot yili uchun moliyaviy rejani tuzishni ko'zda tutadi. Moliyaviy ko'rsatkichlarning prognoz va rejali hisob-kitoblari turli usullardan foydalanishiga asoslanadi. Ekstrapolatsiya usuli moliyaviy ko'rsatkichlar va ularning dinamik o'zgarishlariga asoslanadi. Moliyaviy kursatkichlar hisobot yildagi ko'rsatkichlar asosida amalga oshiriladi.

*Normativ usulda*, belgilangan norma va normativlardan foydalanish ko'zda tutiladi. Masalan: byudjet muassasalarida I-sinfda nechta bola o'qishi lozim, sanatoriyyada qancha joy bo'lishi kerak va h.k.

*Matematik modellashtirish* usulida real iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni takrorlovchi moliyaviy modellar tuzish orqali amalga oshiriladi. Moliyaviy resurslarni manbalarini ulardan foydalanish bilan muvosifqlashtirish asosidagi rejalashtirish jarayoni balans usuli hisoblanadi.

Hal qilinishi lozim bo'lgan vazifalarning xarakteriga, murakkabligiga va davrini uzoqligiga qarab, moliyaviy siyosat:

## **1. Moliyaviy strategiya.**

### **2. Moliyaviy taktika**

Moliyaviy strategiya deb korxonani moliyaviy resurslar bilan ta'minlash uchun tuzilgan asosiy rejaning tarziga aytildi. Korxonani moliyaviy strategiyasi o'z ichiga korxonaning moliyaviy ahvolining tahlilini asosiy va aylanma mablag'larini optimallashtirish, daromadni taqsimlash, naqd pulsiz to'lashlarni, soliq va narxlar siyosatini, qimmatli qog'ozlar jarayonidagi siyosatni oladi.

Moliyaviy strategiya asosiy va operativ bo'lishi mumkin.

Asosiy moliya strategiyasi deb, korxonani faoliyatini aniqlovchi byudjetni hamma darajasida bo'ladigan o'zaro munosabatlariiga, korxonani daromadlarini tashkil etib uni sarflashga, ehtiyojlik miqdorini va bir yilda moliyalashtirish manbalariga aytildi.

Operativ moliya strategiyani, asosiy moliyaviy strategiyadan farqi, u o'z ichiga yalpi daromdlarni va mablag'larni ko'payishini (ish xaqi, sotilgan mahsulot uchun sotib oluvchilar bilan hisob-kitob qilish, kredit operatsiyalaridan tushumlar) va hamma yalpi harajatlarini (ta'minlovchilar bilan hisob-kitob, ish haqi, hamma darajadagi byudjetlar va banklar bilan majburiyatlarini uzmoq) oladi.

Moliyaviy taktika – strategiya belgilab bergen vazifalarni jamiyat rivojlanishining konkret bosqichida moliyaviy munosabatni tashkil etish usullari orqali amalga oshiradi.

## **Nazorat savollari**

- 1. Investitsiya resurslari haqida tushuncha.**
- 2. Investitsiya muhiti va unga ta'sir etuvchi omillar.**
- 3. Investitsiya iqlimi haqida tushuncha.**
- 4. Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish yo'nalishlari.**
- 5. Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan rag'batlantirish yo'nalishlari.**
- 6. Jadallashtirilgan ammortizasiyaning korxona investitsiya faoliyatiga ta'siri.**
- 7. Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan rag'batlantirishda soliq imtiyozlari turlari.**
- 8. Investitsiya faoliyatini tartibga solishda pul-kredit siyosatining roli va vazifalari.**
- 9. Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishda tashki iqtisodiy faoliyatning roli.**
- 10. Proteksionizm siyosatining mohiyati va ahamiyati.**

## V-BOB. XORIJIV INVESTITSIYALARING MAZMUNI VA AHAMIYATI

### 5.1. Xorijiy Investitsiyalarining mazmuni va mohiyati

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarning investitsiya faoliyatini jadallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini amalga oshirishda xorijiy investitsiyalar, avvalo, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarining o'mni beqiyosdir. Bunda ilg'or texnologiyaarning tatbiq etish, yangi ish o'rnlari yaratish va shu asosda mamlakat iqtisodiyotining barqaror va bir maromda rivojlanishini ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, chet el investitsiyasi jalb qilinishi mazkur davatlarning yuksak darajada taraqqiy etishida hal qiluvchi omillardan biri bo'lgan.

O'zbekistonda Prezidentimiz Islom Karimov rahbarligida Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligini ta'minlash maqsadida chet el investitsiyalarini jalb etishga strategik ustuvor vazifa sifatida qaralib, mazkur masala davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishi etib belgilangan.

Bugungi kunda yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni jadal modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashni ta'minlash, yuksak texnologiyalar asosida ishlaydigan avtomobilsozlik va gaz - kimyo, elektr texnikasi va to'qimachilik, oziq-ovqat va farmatsevtika, axborot va telekommunikatsiyalar tarmog'i hamda boshqa yo'nalishlardagi yangi va zamонави ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini yuritishga ustuvor e'tibor berilmoxda. Eng muhimmi, xorijiy va mahalliy sarmoadorlar uchun qulay, har tomonlama imtiyozi investitsiya muhitini yaratilgan.

2010 yilda Investitsiya dasturiga muvofiq kapital qo'yilmalar o'tgan yilga nisbatan 22,1 foizga ortib, yalpi ichki mahsulotning 30 foizini tashkil qildi. Bunda birgina ishlab chiqarish sohasiga mo'ljalangan investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun barcha kapital qo'yilmalarning 75 foizdan ziyodi yo'naltiriladi.

2010 yilda mamlakatimizda muhim strategik loyihalarni amalga oshirish uchun 3 milliard AQSh dollaridan ziyod yoki o'tgan yilga nisbatan 30 foiz ko'p xorijiy investitsiyalar jalb qilinishini e'tiborga oladigan bo'lsak, o'yaymanki, amalga oshiriladigan loyihalarning ko'lami va salmog'i o'z-o'zidan ayon bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 46 foizga oshadi.

Mamlakatimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay investitsiya muhitining yaratilgani asosiy omil bo'lib kelmoqda. Investitsiya jarayonlarini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida yildan-yilga investitsiya hajmi sezilarli darajada ortib bormoqda. Buni birgina 2010 yilda kiritilgan jami investitsiyalar hajmidan ham bilib olish mumkin. Raqamlarga nazar soladigan bo'lsak, o'tgan 2010 yilda 700 million AQSh dollariga teng bo'lган investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2009 yilga nisbatan 13,6 foizga ko'pdir. Ushbu investitsiyalarning saltkam 72 foizi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etishga, jumladan, 38 foizga yaqini asbob – uskuna va ilg'or texnologiyalar sotib olishga yo'naltirildi. Shu boradagi umumiy qo'yilmalar hajmida xorijiy investitsiyalar va kreditlar ulushi 28,8 foizni; to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar miqdori 2 milliard 400 million dollardan ziyodni tashkil etdi.<sup>1</sup>

Moliyalashtirish manbalari tarkibi (5.1-jadval) 2010 yilda umumiy investitsiyalar hajmida davlat byudjeti mablag'lari 7,4 foiz; chet el investitsiyalar 28,8 foiz; korxonalar va moliya mablag'lari 47,3 foizni tashkil etadi.

#### 5.1-jadval

##### 2005-2011 yillarda investitsiyalar tarkibining o'zgarishi, foizda

Moliyalashtirish manbalari	2005	2007	2008	2009	2010	2011
Davlat byudjeti	12,7	9,0	9,0	8,1	7,4	5,1
Chet el investitsiyalar	19,2	22,8	25,8	32,4	28,8	25,3
Korxonalar va aholi mablag'lari	60,3	59,0	53,9	46,9	47,3	49,0
Boshqa manbalar	7,8	9,2	11,3	12,6	16,5	20,6

Ko'rsatkichlar tahlilidan xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi davom etayotgan bir sharoitda ham O'zbekiston ulkan xorijiy investitsiyalar yo'naltirilayotgan mamlakatlar guruhidan joy olmoqda. Bunga albatta, mamlakatimizda olib borilayotgan va uzoq strategik maqsadlarni ko'zlagan investitsion dasturlar hamda tarkibiy o'zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay investitsiya muhitining yaratilgani asosiy omil

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010 yilda mamlakatimiz ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish yakunlari va 2011 yilga mo'ljalangan eng muhim ustuvor yunalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi, 2011 yil 22 yanvar.

bo'lmoqda. Davlat investitsiya dasturi doirasida jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi 2010 yilda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar umumiy xorijiy investitsiyalar hajmi 2010 yilda 2006 yilga qaraganda 3,6 barabarga ko'paygan. 2010 yilda to'g'ridan – to'g'ri investitsiyalar umumiy xorijiy investitsiyalarning qariyb 84 foizini, hukumat kafolati ostidagi investitsiyalar esa 16 foizni tashkil etgan. Vaholanki, 2006 yilda hukumat kafolati ostidagi investitsiyalar umumiy xorijiy investitsiyalarning 23,7 foizini tashkil qilgan.

Jalb etilgan xorijiy investitsiyalarning hajmi 68 foizga o'sdi, eng muhim, ularning asosiy qismi to'g'ridan-to'g'ri kiritilgan investitsiyalar bo'lib, ularning hajmi 1,8 barobar oshdi.

Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakatimizning iqtisodiy quadratini yanada oshirish maqsadida 2009 – 2014 yillarga mo'ljallangan iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, uning raqobatbardoshligini kuchaytirish, eksport salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan muhim ustuvor loyihalarni amalga oshirish bo'yicha dastur ishlab chiqilgan. Unda umumiy qiymati 42,5 milliard dollardan iborat 852 ta 19,3 milliard dollar hajmidagi 138 loyiha innovatsion tavsifga egadir. Bu esa mamlakatimiz iqtisodiyotning yaqin kelajakda zamonaviy fan – texnika taraqqiyoti yutuqlariga asoslangan, raqobatdosh iqtisodiyotga aylanishidan darak beradi.

## **5.2. Xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb qilishning ob'yekti zarurligi**

Jahon iqtisodiyoti globallashib, savdo yo'lidagi to'siqlar kamayib, soliq qonunlari va tartibga soluvchi rejimlar erkinlashib borayotgan hozirgi sharoitda chetdan kiritiladigan investitsiya oqimlari tez sur'atlar bilan o'smoqda. Bevosita chet el investitsiyalarining dunyo bo'yicha umumiy hajmi 1980 yildagina qaraganda 14 baravardan ziyod ortib, 2008 yil holatiga, jami 7,6 trln AQSh dollariga yetdi. Hozirgi vaqtida butun dunyoda 64 mingga yaqin mamlakatlararo kompaniyalar mavjud bo'lib, ular 870 mingta xorijiy shu'ba korxonalarini faoliyatini nazorat qilib turadi. Ushbu korxonalar sotilayotgan mahsulotlar hajmi taxminan 18 trln AQSh dollarini tashkil etdi. Bu esa o'z navbatida, butun jahon eksporti hajmidan 2 baravaridan ziyoddir.

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ularning huquqiy himoyasini ta'minlashga qaratilgan mustahkam qonunchilik bazasi shakllangan bo'lib, doimiy ravishda takomillashib bormoqda. Jumladan, hozirgi kunda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va chet e'llik investorlarning huquqlarini muhofaza qilish, ularga beriladigan imtiyoz va kafolatlar masalalari

tegishli qonunlar, Prezident Farmonlari, hukumat qarorlari bilan tartibga solinadi.


Chet el investorlari, asosan, daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdag'i faoliyat ob'yeqtligiga qo'shadigan barcha turdag'i moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka doir huquqlar, chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari deb e'tirof etiladi.

**Xorijiy investitsiyalar** - bu chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutlaq boshqa davlat iqtisodiyotining, qonun bilan taqiqlanmagan tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklaridir. Chet el investitsiyalari ichki investitsiyalardan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbaiga kiradi. Lekin chet el kapitalini jalb qilishning hamma shakllari ham moliyalashtirishning tashqi manbai bo'lmasi mumkin. Bu birinchi navbatda, foiz to'lovlari bilan qaytarishni talab etadigan chet el kreditlari va qarzlariga ta'alluqli. Chunki, chet el kreditlari va halqaro moliya institutlari qarzlarini ma'lum vaqt o'tgach asosiy qarz bilan birga belgilangan foizlarining qaytarilishini talab etadi. Chetdan jalb etiladigan xorijiy investitsiyalar bilan, ya'ni real investitsiyalar bilan chet eldan kiritiladigan kreditlarning o'ziga xos farqlari mavjuddir.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etilayotgan investitsiyalar hajmi yildan – yilga oshib bormoqda. Buni birgina 2010 yilda kiritilgan jami investitsiyalar hajmidan ham bilib olish mumkin. Raqamlarga nazar soladigan bo'lsak, o'tgan 2010 yilda 9 milliard 700 million AQSh dollariga teng bo'lgan investitsiyalar o'zlashtirishgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2009 yilga nisbatan 13,6 foizga ko'pdir. Ushbu investitsiyalarning salkam 72 foizi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etishga, jumladan, 38 foizga yaqini asbob-uskuna va ilg'or texnologiyalar sotib olishga yo'naltirildi. Shu boradagi umumiyoq qo'yilmalar hajmida xorijiy investitsiyalar va kreditlar ulushi 28,8 foizni, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar miqdori 2 milliard 400 million dollardan ziyodni tashkil etdi.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarining investitsion faoliyatini yanada jonlashtirish, xorijiy investitsiyalarni, avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish va ulardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta qurollantirish, yangi ish o'rinalarini shakllantirish va shu asosda milliy iqtisodiyotimizni barqaror va jadal rivojlantirishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2010

yilga investitsion dasturi haqida”gi 1213-sonli Qaroni<sup>1</sup> tasdiqdangan bo’lib, ushbu dastur asosidagi kapital qo’ymalarni moliyalashtirish manbalari tarkibida bank tizimi investitsion kreditlarining ahamiyati yuqori bo’lmoqda.



### **5.1-rasm.2006 – 2010 yillar davomida davlat investitsiya dasturlari doirasida jalb qilingan xorijiy investitsiyalar dinamikasi, million AQSh dollari.**

Yuqorida keltirilgan tahliillardan ko’rish mumkinki, 2010 yilda iqtisodiyotga kiritilgan to’g’ridan-to’g’ri investitsiyalar 2009 yilga nisbatan 10,5 foizga oshgan va uning katta qismi, ya’ni 60,1 foizi neft-gaz tarmog’ini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta qurish va geologiya qidiruv ishlariiga sarflangan.


Endilikda Prezident I.A.Karimov tomonidan chuqur asoslab berilgan printsip va qoidalar negizida boshlangan tarkibiy o’zgarishlarni izchil davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko’tarish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish mo’ljallanmoqda:

- mamlakatimiz iqtisodiyetining yuqori samarali, eksportga yo’naltirilgan tuzilmasini shakllantirish;
- iqtisodiyotning o’zak tarmoqlarini texnika bilan qayta jihozlash va yanada rivojlantirish;
- yengil va qayta ishslash sanoati korxonalarini texnika bilan qayta jihozlash va zamonaviylashtirish;
- yuqori texnologiyani va ilmiy yangiliklar asosidagi ishlab chiqarishlarni

<sup>1</sup> “O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga palatalarining axborotnomasi”, 2009 yil, 10-son, 403-modda.

jadal rivojlantirish<sup>1</sup>.

2010 yilda iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalar hajmi amaldagi baholarda jami 15409,1 milliard so'mni tashkil etdi (5.2-jadval). Ushbu ko'rsatkich 2011 yilda 20721,8 milliard so'mni tashkil etishi va o'tgan 2010 yilga nisbatan 12,6 foizga ortishi rejalashtirilmoqda.



**5.2-rasm. 2005 – 2010 yillar davlat investitsiya dasturlari doirasida to'g'ridan – to'g'ri xorijiy sarmoyalarning jalb qilinish dinamikasi, million AQSh dollar**

Umumiy investitsiyalarda markazlashgan investitsiyalarning ulushi 2010 yilda 18,5 foizni tashkil etgan, uning qolgan 81,5 foizi esa markazlashmagan investitsiyalardan iborat bo'lgan. Vaholanki, ushu ko'rsatkichlar 2002 yilda boshqacha nisbatni tashkil qilgan, ya'ni mos ravishda markazlashgan investitsiyalar umumiy investitsiyalarning 20,8 foizini, markazlashmagan investitsiyalar esa 76,1 foizini tashkil etgan. Bundan ko'rish mumkinki, o'sish sur'atida yalpi investitsiyalar bo'yicha markazlashgan investitsiyalarning ulushi kamayib borgan.

"Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi Qonunga ko'ra O'zbekiston Respublikasida chet ellik investorlar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- chet el davlatlari, chet el davlatlarining ma'muriy yoki hududiy organlari;
- davlatlararo bitimlar yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tashkil topgan

<sup>1</sup> Abulkosimov H.P. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar. – T., Akademiya, 2008.

yoki xalqaro ommaviy huquq sub'yektlari bo'lgan xalqaro tashkilotlar;

- chet el davlatlarining qonun hujjalariiga muvofiq tashkil topgan va faoliyat ko'rsatib kelayotgan yuridik shaxslar, boshqa har qanday shirkatlar, tashkilotlar yoki uyushmalar;

- chet el davlati fuqarolari bo'lmish jismoniy shaxslar, fuqaroligi bo'lмаган shaxslar va chet ellarda doimiy yashaydigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari.

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni jaib qilishning bir qancha shakllari mavjud, ya'ni:

- ulushi qo'shilib qatnashishi orqali qo'shimcha korxonalarni tashkil etish;

- 100 foiz mol-mulk xorijiy investorlarga tegishli bo'lgan xorijiy korxonalarni tashkil etish;

- yirik xorijiy kompaniya va firmalarning shu'ba korxonalari va filiallarini tashkil etish;

- kontsessiya va lizing shartnomalari tuzish;

- tenderlar e'lon qilish;

- erkin iqtisodiy hududlar tashkil etish;

- moliyaviy aktivlarni sotish va sotib olish.

## 5.2-jadval

### Investitsiya sohasidagi makrolqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sish sur'ati

Ko'rsatkichlar	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011*
Amaldagi baholarda, jam'i milliard	3165,2	4041,0	5479,7	8587,1	12531,9	15409,1	20721,8
Joriy yilga nisbatan foiz hisobida	107,0	109,1	122,9	128,3	124,8	109,2	112,6
YalM da investitsiya miqdori, foizda	20,8	19,5	19,4	22,7	26,1	24,9	26,8
Markazlashgan investitsiyalar amaldagi baholarda, milliard so'm	755,8	915,8	1099,7	1717,0	2517,9	2855,3	4696,5
Kapital qo'yilmalarda markazlashgan investitsiyalar miqdori, foizda	23,9	23,1	20,1	20,0	20,1	18,5	22,7
Markazlashgan investitsiyalar amaldagi baholarda, milliard so'm	2709,4	3109,0	4380,0	6870,1	10014,1	12553,8	16025,4
Kapital qo'yilmalarda markazlashmagan investitsiyalar miqdori, foizda	76,1	76,9	79,9	80,0	79,9	81,5	77,3

Hozirgi kunda respublikamizda qo'shma korxonalar tashkil etish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish keng tarqalgan shakllaridan biri bo'lib, O'zbekiston Respublikasida qo'shma korxona deganda, nizom kapitalining kamida 33 foiz xorijiy investorlarga tegishli bo'lgan va xorijiy investor faqat yuridik shaxs bo'lgan, nizom kapitalining eng kam miqdori 300000 AQSh dollariga teng bo'lgan ekvivalent summani tashkil etgan korxonalarga aytildi. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxona nizom jamg'armasiga me'oriy chegara qo'yilishi sifatsiz mahsulotlarining oldi-sotdisi va ularni respublikaga import qilish bilan shug'ullanishga ixtisoslashgan kichik qo'shma korxonalarining keragidan ortiqcha kirib kelishining oldini olish maqsadida belgilangan.

Xorijiy korxonalarini tashkil etish orqali chet el investitsiyalarini jalb qilish turi ham bugungi kunda kengayib bormoqda. O'zbekistonda xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar iqtisodiyotning turli sohalarida tashkil etilishi mumkin. Yirik xorijiy kompaniya va korxonalar o'z mol-mulkлari bir qismini ajratib, sho'ba korxonalar ochishi mumkin. Bunda sho'ba korxonalarga ham qo'shma korxonalarga qo'yilgan talablar belgilangan.

Ikki yoki uchdan ortiq davlat yoki korxonalar o'z kapitallarini jamlagan holda xalqaro tashkilotlar tashkil etishi mumkin.

Kontsessiya shartnomalari - bu tabiiy boyliklarni, ayrim foydali qazilmalarni qazib olish va o'zlashtirish uchun tuzilgan shartnomalardir.

Lizing shartnomasi esa chet el investitsiyalari ishtirokida asbob - uskunalarini, texnika - texnologialarni uzoq muddatga ijara olish.

Tenderlar esa tanlov asosida investorlarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga jalb etilishidir.

Erkin iqtisodiy hudud - bu ma'lum hududda chet el investitsiyalari erkin kirib kelishi va ularga nisbatan qator imtiyozlar belgilangan hududdir.

Moliyaviy aktivlar - bu qimmatli qog'ozlar bo'lib, u chet el kapitalini jalb etish, chet el kreditlarini olish va chet el kapitalini bank depozitlariga jalb etish uchun emissiya qilinadi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni maqsad qilgan davlatlarning shuningdek ularni joylashtiradigan mamlakatlarning ham o'ziga xos strategik maqsadlari bo'ladi. ularni quyidagicha izohlab berish mumkin.

Investitsiyalarni joylashtiruvchi davlatlarning asosiy manfaatlari va maqsadlari quyidagicha:

- hududda tabiiy boyliklardan foydalanish imkoniyatini qo'lga kiritish;
- yangi bozorlar kashf etish orqali mamlakat iqtisodiyotiga kirib borish;
- ishchi resurslariga kam xarajat sarf qilib yuqori iqtisodiy samara olish;
- iqtisodiy va moliyaviy imtiyozlarga ega bo'lish va boshqalar

Xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi mamlakatlarning asosiy strategik maqsadlari quyidagilardir:

- zamonaviy ilg'or texnika va texnologiyalardan foydalanish;
- milli iqtisodiyotni qo'shimcha manbalar bilan to'ldirish;
- xorijiy boshqaruv va boshqa intellektual tajribalaridan foydalanish;
- importni qisqartirish hisobiga valyuta jamg'armasini tejash hamda eksportni kengaytirish va boshqalar.

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar qatnashgan korxonalar ichida qo'shma korxonalar yetakchi o'rinda turadi. To'liq xorijiy investitsiyalar bilan tashkil etilgan korxonalar kam. Ko'pchilik davlatlarda xorijiy investitsiyalar qatnashgan korxonalarini ro'yxatdan o'tkazish har xil. Ba'zi davlatlarda bu vazifani Moliya Vazirligi bajarsa, boshqalarida Adliya Vazirligi bajaradi. O'zbekistonda bu vazifani Adliya Vazirligi amalga oshiradi. O'zbekistondagi xorijiy investitsiya qatnashgan korxonalar respublika hududida o'zining filiallari yoki vakil korxonalarini tashkil etishlari mumkin. Bundan tashqari ular boshqa davlatlarda ham o'z filiallarini ochishlari mumkin.

### **5.3. O'zbekiston Respublikasida chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va ular uchun belgilangan imtiyoz va kafolatlar**

O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar deganda aksiyalarining (ulushlari, paylarining) yoki ustav jamg'armasining kamida 30 foizini chet el investitsiyalari tashkil etadigan korxonalar tushuniladi. Ular O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariiga zid kelmaydigan har qanday tashkiliy - huquqiy shakllarda faoliyat ko'rsatadilar. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona qatnashchilaridan biri chet ellik investor bo'lishi shart.

O'zbekiston Respublikasida chet ellik investorlar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- chet el davlatlari, chet el davlatlarining ma'muriy yoki hududiy organlari;

- davlatlararo bitimlar yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tashkil topgan yoki xalqaro ommaviy huquq sub'ektari bo'lgan xalqaro tashkilotlar;
- chet el davlatlarining qonun hujjatlariiga muvofiq tashkil topgan va faoliyat ko'rsatib kelayotgan yuridik shaxslar, boshqa har qanday shirkatlar, tashkilotlar yoki uyushmalar;

- chet el davlati fuqarolari bo'lgan jismoniy shaxslar, fuqaroligi bo'limgan va chet ellarda doimi yashaydigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona uni ta'sis etish yo'li bilan yoki

ilgari chet el investitsiyalari ishtirokisiz ta'sis etilgan korxonada ishtirok etish ulushini (payini, aksiyalarini) yohud bunday korxonani butunlay, shu jumladan xususilashtirish jarayonida chet ellik investor tomonidan sotib olinishi natijasida tashkil etilishi mumkin. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona davlat ro'yxatiga olingan paytdan e'tiboran yuridik shaxs huquqiga ega bo'ladi

Davlat ro'yxatiga olinadigan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalariga quyidagi shartlarga javob beradigan korxonalar kiradi:

- korxona ustav jamg'armasining hajmi 150 ming AQSh dollariga to'g'ri keladigan summadan kam bo'lishi mumkin emas;
- korxona ishtirokchilaridan biri albatta chet ellik yuridik shaxs bo'ladi;
- chet el investitsiyalarining xissasi korxona ustav jamg'armasining kamidagi 30 foizini tashkil etadi.

Ko'rsatilgan shartlarga muvofiq kelmadigan korxonalar xorijiy investitsiyali korxonalar qatoriga kiritilmaydi hamda ular korxona joylashgan yerdagi shahar va tuman hokimiyatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olinishi kerak.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalariga ustav faoliyatida o'zi ishlab chiqarishi va (yoki) ishdab chiqarilayotgan mahsulot servis xizmatining ulushiga xo'jalik faoliyatidan olingan tushum umumiylajmining 60 foizdan ko'pi to'g'ri keladigan chet el, sho'ba va qo'shma korxonalar kiradi (bundan oldingi bandda keltirilgan shartlarga muvofiq bo'lganda).

Davlat O'zbekiston Respublikasi hududida investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchi chet ellik investorlarning huquqlarini kafolatlaydi va himoya qiladi.

Chet ellik investorlarni himoya qilishning umumiylafatli kafolatlari va choralar bilan bir qatorda qonun hujjalardan qo'shimcha, shu jumladan, sheriklar tomonidan chet ellik investorlar oldidagi o'z majburiyatlarining so'zsiz bajarilishini ta'minlovchi kafolatlari va ularni himoya qilish choralarini nazarda tutilishi mumkin. Chet ellik investorlarga qo'shimcha kafolatlari va ularni himoya qilish choralarini har bir muayyan holda, ya'ni:

- barqaror iqtisodiy o'sishni, mamlakat iqtisodiyotida ilg'or tuzilmaviy o'zgarishlar ro'y berishini ta'minlovchi ustuvor tarmoqlarga investitsiyalar kiritilayotganda;
- respublikaning eksport imkonini mustahkamlanishi va kengayishini, respublika jahon xo'jalik aloqalariga integrasialashuvini ta'minlovchi ustuvor loyihalarga investitsiyalar kiritilayotganda;
- amalga oshirishda xom ashyo va materiallarni qayta ishslashga, iste'mol tovari shaxs ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishga, aholini ish bilan ta'minlashga qaratilgan kichik biznes va tadbirkorlik sohasidagi loyihalarga investitsiyalar kiritilayotganda berilishi mumkin.

Chet ellik investorlarga qo'shimcha kafolatlar va ularni himoya qilish choralari O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan kafolat berishni, investitsiya loyihamini moliyaviy ta'minlashda ko'maklashishini, maxsus soliq va to'lov rejimi yaratishini, loyihamar ro'yobga chiqarilishining davlat monitoringi amalga oshirilishini hamda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa choralarni o'z ichiga olishi mumkin.

Qonun hujjatlari, shu jumladan idoraviy normativ hujjatlari, agar ularning ijrosi chet ellik investorga yoki chet el investitsiyalariga zarar yetkazsa, ular orqaga qaytish kuchiga ega emas.

Agar O'zbekiston Respublikasining keyingi qonun hujjatlari investitsialash shart-sharoitlarini yomonlashtirsa, unda chet el investitsiyalariga nisbatan investitsiyalash sanasida amal qilgan qonun hujjatlari investitsiyalash paytidan boshlab 10 yil mobaynida qo'llaniladi. Chet ellik investor o'z xohishiga ko'ra yangi qonun hujjatlarining investitsiyalash shart-sharoitlarini yaxshilaydigan qoidalarini qo'llash huquqiga egadir.

Davlat boshqaruven organlari va davlat hokimiyati mahalliy organlari chet ellik investorlarning O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilayotgan xo'jalik faoliyatiga aralashishga haqli emas.

Davlat boshqaruven organlari va davlat hokimiyati mahalliy organlari o'zlarining qonuniy vakolatlaridan foydalanish paytida chet ellik investor qonun hujjatlarini buzganligini aniqlasalar, ular faqat vakolatlari bo'lgan hamda muayyan qoida buzarlikni bartaraf etish bilan bevosita bog'liq choralarnigina ko'rishlari mumkin. Davlat boshqaruven organlari yoki davlat hokimiyati mahalliy organlari qoida buzarlik mavjudligi faktidan chet ellik investoring boshqa qonuni faoliyatiga aralashish yoki faoliyati cheklab qo'yish uchun asos sifatida foydalanishi mumkin emas.

Ushbu modda xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan printsiplariga muvofiq belgilanadigan, O'zbekiston Respublikasining milliy xavfsizligi manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashga bevosita bog'liq bo'lgan qonun hujjatlarini yoki ularni bekor qilishga nisbatan tadbik etilmaydi.

Davlat boshqaruven organlari yoki davlat hokimiyati mahalliy organlari tomonidan chet ellik investorlarning huquqlarini kamshituvchi normativ hujjatlar qabul qilingan taqdirda, shuningdek ular chet ellik investorlarning xo'jalik faoliyatiga g'ayriqonuniy aralashgan hollarda yetkazilgan zarar shi organlar tomonidan sud tartibida qoplanadi. Chet ellik investorlar huqqularining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzgan davlat boshqaruven organlari yoki davlat hokimiyati mahalliy organlaring mansabdor shaxslari belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

#### **5.4. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalg qilish shakllari**

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati benihoya katta bo'lib, u quyidagilar bilan izohlanadi:

- birinchidan, xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo'ljalangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi;
- ikkinchidan, import o'rnnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'liga qo'yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotni ustuvor sohalariga yo'naltirish va pirovardida aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlash imkonini yaratadi;
- uchinchidan, kichik biznesni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o'sib botayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlash;
- to'rtinchidan, korxonalarni eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi;
- beshinchidan, tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalarni barpo etishga ko'maklashadi va hokazo.

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni yanada kengroq miqyosda jalg qilish, xorijiy investorlarni o'z mablag'larini mamlakat iqtisodiyoti uchun sarflashga qiziqtirish maqsadida qonun asosida ular uchun imtiyozli moliyaviy sharoitlar yaratilgan, jumladan:

- xorijiy investorlar kapitalini saqlanishi uchun kafolatlar;
- ko'rilgan zararlarni qoplanishi uchun kafolatlar;
- soliqqa tortish tizimida ularga oid belgilangan imtiyozlar;
- foyda va daromadlarni xorijga olib ketishning erkinligi;
- milliy so'mda va chet el valyutasida olingan foydalari o'ikazish va olib chiqiq b ketish imkoniyati;
- bojxona imtiyozlarining mavjudligi;
- xorijiy investorlarning mulklari va ularning e'zlarini xavf-xatarlardan sug'irtaviy muxofaza qilish tizimini yaratilganligi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda faoliyat ko'rsatuvchi xorijiy investitsiyalar ishtokidagi korxonalarga amaldagi soliqlar va bojxona yuzasidan qator yerilliklar, imtiyozlar belgilangan. Ushbu imtiyozlarning amal qilishi bevosita mamlakatimizda yuritilayotgan investitsiya siyosatining asosiy negizlaridan birini taskil etib, o'z ijobjiy samarasini bermoqda.

Xorijiy investitsiyalarni jalg etish tadbirlarini amalga oshirishda hukumat qidagi tamoyillarga asoslanadi:

- tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish sohasida aniq maqsadni ko'zlab, siyosat yuritish;
- respublika iqtisodiyotiga bevosita kapital mablag'ni keng jalb etishni ta'minlaydigan huquqiy ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni tobora takomillashtirish;
- respublikaga jahon darajasiga texnologiyani yetkazib berayotgan va iqtisodiyotni zamonaviy tarkibini vujudga keltirishga ko'maklashayotgan xorijiy investorlarga nisbatan ochiq eshkilar siyosatini yurgizish;
- mablag'ni respublika mustaqilligini ta'minlaydigan import o'mini qoplovchi va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan eng muhim ustuvor yo'nalishda jamlash.

**Respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni faollashtirish uchun quydagilarni amalga oshirish zarur:**

- investitsiya loyihalarini malakali ekspertlar nazoratidan o'tkazish va mukammal tayyorlanishiga erishish;
- qo'shma korxonalar va xorijiy investitsiya ishtirokidagi boshqa turdag'i tadbirkorlik faoliyatini ro'yxatdan o'tkazishdagi to'siqlarni butunlay olib tashlash.

**Mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni milliy korxonalarga jalb etishda quydagi ustuvor yo'nalishlarni belgilash maqsadga muvofiqdir;**

- qishloq xo'jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlash sohalarini rivojlantirish;
- mineral xom ashyo resurslarini, shu jumladan, neft va gazni qazib chiqarish, qayta ishlash bo'yicha ekologik ishlab chiqarishni tashkil etish;
- transport va telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish;
- qurilish materiallarini ishlab chaqarish sanoatini rivojlantirish;
- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ilm talab va jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish;
- turizm sohasini rivojlantirish, xalqaro va ichki turizmning zamonaviy infratuzilmasini yaratishga erishish.

**Xorijiy investorlar va korxonalar qonunchilikda ko'rsatilgan holatlarda yer uchastkalarini sotib olishlari mumkin. Xorijiy investorlar investitsiya faoliyatini amalga oshirishda quydagilarga rioya etish zarur:**

- O'zbekiston Respublikasi hududida amal qilayotgan qonunchilikka amal qilishi;
- O'zbekistonda mavjud qonunchilik talablari asosida soliq to'lash va boshqa to'lovlarini amalga oshirishi;
- Investitsiya loyihasining sanitariya-gigiyenik ekologiya talablariga amal qilishi;

qilish bo'limidagi ekspertiza xulosalarini olishi.

Jahon tajribasi va amaliyotida har bir mamlakatning o'z milliy iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha o'ziga xos tajriba va an'analari mavjud. Hozirda rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiyoti taraqqiy etishiga asos bo'lgan usullardan biri bu mamlakatda ma'lum bir hududni yoki butun bir kichik mamlakatlar o'z iqtisodiyotini erkin iqtisodiy makonga aylantirib rivojlanish sari qadam qo'yganlar.

Erkin iqtisodiy hududlarni asosan muayyan bir davlatning ma'lum bir mintaqasi yoki alohida bir hududida tashkil etish iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi. Ammo hududiy va ma'muriy boshqaruv tizimi uncha katta bo'limgan alohida davlatlarning butun iqtisodiyoti erkin iqtisodiy makonlarga aylantirilgan hollar ham uchrab turadi. Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etishdan asosiy maqsad qisqa muddatlarda mamlakatni rivojlangan jahon hamjamiyati a'zolari qatoriga qo'shish va xorijiy investitsiyalarni jalb etishni tezlashtirishdan iborat.

Erkin iqtisodiy hudud (EIH) – bu tadbirkorlik va boshqa xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanish uchun shart-sharoitlarni odatdagiga qaraganda qulayroq qilib o'rnatuvchi aniq belgilangan chegara va maxsus huquqiy rejim (tizim)dagи suveren mamlakatning ma'lum bir hududidir.

EIH – bu investitsiyalarni alohida mintaqalar va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, resurslarni kam chiqindili va chiqindisiz qayta ishlovchi yanada progressiv texnologialarni joriy qilish, xalqaro aloqa va hamkorlikka ta'sir o'tkazish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida soliqqa tortish, valyuta, bojxona va shu kabi boshqalarni tartibga solishdagi alohida tartib va shart-sharoitlar o'rnatadigan huquqiy normalar yig'indisidir.

EIH larni barpo qilinishi quyidagi masalalarni hal qilishni ko'zda tutadi:

- investitsiyalar, alohida hudud (mintaqa)lar va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar bilan ta'minlash;
- resurslarni tejovchi kam chiqimli yoki chiqimsiz yanada progressiv texnologialarni joriy qilish;
- xalqaro integratsiya va hamkorlikni yo'lga qo'yish.

Shu tariqa, EIHLar tashkil qilishning asosiy maqsadi muayyan mintaqalarning qulay sharoitlar bilan ta'minlash ekanligini ko'rishimiz mumkin.

EIHLar turli xil yo'naltirilganlikka ega, ammo eng ko'p tarqaganlari quyidagilar hisoblanadi.

Ushbu makonlarning tashkili va notmlanishi turlicha bo'lsada, ularni tashkil etishdan asosiy maqsad imkon qadar xorijiy investitsiyalarni,

zamonaviy texnika va texnologiyalarni jalg qilish hisobiga mavjud iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy muammolarni bartaraf etish va jahondagi rivojlangan davlatlar qatoridan o'rinn olish orqali aholi turmush darajasini yaxshilashdir.

Tarixiy manbalar dalolat berishicha, erkin bojxona va tovarlarning tranzit makonlari bundan bir necha asr oldin paydo bo'lgan bo'lib, ular davlatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishda keng qo'llanilgan. Masalan, Sharq va Yevropani bevosita savdo orqali bog'lab kelgan Buyuk Ipak Yo'llini bojxona va mahsulotlarni tranzit qilish erkin hududiga misol bo'la oladi.

Erkin iqtisodiy hududlarning qaror topishini tavsiflovchi belgilar orasida quyidagi omillar alohida o'rinn tutadi:

- investor uchun hududning iqtisodiy jug'rofiy holati juda qulay bo'lishi shart;

- kamida mintaqaviy ahamiyat kasb etuvchi magistral yo'llarning kesishgan joylari bo'lishi lozim;

- dengiz va daryo portlariga yaqin bo'lislari kerak;

- aeroportlar xalqaro maqom olgan bo'lislari lozim.

Dunyo tajribasida har bir hududning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, bir nechga ko'rinishdagi erkin iqtisodiy hududlar mavjud bo'lib, ularning tarkibi quyidagilardan iborat:

- Erkin savdo makonlari.* Ushbu makonning o'ziga xos belgilari shundan iboratki, ular kamida mintaqaga ahamiyatiga ega bo'lgan magistral yo'llar kesishgan joylarda, shu jumladan, dengiz va daryo bandargohi yonidagi portlar hududida tashkil etiladi. Ularda bojxona to'lovlari va tranzit yig'imlari minimal darajada bo'lishi shart.

- Ishlab chiqarish sanoat makonlari.* Mazkur makonni tashkil etishdan asosiy maqsad xorijiy bozorlarga tayyor mahsulotlarni eksport qilish bo'lib, davlatning iqtisodiy salohiyatini tayyor mahsulotlar orqali reklama va targ'ibot qilishdir. Natijada, mamlakatga chet el investorlarining qo'shimcha sarf-xarajatlarsiz kirib kelishi uchun ruhiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

- Ilmiy-tehnikaviy va ilmyi ixtiro makonlari.* Ushbu makonlar tarkibiga tashqi bozorni kompyuter va boshqa hisoblash texnikalari orqali zabit etish maqsadida mavjud texnologik parklar zamirida tashkil etilgan «Texnopolis» makonlari kiradi.

- Xizmat ko'rsatish (servis) makonlari.* Ushbu makon shaklining o'ziga xosligi shundan iboratki, unda turli ko'rinishdagi moliya bank markazlari, sug'urta bozorlari va fond birjalari tashkil etiladi. Bundan asosiy maqsad moliya

bank xizmatidan keng imtiyozlar berish hisobiga yuqori salohiyatga ega xorijiy investorlarning likvidli kapitallarini jalg qilishdir.

2009-yil 11-mart kuni Navoyi shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Qonunchilik palatasi Byudjet va iqtisodiy islohotlar qo'mitasining Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi hamda Navoiy viloyati hokimligi bilan hamkorlikda «Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etishning huquqiy asoslari» mavzusiga bag'ishlangan seminar bo'lib o'tdi. Seminarda deputatlar, senatorlar, Navoiy viloyati faollari hamda manfaatdor vazirlik, idoralarning rahbarlari va mutaxassislar ishtirok etdilar. Seminarda Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etishning huquqiy asoslari hamda ularning ijrosini ta'minlash borasida olib borilayotgan tashkiliy chora-tadbirlar xususida fikr almashildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 2-dekabrdagi «Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida»gi farmonining mazmun-mohiyati hamda uni bajarish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar anjuman ishtirokchilarining diqqat markazida bo'ldi. Ushbu Farmonda erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad – Jahan standartlariga mos, tashqi bozorlarda raqobatbardosh va haridorgir mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan, zamona viy, ilg'or va yuqori unumli texnologiyalarni tashkil etish va joriy qilish uchun xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalg etish bo'yicha qulay shart - sharoitlar yaratish, transport-tranzit va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish, innovatsiya texnologiyalarini joriy etish hisobiga yuqori texnologiyali, jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlarni keng ko'lamda ishlab chiqarishdan iborat etib belgilanganligi e'tirof etildi. Shu bilan birga Farmonda belgilangan erkin zona faoliyati davomida uning hududida alohida bojxona, valyuta va soliq rejimlari, O'zbekiston Respublikasi norezident fuqarolarining uning hududiga kirish, hududda bo'lish va chiqib ketishning, shuningdek, ular tomonidan mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ruxsatnomalar olishning soddalashtirilgan tartibini joriy etilishi masalalari bo'yicha fikr almashildi.

O'zbekistonning iqtisodiy salohiyatini namoyon etishda ulkan sanoat markazi hisoblangan Navoiy viloyatining munosib xissasi bor. Viloyatda har yili oltin, paxta xom ashyosi, bug'doy, qorako'l teri, kimoviy o'g'itlar, sement, uran, volfram, fosforit, sun'iy tola va boshqa xalq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarilayotganligi va Yevropa hamda Markaziy Osiyo mamlakatlariiga eksport qilinayotganligi mustaqil mamlakatimizning cheksiz imkoniyatlaridan bir qismidir.

Bundan tashqari, muhim noruda xom ashyolaridan hisoblangan kvarts konlari, kimyo sanoatida keng foydalilanligan bentonit tuproqlari, keramika, olovga bardoshli kaolinli xom ashyolar, bugungi kunda nafaqat mustaqil diyorimizda foydalilanayotgan, balki xorij davlatlariga eksport qilinadigan marmar va granit konlari, vollostinit, slanets, feruza, tuz, ohaktosh, tabiiy pigmentlar va boshqa o'nlab turdag'i zaxiralar mavjud. Müruntov, Dauvgiztog', Kukpatas, Amontovtug' kabi oltin va fosforit konlari Qizilqum kengliklarining ma'danga boy diyor ekanligini ko'rsatib turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 2 dekabrdagi «Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni aynan ana shu voha zaminining bitmas-tuganmas tabiiy boyliklarini nazarda tutib, jahon standartlariga mos, tashqi bozorlarda raqobatbardosh va xaridorgir mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan, zamona viy va yuqori unumli texnologiyalarni jori qilish uchun xorijiy investitsiyalarni to'g'ridan - to'g'ri jalb etish bo'yicha qulay shart-sharoitlar yaratish, transport - tranzit va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish hamda pulli xizmat va servis sohasini rivojlantirishdan iborat bo'lgan ulkan maqsadni ko'zlab qabul qilingan muhim va tarixiy hujjatdir.

Xalqaro tajribada erkin iqtisodiy zonalar tashkil qilishdan nafaqat sarmoyalarni jalb etish usuli, balki hududiy iqtisodiy siosat vositasi sifatida foydalilanadi. Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanayotgan mamlakatlar qoida tariqasida erkin iqtisodiy zonalarni tashkil qilishdan sarmoyalarni jalb qilish maqsadida foydalansa, rivojlangan davlatlar rivojlanishi past bo'lgan hududlarni rag'batlantirish va ularning iqtisodiy darajasini bir xillashtirish muammolarini hal qilish uchun foydalananadilar.

Navoyi aeroporti Xalqaro aeroport maqomini olib, logistika markazi y tashkil etildi. Hozirning o'zida Koreya, Malaziya, Birlashgan Arab Amirliklari davlatlari tadbirkorlari investitsiya kiritish istagini bildirmoqda.

Erkin sanoat-iqtisodiy hududning ishlab chiqarish imkoniyatlari nihoyatda keng, ya'ni, mashinasozlik, elektrotexnika, farmatsevtika, telekommunikatsiya, qurilish, kimyo sanoati, plastik mahsulotlar, tayyor kiyimlar, terini qayta ishlash, oziq-ovqat sanoati, mebel, parfumeriya sanoatini rivojlantirishga to'la imkoniyat bor. Investorlarni tanlashda esa kerakli va zarur eksportbop mahsulotlarni, shuningdek, ekologik toza hudud talablariga mos ishlab chiqarish inshootlariga alohida e'tibor qaratiladi.

## Nazorat savollari

1. Xorijiy investitsiyalarning mazmuni va mohiyati.
2. Mamlakat investitsiya siyosatini amalga oshirishda xorijiy investitsiyalarning roli.
3. Xorijiy investitsiyalarni shakllari va tavsifi.
4. Xorijiy investitsiyalarni jaib etishning jahon amaliyoti va tajribalari.
5. Mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar jaib qilish muammolari va istiqbollari.
6. Investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirishda davlatning roli.
7. Xorijiy investitsiyalarni moliyalashtirishda lizing.
8. Investitsiya faoliyatini rivojlantirishda investitsiya muhiti va unga ta'sir etuvchi omillar.
9. Investitsiya siyosatini asosiy yo'nalishlari.
10. Investitsiya risklari va uning investitsiya faoliyatidagi o'ziga xos xususiyatlari.
11. Investitsiya faoliyatini tartibga solish va boshqarishning xorij tajribalari.
12. Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etishning investitsiya faoliyatini rivojlanishiga ta'siri.

## **VI-BOB. INVESTITSIYA FAOLIYATIDA KAPITAL QURILISH VA KREDITLASH**

### **6.1. Kapital qurilish va kapital qo'yilmalar**

Pudrat savdolarini tashkil etish boshqarmalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 28 fevraldag'i 114-soni qaroriga asosan tashkil etilgan bo'lib, boshqarmning asosiy faoliyati o'zaro bozor munosabatlarini joriy etishni jadallashtirish, bir-biriga yaqin korxonalar birlashuviga ko'maklashish, ular tomonidan kelishilgan ravishda investitsion siyosat olib borish, boshqarma joylashgan hududda kapital qurilish sohasida pudrat savdolari (tenderlar)ni tashkil etuvchi va o'tkazuvchi tuzilmalar tashkil etish, Respublika hududida va undan tashqarida joylashgan hududiy va jismoniy shaxslar uchun tanlovlardan tashkil etish yo'li bilan ularni qurilish sohasidagi pudrat ishlariiga jaib etish uchun shart-sharoit yaratish hisoblanadi.

Pudrat savdolarini tashkil etish boshqarmalari o'z zimmasiga yuklatilgan masalalarga muvofiq quyidagi vazifalarni bajaradi:

- hududida kapital qurilish sohasida tanlovlardan va pudrat savdolarini tashkil etish, davlat korxonalarini, aksiyadorlik jamiyatlarini va boshqa xususiy va jismoniy shaxslar uchun O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lish-bo'imasligidan qat'iy nazar, hamda tanlov asosida jixozlarni, alohida turdag'i mahsulot va xom ashyo yetkazib beruvchilarni tanlab olish;
- O'zbekistonda qurilish xizmatlari bozorini tashkil etish;
- kapital qurilish sohasida tenderlar o'tkazish va raqobatni boshqarish yo'li bilan bozor munosabatlarini tashkil etish va shart-sharoitlar yaratish;
- hududiy va jismoniy shaxslarga, hamda chet el investorlariga qurilish jarayonida to'g'ridan-to'g'ri ishtiroy etish uchun keng yo'l ochib berish;
- respublika boshqarmasining ishonchli shaxsiy yoki vositachisi sifatida ish yuritadi;
- savdolarni e'lon qilish uchun hujjatlarni tayyorlaydi, e'lonlashti matbuotda chop etilishini ta'minlaydi yoki ularni tarqatadi;
- tender bo'yicha takliflarni yig'adi va tahlil qiladi.

Pudrat savdolari (tenderlar)ni tashkil etish va o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga asosan ish yuritgan holda, O'zbekiston Respublikasi hududida kapital qurilishda tanlov savdolari markazlashtirilgan manbalar, davlat boshqaruvi organlari va davlat korxonalarini mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan kapital qurilish bilan bog'liq tovarlar,

ishlar va xizmatlar xaridi faqat tanlov savdolari natijalari bo'yicha amalga oshiriladi.

Respublikamizda kapital qurilish bilan bog'liq tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilishda tanlov savdolari majburiy o'tkazilishi uchun buyurtmachilar, tanlov savdolarini o'tkazishning belgilangan tartibiga rivoja qilinishi uchun esa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda tanlov savdolari tashkilotchilari javob beradilar.

Ob'yektni qurib bitkazish pudratchining loyihada nazarda tutilgan ishlarning butun hajmini, shu jumladan maxsus va ishga tushirish sozlash ishlarini bajarish, ob'yektni texnologiya va muxandislik asbob-uskunalarini bilan buffash bo'yicha majburiyatlarini nazarda tutadi hamda tayyor qurilish mahsuloti yaratishning yagona uzuksiz kompleks jarayoni sifatida amalga oshiriladi:

Ob'yektlarni foydalanishga tayyor holda qurishda buyurtmachi va pudratchi qatnashchilar hisoblanadi. Ob'yektni foydalanishga tayyor holda topshirish markazlashtirilgan manbalar hisobiga amalga oshiriladigan yangi qurilishda, ishlab turgan korxonani kengaytirish, rekonstruksiya qilish va texnika bilan jihozlashda majburiy hisoblanadi.

Loyihalarni boshqa manbalar hisobiga amalga oshirishda ob'yektlarni foydalanishga tayyor holda topshirish tomonlarning kelishuvi bo'yicha yoki tanlov savdolari shartlariga qarab qo'llanilishi mumkin.

Foydalanishga tayyor holda topshirish shartnomasi bo'yicha majburiyatlarini bajarish uchun pudratchi subpudratchi tashkilotlarni jaib etishi mumkin, ularga nisbatan pudratchi bosh pudratchi hisoblanadi.

Qurilishni qurish-montaj ishlarini bajarish uchun zarur bo'lgan materiallar, konstruksiyalar va buyumlar bilan, shuningdek barcha namunaviy asbob-uskunalar va apparatlar, nostonartlashtirilgan, texnologik va energetika asbob-uskunalarini bilan, shu jumladan maxsus materiallar bilan ta'minlash pudratchining vazifikasi hisoblanadi.

Pudratchi shartnomada belgilangan kafolatli davrda ob'yektdan loyihada nazarda tutilgan parametrlarda foydalilanishi uchun buyurtmachi oldida mulkiy javob beradi.

Hozirgi kunda Respublikamiz Pudrat savdolari (tenderlar)ni tashkil etish boshqarmalarida tanlov savdolari ikki yo'naliishda olib boriladi, bular:

- ochiq tanlov savdolari - oferentalar soni cheklanmaydi;
- yopiq tanlov savdolari - oferentalar soni cheklanadi.

Yopiq tanlov savdolari o'tkazish to'g'risidagi qaror Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilindi.

Ochik, yoki yopiq tanlov savdolari talabgorning malakasini oldindan

aniqlangan holda yoki aniqlanmasdan, yoxud ikki bosqichli o'tkazilishi ham mumkin.

Tanlov savdolarining birinchi turida talabgorning malakasini oldindan aniqlab olinadi va ikkinchi turda esa tanlov savdolarining g'olibi aniqlanadi.

Talabgorning malakasi oldindan aniqlanadigan ochiq yoki yopiq tanlov savdolari o'tkazishda talabgorlarning umumiyl ro'yxati tuziladi, talabgorning malakasi oldindan aniqlanadi va malakasi oldindan aniqlangan talabgorlar o'rtasida tanlov savdolari o'tkaziladi.

Ikki bosqichli tanlov savdolari, buyurtmachi tanlov savdolari predmetining aniq tafsifini va o'ziga xosligini shakkantirish imkoniyatiga ega bo'lman, shartnomada ishlarni ularning rentabelligini ta'minlash uchun yetarli bo'lgan yoki tadqiq etish yoki ishlab chiqishga sarflangan harajatlar qoplanishini ta'minlaydigan hajmlarda bajarish nazarda tutilgan hollardan tashqari, buyurtmachi ilmiy tadqiqotlar, eksperimentlar o'tkazishga, qidiruvlar yoki ishlanmalar yuzasidan shartnomaga tuzish niyatida bo'lgan hollarda o'tkaziladi.

Ikki bosqichli tanlov savdolari quyidagi tartibda o'tkaziladi:

-*birinchi bosqichda*, konseptual qaror va texnik, tijorat jihatidan aniqlanishi va tuzatilishi kerak bo'lgan, tanlov hujjatlarida ko'rsatilgan shartlar asosida ishlab chiqilgan oferta baholari ko'rsatilmagan holda taqdim etiladi. Tanlov savdolari predmeti parametrlari bo'yicha oferent bilan muzoqaralar olib borilishiga yo'l qo'yiladi. Ofertalarning umumiyl sonidan, tanlov savdolarining ikkinchi bosqichida qatnashishga yo'l qo'yiladigan ofertalar tanlab olinadi;

-*ikkinchi bosqichda*, tanlov savdolari predmetining aniqlashtirilgan parametrlari hisobga olingan, bahosi majburiy tartibda ko'rsatilgan holda ofertalari tanlov savdolarining ikkinchi bosqichiga o'tgan qatnashchilarining takliflari va buyurtma nomalari berilgan holda tanlov hujjatlariga tuzatish kiritiladi.

Tanlov savdolari predmeti xaridining umumiyl qiymati 25 ming AQSh dollariga teng summani tashkil etган hollarda ular:

- xarid qilinadigan tovar, ishlar va xizmatlarning tafsisi, miqdori, bajarish muddatlari va tovarmi yetkazib berish punkti ko'rsatilgan holdagi takliflarni talabgorlarga yuborish;

- yetkazib beruvchi yoki pudratchi tomonidan e'lon qilingan baho va tasniflarni taqqoslash yo'li bilan erkin savdoda amalga oshirilishi mumkin.

Erkin savdoda xarid qilishda takliflarning yetkazib beruvchi yoki pudratchi tomonidan aloqa kanallari orqali yozma shaklda taqdim etilishiga yo'l qo'iladi.

Erkin savdoda xarid qilishda yetkazib beruvchi yoki pudratchini tanlash baholash komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Baholash komissiyasi buyurtmachi tomonidan kamida besh nafari vakolatli mutaxassisidan iborat tarkibda tayinlanadi. Baholash komissiyasining qarori protokol bilan rasmiylashtiriladi.

Tanlov hujjatlarining tijorat qismi ishlar (xizmatlar)ni bajarish va yoki tovari yetkazib berish shartlaridan, mablag' bilan ta'minlash manbalari va shartlaridan, tanlov savdolari predmetini sotish muddatidan, shartnomalaridan iborat bo'ladi.

Buyurtmachi tomonidan e'lon qilingan narx bilan tanlov savdolari o'tkazilishi to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda tanlov savdolari predmetining boshlang'ich narxi e'lon va taklifnomada ko'rsatiladi. Bunda tanlov savdolari predmetining boshlang'ich narxini pasaytirish yuzasidan o'tkaziladi.

Ofertalarni taqdim etish tartibi tanlov hujjatlarida belgilanadi.

Taqdim etilayotgan oferta tanlov hujjatlarini shartlari va talablariga muvofiq bo'lishi kerak.

Respublikamizda xorijiy pudrat tashkilotlari tomonidon amalga oshiriladigan va erkin muomaladagi valyutada haq to'lanadigan xorijiy kreditlar va grantlar hisobiga moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda, agar xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan tuzilgan kredit shartnomalarida o'zgacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, tanlov hujjatlariga ishlar (xizmatlar) qiymatining kamida 50 foizi miqdorida ishlar (xizmatlar)ni bajarish uchun O'zbekiston Respublikasining xo'jalik yurituvchi sub'yektlari rezidentlari ishtiroy etishi shartlari kiritiladi.

Ofertalarni taqdim etish muddati tugagungacha tanlov savdolar tashkilotchisi tanlov hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga haqlidir, tashkilotchi ular to'g'risida tanlov hujjatlarini olgan talabgorlarga darhol xabar qilishi, ofertalarni taqdim etish muddatini ofertaga tuzatish kiritish uchun yetarli bo'lgan vaqt uzatirishi kerak.

Tanlov hujjatlarini ular uchun to'lov to'langandan keyin taqdim etiladi.

To'lov miqdori buyurtmachi va yoki tanlov savdolari tashkilotchisi tomonidan, tanlov hujjatlarini ko'paytirish va tarqatish qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Tanlov savdolarining asosiy qatnashchilari va yoki talabgorlar o'rtaida xabarlar, bildirishnomalar va boshqa axborotlarni almashish tanlov hujjatlar tarkibida tasdiqlangan shakl bo'yicha yozma ravishda amalga oshiriladi.

Ofertaning amal qilish muddati tanlov hujjatlarida belgilanadi.

Oferta uni taqdim etishning oxirgi kuni va vaqtin tugagungacha qaytarib olinishi mumkin.

Talabgorning imzosi va muhri qo'yilgan oferta savdolar tashkilotchisiga

konvertga solib yelimlangan holda jo'natiladi.


Tanlov savdolarida belgilangan narx qat'iy narx hisoblanadi. Birinchi moliyaviy yil mobaynida narxlarga hamda tovarlar, ishlar va xizmatlar xarid qilish yuzasidan shartnomani bajarish muddatiga tuzatishlar kiritishga yo'i qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Ikkinci yil va undan keyingi yillar uchun shartnomma narxlariiga tuzatishlar kiritish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Tanlov savdolari g'olib qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ob'yeqt qurilishining sug'urta qilinishini ta'minlaydi.

Tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish, tanlov hujjatlarini ishlab chiqish bilan bog'liq xarajatlar shartnomma asosida amalga oshiriladi. Tanlov savdolari predmetini sotishning maqsadga muvofiq emasligi sababli bekor qilingan taqdirda ularni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar amaldagi xarajatlar bo'yicha buyurtmachi tomonidan qoplanadi.

Yuqorida qayd etilgan fikr va mulohazalar asosida pudrat savdolarini tashkil etish boshqarmalarining bosh maqsadi pudrat ishlari (tender savdosi xizmatlari) bozorlarini erkin raqobat muhitini shakllantirish asosida yaratishdan iborat.



6.1-rasm. Boshqarmalarning asosiy faoliyat tur'lari

Bu ishlarga byudjetdan sarflanayotgan mablag'larning maqsadli va to'g'ri sarflanishi ustidan nazorat esa albatta viloyat nazorat-tafish boshqarmasi zimmasiga yuklatilgan.

Qurilish sohasi o'zining bir qancha xususiyatlari bilan beshqa sohalardan ajralib turadi. Bu esa tekshirish jarayoni uchun qurilish sohasi mutaxassisini ham qatnashishini talab qiladi.

Hozirgi kunda bu sohani tekshirish uchun boshqa tashkilotlardan mutaxassischaqirilib olinadi. Bu esa o'z navbatida bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi.

Nazorat taftish boshqarmalari taftish va tekshirishlar mobaynida xo'jalik sub'yektidagi korxonalar, kichik korxonalar hamda bozirgi kunda faoliyat ko'rsatuvchi byudjet muassasalariga kapital hamda joriy ta'mirlash xarajatlari uchun byudjet parametrlarida ko'zda tutilib, ajratilayotgan mablag'larni maqsadli va samarali foydalanishini sifatlari nazorat qilish uchun rasmiylashtirilgan 2-shakl dalolatnomalarini amaldagi qo'llanmalarga mos ravishda bajarilganligini tekshirish uchun hududlar nazorat taftish boshqarmalariga qo'shimcha o'rin birliliklari ajratilishi maqsadga muvofiqligini bildiramiz.

## 6.2. Kapital qurillishda tanlovni tashkil etish

Foydalanishga tayyor holda qurishda ob'yektni mablag' bilan ta'minlash, mablag' bilan ta'minlash jadvaliga muvofiq buyurtmachining avansi (30 foizgacha), joriy mablag' bilan ta'minlash (avans berish hisobga olingan holda 50 foizgacha), pudratchining o'z mablag'lari va bankning kreditlari hisobiga amalga oshiriladi.

Pudratchi bilan uzil-kesil hisob-kitob qilish buyurtmachi tomonidan qurilish tamom bo'lgandan va ob'yekt foydalanishga topshirilganidan, shu jumladan, kredit olish va ular bo'yicha pudrat qurilish tashkilotlari tomonidan foizlar to'lash bilan bog'liq xarajatlар qoplangandan keyin amalga oshiriladi.

Ob'yektlarni foydalanishga tayyor holda qurishda tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari ob'yekt foydalanishga topshirilgunga qadar pudratchining balansida bo'ladi va uning soliq solinadigan bazasiga kiritilmaydi.

Belgilangan tartibda tasdiqlangan qurilishlarning aniq mo'ljalli ro'yxati kapital qo'yilmalarning tasdiqlangan limitiga muvofiq ob'yektlar qurilishining aniq ro'yxatida nazarda tutilgan qurilish uchun banklarning kreditlarini jaib etishda pudratchi uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ajratilgan mablag'lardan buyurtmachi tomonidan qurilishlarning titul ro'yxatidagi nazarda tutilmagan maqsadlarda foydalanilishiga yo'l qo'ilmadidi.

Mablag' bilan ta'minlashni ochish uchun buyurtmachi tomonidan xizmat ko'rsatuvchi bankka quyidagilar taqdim etiladi:

- qurilishlarning aniq mo'ljalli ro'yxati (loyixa-qidiruv ishlaringning aniq ro'yxati);
  - qurilishning titul ro'yxati;
  - buyurtmachi bilan pudratchi o'rtasida tuzilgan shartnoma nusxasi;
  - pudrat tashkilotining qurilish tavakkalchiliklarini sug'ortalash yuzasidan shartnasi nusxasi;
  - qurilish-montaj ishlarini bajarishga "Davarxitektqurilish" qo'mitasining

ruxsati.

Tasdiqlanadigan limitlar doirasida alohida ob'yektlarni mablag' bilan ta'minlash yirik va strategik jihatdan muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan tasdiqlangan alohida sxemalar bo'yicha amalga oshirilishi mumkin.

Tasdiqlangan investitsiya dasturi bo'yicha kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish limitining (avans to'langandan va 50 foizgacha miqdorda joriy moliyalashtirilgandan keyin) qolgan qismi tasdiqlangan limitlar doirasida markazlashtirilgan manbalar hisobiga aniq mo'ljalli qurilishlar ro'yxatlarga kiritilgan ob'yektlarda ishlaydigan pudrat tashkilotlarini kreditlash uchun kredit resurslari hoslil qilish manbai sifatida vaqtinchalik asosida, xizmat ko'rsatuvchi banklarga beriladi.

Mablag' bilan ta'minlovchi organiga buyurtmachi tomonidan quyidagilar taqdim etiladi:

- qurilishlarning aniq mo'ljalli ro'yxati (loyiha-qidiruv ishlarining aniq mo'ljalli ro'yxati);

- qurilishning titul ro'yxati;

- buyurtmachi bilan pudratchi o'ttasida tuzilgan shartnoma nusxasi;

- qurilish tavakkalchiliklarini sug'ortalash yuzasidan pudrat tashkiloti tomonidan tuzilgan shartnoma nusxasi va tanlov savdolari natijalari to'g'risida buyurtmachining hisoboti;

- har qaysi investitsiya loyixasini amalga oshirish uchun ochilgan moliyalashtirishning har bir hisob raqami bo'yicha bank rekvizitlari to'g'risidagi ma'lumotlar.

Mablag' bilan ta'minlovchi organ buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar asosida ushbu Nizomda nazarda tutilgan tartibda investitsiya loyixasini mablag' bilan ta'minlashni amalga oshiradi.

Xizmat ko'rsatuvchi bank bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun buyurtmachaiga har qaysi qurilish ob'yekti bo'yicha "talab qilib olinadigan" alohida ikkilamchi depozit hisob raqamlari (keyingi o'rnlarda moliyalashtirish hisob raqamlari deb aytildi) ochiladi. Moliyalashtirish hisob raqamlaridan buyurtmachi ta'minoti bo'yicha xarajatlarga mablag' to'lanishiga yo'l qo'yilmadi.

Buyurtmachi ta'minotiga xarajatlar har oyda, alohida depozit hisob raqamidan belgilangan tartibda tasdiqlangan va moliyalashtiruvchi organlar tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Pudrat tashkilotlarning tanlov savdolarida ishtirokini ta'minlash uchun tijorat banklari tomonidan, agar ularning o'z aylanma mablag'lari ob'yekt bo'yicha ishlar qiymatining 20 foizidan kamni tashkil etgan taqdirda, qurilish davomida aylanma mablag'larning yetishmayotgan qismini belgilangan miqdorgacha to'ldirish uchun kredit ajratish to'g'risida kafillik berilishi mumkin.

Tanlov savdolari pudrat tashkiloti tomonidan yutib chiqilgan taqdirda unga kafolat bergan tijorat banklari ushbu tashkilotlarga qurilishning butun davrida ularni aylanma mablag'lar bilan ta'minlash maqsadida ob'yekekti ishga tushirish bo'yicha shartnoma majburiyatlarini bajarish uchun ob'yekt qiymatining 20 foizigacha bo'lgan miqdorda qonun hujjatlari belgilangan tartibda kredit beradi.

Pudrat tashkilotiga kredit berish uchun bank tomonidan buyurtmachini moliyalashtirish hisob raqamiga xizmat ko'rsatuvchi bankning ma'lumotnomasi asosida qurilishning har bir ob'yekti alohida ssuda hisob raqami ochiladi.

Kredit va foiz stavkalari miqdorlari, kreditni qaytarish va u bo'yicha foizlar to'lash muddatlari va tartibi bank bilan pudrat tashkiloti o'ttasida tuzilgan kredit shartnomasida belgilanadi.

Xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan moliyalashtirish hisob raqamidan pul mablag'larini o'tkazish buyurtmachi tomonidan to'lov topshirig'i taqdim etilgandan keyingi kun boshlanishidan kechikmay amalga oshiriladi.

Hizmat ko'rsatuvchi bank qonun hujjatlari muvofiq mablag'lar o'z vaqtida o'tkazilishi uchun javob beradi.

Buyurtmachi to'lov topshiriqlari qurilishning titul ro'yxatiga qat'iy muvofiq bo'lishi uchun javob beradi.

To'loy topshiriqnomasiga bajarilgan ishlar qiymati to'g'risidagi "ma'lumotnoma - schot-faktura" ilova qilinadi.

Ob'yekekti foydalanimishga tayyor holda qurishda joriy mablag' bilan ta'minlash ishlarni bajarish va mablag' bilan ta'minlash jadvallariga muvofiq amalga oshiriladi.

Avans to'lovi pudrat tashkilotining xizmat ko'rsatuvchi bankdag'i talab qilib olinadigan depozit hisob raqamiga o'tkaziladi.

Moliyalashtirish hisob raqamidan qurilishning titul ro'yxatiga va unda ko'rsatilgan kapital qo'yilmalardan foydalanimish yo'naliishlariga muvofiq bo'limgan to'lovlarini amalga oshirish taqiqilanadi.

Joriy mablag' bilan ta'minlash mablag' bilan ta'minlovchi organ tomonidan amalda bajarilgan qurilish ishlari hajmi hisobga olingan holda har oyda 20-kundan kechikmay amalga oshiriladi.

## 6.1-jadval


### Markazlashtirilgan manbalar hisobiga amalga oshiriladigan kapital qurilishni moliyalashtirish va kreditlash jadvali.

Bosqichlar	Tadbirlar	Muddatlar	Mas'ullar
1-bosqich	Tasdiqlangan investitsiya dasturiga muvofiq buyurtmachilar qurilishlarning aniq va titub ro'yxatlari, kelgusi yillar loyihalash ishlaringin aniq ro'yxatlarni belgilangan tartibda kelishib oladilar va tasdiqlaydilar	10 - yanvargacha	Buyurtmachilar, pudratchilar
2-bosqich	Xizmat ko'rsatuvchi bankda moliyalashtirish boshlanadi	Yanvar oyida	Buyurtmachilar, xizmat ko'rsatuvchi banklar
3-bosqich	Yilning dastlabki ikki oyida teng ulushlarda ishlar qiymatining 30 foizigacha miqdorda avans ajratiladi	yanvar-fevral oyлari	Moliyalashtiruvch i organlar, buyurtmachilar, xizmat ko'rsatuvchi banklar
4-bosqich	Ob'yekti moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvallariga muvofiq berilgan avans hisobga olingan holda ob'yekti qiymatining 50 foiziga miqdorda joriy moliyalashtiriladi	Moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvallariga muvofiq	Moliyalashtiruvch i organlar, buyurtmachilar, xizmat ko'rsatuvchi banklar
5-bosqich	Pudratchi tomonidan qurilish ob'yekti qiymatining qolgan 50 foizini moliyalashtirish uchun xizmat ko'rsatuvchi bankda rasmiylashtiriladi	moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvallariga muvofiq	Pudratchilar, xizmat ko'rsatuvchi banklar
6-bosqich	Qurilish ob'yekti qiymatining 45 foizi miqdorida haq to'lanadi	Ob'yekti qabul qilingan kundan boshlab bir oy mobaynida	Moliyalashtiruvchi organlar, buyurtmachilar, xizmat ko'rsatuvchi banklar
7-bosqich	Qurilish ob'yekti qiymatining 5 foizi miqdorida haq to'lanadi	Kafolatli muddat tugagandan keyin	Moliyalashtiruvch i organlar, buyurtmachilar, xizmat ko'rsatuvchi banklar

Bizning fikrimizcha, agar bu o'rın birliklari joriy qilinsa, davlatimiz byudjetidan sarflanayotgan mablag'larning yanada samaradorligini oshirishga o'z xissasini qo'shgan bo'lar edi.

Bundan tashqari qurilish ob'yekti moliyalashtirishni bizning fikrimizcha bosqichlarini bir qancha bosqichlarga kamatirilgani yanada maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Hozirgi kundagi kapital qurilish ishlarni moliyalashtirish va bu mablag'larning to'g'ri sarflanishi ustidan davlat nazorati ishlarni quyidagi sxema orqali tasvirlash mumkin.



**6.2-rasm. Respublikamizda qurilish ishlarni moliyalashtirish va bu mablag'larning to'g'ri sarflanishi ustidan davlat nazorati**

### **6.3. Investitsiya faoliyatini kreditlashning ob'yektiv zarurligi**

Mamlakatimizda tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida bank tizimining o'rni alohidadir. Markaziy bank mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillardanoq, xususiy tadbirkorlarga bank xizmati ko'rsatish, ularga bank kreditlari berishning soddalashtirilgan tartib-qoidalari amaliyotini joriy etishni boshlagan edi. Markaziy bank o'zining bu boradagi siyosatini

takomillashtira borib, 2000 yil fevral oyida yakka tartibdag'i tadbirkorlar va kichik biznes sub'yeqtlariga tijorat banklari tomonidan mikrokreditlar berish tartiblari to'g'risidagi Nizomlarini amalga kiritdi. 2006 yil sentabr oyida esa O'zbekiston Respublikasining "Mikromoliyalash to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinib Respublikamizda faoliyat ko'rsatuvchi har qanday mulkchilik shaklidan qat'iy nazar tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi xo'jalik sub'yeqtlarini tijorat banklari tomonidan mikromoliyalash tartiblariga asos solindi.

O'zbekistan Respublikasi Prezidentining «Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloq qilish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risidagi 2000 yil 21 martdag'i farmoni talablaridan kelib chiqqan holda, tijorat banklarida ishlab chiqarish mikrofirmalari, xususiy tadbirkorlar, dehqon va fermer xo'jaliklarining yuqori texnologik hamda innovatsion loihalarini kreditlash maqsadida mamlakatimizda amal qilayotgan barcha tijorat banklari Maxsus imtiyozli kreditlash jamg'armasi tashkil etildi.

Vazirlar Mahkamasining «Tijorat banklarining kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda qatnashishini rag'batlatirishga doir qushimcha chora-tadbirlari to'g'risidagi 2000 yil 19 maydag'i 195-sonli Qarori bilan Maxsus imtiyozli kreditlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan kreditlash tartibi tasdiqlandi. Mazkur qarorda ushbu jamg'arma mablag'lari hisobidan beriladigan kreditlar uchun hisoblanadigan foizlar miqdori Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasining 50 foizi hajmida belgilangan.

Ushbu mablag'lar tijorat banklari tomonidan Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasining 50 foizidan yuqori bulmagam foizlarda tulaligicha investitsiya loihalarini moliyalashga yunaltiriladi. Bu esa tadbirkorlarning uz faoliyatlarini boshlash va rivojlantirishlari uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kichik korxonalar, dehqon va fermer xo'jaliklarini mablag' bilan taminlash, ularga bojxona imtiyozlari berish, bank xizmatlari va boshqa xizmatlar ko'rsatish bo'yicha qushimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi 2001 yil 10 sentabrdagi 366-sonli Qarorida tadbirkorlik faoliyatini endigina boshlayotgan yuridik shaxs maqomini olib faoliyat ko'rsatayotgan dehqon xo'jaliklari, mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklariga Dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan tijorat banklari orqali dastlabki (boshlyangich) sarmoyani shakllantirishga kreditlar berilishi belgilandi. Bu tadbir uz faoliyatini boshlash uchun dastlabki mablag'ga ega bo'lmagan tadbirkorlarga amaliy yordam berishni o'liga qo'yish maqsadida joriy etildi.

Ushbu tartiblar amaliyotga kiritilganidan keyin yuridik shaxs maqomini olmasdan faoliyat ko'rsatayotgan yakka tartibdag'i tadbirkorlar va dehqon

xo'jaliklari tijorat banklaridan mikrokredit olish uchun faqatgina 2 ta xujjat, yuridik shaxs maqomini olib faoliyat ko'rsataotgan fermer xo'jaliklari va kichik biznesning boshqa sube'ktlari esa 3 ta xujjat taqdim etishlari kifoya qiladigan bo'ldi.

Kredit olish uchun tadbirkorda garovga qo'iladigan mulk yoki uning boshqa turlari mavjud bo'lмаган holda, ta'minot sifatida tadbirkor yashaotgan mahalla qumitasining kafilligini taqdim etish amaliotga joriy etildi. Shuningdek, tadbirkorlar tomonidan mazkur kredit hisobiga sotib olinayotgan uskunalar va mulklar ular qiymatining 80 foizi miqdorida mazkur kredit taminoti uchun garov sifatida olinishi mumkinligi belgilab qo'yildi.

Bundan tashqari, tadbirkorlarning kredit ajratishni surab tijorat banklariga yozgan arizalarining banklar tomonidan ko'rib chiqilish muddati yakka tadbirkorlar arizalari bo'yicha 5 ish kuni va yuridik maqomiga ega kichik biznes sub'yeqtllari uchun 10 ish kuni qilib belgilab qo'yildi.

Shu bilan birga, tijorat banklarining mazkur sohani qo'llab-quvvatlash bo'yicha faoliyatlarini rag'batlantirish maqsadida, ushu sohaga ajratgan kreditlar miqdori bank aktivlarining 20 foizidan oshgan taqdirda Markaziy bankdagi majburiy zaxiralarga ajratmalar o'tkazishdan ozod qilinishi belgilab qo'yildi.

Bularning barchasi respublikada xususiy tadbirkorlar hamda yakka tadbirkorlik uchun iqtisodiy va huquqiy shart-sharoit yaratib berishga bo'lgan sa'y-harakat hamda ular faoliyatini keng rivojlantirish uchun moliya, bank va boshqa bozor tuzilmalarining tadbirkorlar bilan munosabatlarini mustahkamlab borayotganliklaridan darak beradi.

Tijorat banklari tomonidan xususiy tadbirkorlarni rivojlantirish uchun ajratilayotgan kreditlar respublikada iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishni riaojlantirishda muhim rol o'yamoqda.

Tijorat banklari tomonidan respublikamizning chekka va mehnatga yaroqli aholi ko'p turmanlarida qo'shma korxonalar tashkil etilishini ta'minlash hamda xorijiy kredit liniyalari sarmoyalalarini o'zlashtirishga ko'maklashish maqsadida tijorat banklari va ularning hududiy bo'limlarida loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha maxsus bo'linmalar tashkil etilib, mazkur bo'linmalar orqali tadbirkorlarga loyihalarni tanlashda marketing, injiniring va konsalting xizmatlari ko'rsatish yo'lga qo'yilib, kredit liniyalarini o'zlashtirishga ko'mak berib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi bank sistemasi amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, xo'jalik-moliyaviy faoliyatini qanchalik darajada mustaqil olib borishi bozor munosabatlariga o'tish jarayonida o'z harakatlari va ularning natijalariga o'z

ma'suliyatlari bilan hisoblashishadi. Barcha banklar yangicha xo'jalik yuritish sharoitlarida bir xilda faoliyatlarini davom ettira olishmadi. Ba'zi bir banklar kreditlarni qaytmasligi oqibatida moliyaviy qiyinchiliklarga uchrab qolgan bo'lса, ba'zilari xo'jalik faoliyatlarini to'xtatishga majbur bo'lishdi.

Hozirgi kunda xususiy tadbirkorlarni kreditlash bilan bog'liq bo'lgan eng asosiy muammolardan biri ushbu kreditlarni o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlashdan iborat. Tijorat banklari uchun xususiy tadbirkorlarni qaytadan imtiyozli foiz va muddatlarda moliyalashtirish uchun ushbu kreditlarning o'z vaqtida qaytishi albatta shart. Shu sababli xususiy tadbirkorlar va bank tizimini mutanosib ravishda rivojlanishini ta'minlash uchun tijorat banklarning manfaatini va shu bilan birga xususiy tadbirkorlar sub'yektlarining manfaatini himoya qiluvchi moliya xizmat turlarini tadbiq qilish, kreditlashning mukammallahsgan va qulay usullarini tashkil etish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Endilikda kichik biznes ishtirokchilari va korxonalar banklarning ishonchhliligini aniqlashga g'oyat jiddiy yondashmoqdalar. O'z navbatida banklar ham xususiy tadbirkorlarni kreditlashni ancha xatarli deb bilishmoqda.

Bank bo'sh pul mablag'larini to'playdigan va ularni o'z ishini rivojlantirish uchun mablag'a muxtoj bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'yektlar o'rtaida qayta taqsimlaydigan moliyaviy vositachi rolini bajaradi.

Foya olishni ko'zlab ish yuritadigan bank faqat mablag'lardan samarali foydalana oladigan hamda kreditni va uning foizlarini o'z muddatida to'lashga tayyor bo'lgan qarz oluvchilargagina kredit beradi. Faqat ana shunday sharoitlardagina bank omonatchi ta'lab qilishi bilanoq uning omonatini qaytarib berishga va foizlarni to'lashga, mijozlarning topshirig'i bilan to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishga, operatsion xarajatlarni qoplashga, o'z aksiyadorlari uchun foya ishlashga, hamda davlat byudjetiga soliqlar to'lashga qodir bo'ladi.

#### 6.4. Kreditni rasmiylashtirish tartiblari

Kredit olish uchun xo'jalik sub'yekti bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- a) kredit arizasi;
- b) davlat soliq xizmatining mahalliy (tuman) idorasи tomonidan tasdiqdangan so'nggi hisobot davri uchun buxgalteriya balansi, debitorlik va kreditorlik qarzлari yoyilmasi hamda 90 kundan oshib ketgan qarzdorliklari uchun solishtirma dalolatnomalar, foya va zararlar shaklidagi hisobot;
- v) olinadigan kreditning samaradorligi, qaytarishliligi, to'lanishi va

ta'minlanishi hamda pul oqimining tahlili albatta ko'rsatilgan biznes reja.

Bank bo'limlarida mijozlarning bankdagi kredit arizalarini ro'yxatdan o'tkazish uchun maxsus daftar yuritiladi va bu daftar raqamlanadi, tikiadi, rahbar, bosh buxgalter va bank kredit bo'limining boshlig'i imzo chekib, dumaloq muxr qo'yish yo'li bilan tasdiqlanadi.

Mazkur daftarda quyidagilar bo'lishi shart: ariza beruvchi mijozning nomi, ariza berilgan sana, so'ralayotgan kredit miqdori, kreditni olishdan ko'zlangan maqsad, muddati, kredit bo'limining xulosasini bank rahbariga taqdim etish sanasi, bank tomonidan kredit bo'limining xulosasini ko'rib chiqish sanasi, qaror qabul qilish sanasi, salbiy xulosaning asoslari.

Qarz oluvchi kreditni to'lay olmaslik xataridan qochish maqsadida ishonchli kreditdan tashqari, asosiy talabi uning realizatsiya qilinishidan iborat bo'lган ta'minlashga ham ega bo'lishi kerak.

Qarz oluvchi bankga quyida ko'rsatilgan ta'minot turlaridan birini taqdim etishga haqli:

- Mol-mulk yoki qimmatli qog'ozlar garovi;
- banklar yoki sug'urta idoralarining kafolati;
- uchinchi shaxslarning kafilligi;
- o'z faoliyatini qonunlarda belgilangan tartibda yurituvchi sug'urta idoralarining kreditni qaytarilmay qolish xatarini sug'urtalaganligi haqidagi sug'urta polisi.

Yuqori likvidlikka ega bo'lgan davlatning qisqa muddatli obligasiyalari (DQMO) ham garov ob'yekti bo'lishi mumkin va ularni garovga qo'yish alohida shartnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Banklarning kafolatlariga asosan kredit berilishida kafolatlarni rasmiylashtirish Fuqarolik kodeksida ko'rsatilgan tartibda yozma ravishda amalga oshiriladi.

Mulkchilikning barcha shaklidagi qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga berilgan kreditlar bo'yicha sug'urta polisini ta'minot sifatida qabul qilib olishga ruxsat beriladi.

Bunday kredit berish faqat sug'urta to'lovi sug'urta kompaniyasining bank hisob-varag'iga o'tkazilgani va qarz oluvchi bankka sug'urta polisini taqdim etganidan keyin amalga oshirilishi mumkin. Sug'urta polisida qarz oluvchi olingan kreditlarni va u bo'yicha foizlarni to'lay olmagan taqdirda sug'urta tashkiloti kreditning barcha summasini va u bo'yicha hisoblab chiqarilgan foizlarni to'lash ma'suliyatini o'z zimmasiga olishi to'g'risidagi yozuv bo'lishi zarur.

Beriladigan kredit hisobidan sug'urta to'lovini to'lash man etiladi.

**Mol-mulk garovi** kredit ta'minotining asosiy shakli bo'lib, qarz oluvchining mulki hisoblangan har qanday mol-mulk hamda O'zbekiston Respublikasining «Garov to'g'risida»gi qonuniga muvofiq garov ob'yekti bo'lishi mumkin bo'lgan oboro'tdan olib qo'yilgan buyumlardan tashqari, qimmatbaho boyliklar, zargarlik buyummlari, erkin almashtiriladigan valyutalar shu jumladan, buyumlar va mulkiy huquqlar (talablar) garov ob'yekti bo'lishi mumkin.

Qarz oluvchining majburiyatlarini ta'minoti sifatida qabul qilingan mol-mulk va ta'minotning boshqa shakllari quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- boshqa garovdan holi bo'lishi;
- yuqori likvidlikka ega bo'lishi, bunday aktivlarning pul mablag'lariga konveratsiyalash qobiliyati tushuniladi;
- uzoq vaqt saqlanish qobiliyatiga ega bo'lishi.

Bank bo'limi mol-mulk garovi asosida kreditni rasmiylashtirishda ssuda oluvchi bilan garov haqidagi yozma shartnomani tuzadi (kredit shartnomasi joyihasi asosida). Garov shartnomasida garovga qo'yilgan mol-mulkning ro'yxati, bahosi va manzili, garov bilan ta'minlanadigan majburiyatlarni bajarishning mohiyati, miqdori va muddati ko'rsatiladi. Mol-mulk garovi qarz oluvchi hisobidan bank foydasiga sug'urtalanishi hamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 271-moddasiga muvofiq albatta notarial jihatdan tasdiqdanishi kerak.

Noturarjyo binolar va inshoottlarni baholash Davlat kadastri organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Asosiy vositalar balansdagi qoldiq qiymati bo'yicha, garovning boshqa turlari esa balansdagi qiymati bo'yicha baholanadi.

Mol-mulk garovining barcha turlari bo'yicha bank ssuda oluvchi bilan birgalikda o'zaro baholash dalolatnomasini tuzadi.

Bank garovga qo'yilgan mulknini saqlanishi bo'yicha kredit shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda joyida tekshiruv o'tkazishi lozim.

A garda garovga bir necha shaxsning tasarruffida bo'lgan mol-mulk rasmiy lashtirilaotgan bo'lsa, bunday holda mulkga egalik qiluvchi barcha shaxslarning yozma ravishdagi roziligi bilangina ushbu mol-mulk garovga berilishi mumkin.

Noturarjyo binolar va inshootlar garovi bo'yicha shartnomalar Davlat kadastri tuman va shahar xizmatlari organlari tomonidan qayd etilishi lozim.

Turuarjyo binolari ba'zi banklar kredit qo'mitasi tomonidan garov ob'yekti sifatida qabul qilinmaydi.

Becriliyotgan kreditning miqdori garovga qo'yilgan mulk sug'urta bahosidagi qiymatining 80 foizidan oshinasligi kerak.

Garovga qo'yilgan mol-mulk tomonlarning kelishuviga asosan to'lig'icha qarz oluvchining tasarrufida qoladi yoki bank ixtiyoriga beriladi.

Yuqori likvidlikka ega bo'lgan davlatning qisqa muddatli obligatsiyalari (DQMO) ham garov ob'yekti bo'lishi mumkin va ularni garovga qo'yish alohida shartnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Banklarning kafolatlariga asosan kredit berilishida kafolatlarni rasmiylashtirish Fuqarolik kodeksida ko'rsatilgan tartibda yozma ravishda amalga oshiriladi.

Kreditni qaytarish muddati kelib, qarz oluvchining depozit hisob varag'ida pul mablag'i bo'lмаган taqdirda kafolat beruvchi bank qarz bergan bank bo'limining yozma ravishda bildirgan xabarnomasiga muvofiq muddatida to'lanmagan kredit hamda foiz to'lovlarini o'z hisobidan o'zining to'lov topshiriqnomalari bilan bevosita qarz oluvchining ssuda hisob varag'iga o'tkazib beradi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 292 - moddasiga muvofiq tuzilgan uchinchi shaxsnинг qarz oluvchining to'lov qobiliyati yo'qligida uning qarzini to'lashga roziligi to'g'risidagi majburiyati ham kreditni qaytarishini ta'minoti sifatida qabul qilinishi mumkin, bunday majburiyat mustaqil majburiyat kafillik tarzida rasmiylashtiriladi.

To'lov qobiliyatiga ega bo'lgan, bank oldida ssuda va boshqa qarzlar hamda 2-sonli kartotekada muddatida to'lanmagan to'lov hujjatlari bo'lмаган uchinchi shaxslar kafillik beruvchi bo'lislari mumkin.

Kafillik qarzdor bilan kafillik beruvchi o'rtaida bank foydasiga yozma shaklda kafillik shartnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Shartnomada kafillik beruvchi bank bo'limlari oldida ssuda oluvchining ushbu kredit bo'yicha majburiyatlarini, qarzdor uni kredit shartnomasida belgilangan muddatda bajarmagan taqdirda, bajarish yuzasidan zimmasiga majburiyatlar olishi ta'kidlanadi. Kafillik beruvchining ma'suliyati qarzdorning qarz bo'yicha hisoblab chiqarilgan foizlarini hisobga olgan holda qarz miqdori bilan chegaralanadi.

Kredit ta'minoti sifatida kafillik shartnomasini qabul qilish v aqtida bank kafillik beruvchining moliyaviy holatini hamda uning to'lov qobiliyatini tahlil etishi lozim va ijobjiy hal bo'lgandagina kafillik shartnomasini berilayotgan kredit ta'minoti sifatida qabul qilishi mumkin.

Kafillik shartnomasi kafillik beruvchi majburiyatlar bo'yicha asosiy javobgar bo'lganidagi kabi bankka kafillik beruvchining majburiyatlaridan foydalanish huquqini beradi. Kafillik shartnomasi kreditning va u bo'yicha hisoblangan foizlarning butun summasini qamrab oladi.

Kafillik shartnomasiga quyidagi ilova qilinadi:

➢ kafillik beruvchining bankdagi hisob-varag'i holati to'g'risidagi ma'lumotnomasi;

➢ kafillik beruvchining boshqa banklardagi barcha bank hisob-varaqlari to'g'risidagi ma'lumotnoma, ulardagi qoldiqni ko'rsatgan holda;

➢ kafillik beruvchining o'z banki oldida ssudalari yoki boshqa qarzi yo'qligi;

➢ kafillik beruvchining 2-sonli kartotekada qarzlar yo'qligi.

Ushbu ma'lumotnomalar va ma'lumotlar talab qilib olinadigan asosiy depozit hisob-varag'iga xizmat ko'rsatuvchi bank muassasasining rahbari va bosh buxgalteri tomonidan imzolanadi va dumaloq muhr bilan tasdiqlanadi.

Bank bo'limlari zarur hollarda kafillik beruvchining moliyaviy holatini tasdiqdovchi auditorlik xulosalarni ham talab qilishga haqli.

Kreditni qaytarish muddati kelgan va qarzdorning depozit hisob-varag'ida mablag'i bo'limgan taqdirda kafillik beruvchi shaxs qarz oluvchining bankini yozma xabarnomasiga asosan o'zining to'lov topshirinomasi bilan talab qilib olinacigilan depozit hisob-varag'idan to'lanmagan kredit miqdorini va unga hisoblangan, lekin to'lanmagan foizlarni qarz oluvchining bevosita ssuda hisob-varag'iga o'tkazadi.

Taqdim etilgan hujjatlarni sinchiklab o'rgangandan so'ng bank xodimi kredit bitimini tuzish imkoniyati bor-yo'qligi to'g'risidagi xulosani rasmiylashtiradi, bunda quyidagilarni ko'rsatadi:

- kreditga qobilligi;
- kreditning maqsadi, muddati va miqdori;
- kredit qaytarilishining ta'minlanishi;
- foiz stavkasi.

Bank kredit bo'limi xodimining va kredit bo'limi boshlig'inining imzosi qo'yilgan xulosasini ilova qilingan hujjatlar bilan birganlikda ko'rib chiqish uchun kredit qo'mitagaga taqdim etiladi. Kredit qo'mita esa o'z vakolatlaridan kelib chiqqan holda besh ish kuni ichida tegishli qaror qabul qiladi (Kredit qo'mita bayoni).

Mazkur xulosa Kredit qo'mitasi raisi tomonidan tasdiqlangandan so'ng kredit shartnomasi tuziladi yoxud o'sha kunning o'zida qarz oluvchiga yozma ravishida rad javobi beriladi. Rad javobida ssuda ajratish uchun kredit bitimini tuzmaslik sabablari ko'rsatiladi.

Kredit qo'mitasining ijobjiy xulosasidan keyin kredit shartnomasi tuzilib, u bank rahbari va qarz oluvchi tomonidan imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi.

### **Nazorat savollari**

1. Pudrat savdolarini tashkil etish boshqarmalarining vazifalari va asosiy faoliyat turlarini tavsiflang.
2. Respublikamizda qurilish ishlarida pudrat savdolari (tender)ni o'tkazish usllarini tavsiflang.
3. Markazlashtirilgan mablag'lar hisobiga quriladigan ob'yektlarni qurishda pudratchini moliyalashtirish usullari va tartibini tavsiflang.
4. Respublikamizda qurilish ishlarini moliyalashtirish va bu mablag'larning to'g'ri sarflanishi ustidan kimlar nazorat olib boradilar va qanday maqsadda.
5. Tadbirkorlik faoliyatini banklar tomonidan moliyalashtirish.
6. Bank tizimida tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishda amalga oshirilgan islohotlar.
7. Bank tizimida kredit siyosatiga qo'yilgan talablar.
8. Muddati uzaytirilgan kreditlarning tuzilishi.
9. Tadbirkorlik faoliyatida aylanma mablag'larni to'ldirish uchun kreditni rasmiytirish tartiblari.
10. Banklar tomonidan kreditlashda kredit ta'minoti turlari.
11. Uchinchi shaxs kafilligining mohiyati va tuzilishi.
12. Banklar tomonidan uzoq muddatli kreditlarni berish tartibi.
13. Banklar tomonidan berilgan kreditlar bo'yicha monitoring olib borish tartiblari.
14. Qarz oluvchilarning kreditga layoqatliligi tushunchasining mohiyati;
15. Mijozning kreditga layoqatliligi bilan bog'liq kredit risklari;

## VII-BOB. INVESTITSIYALARНИ MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI VA IQTISODИ SAMARADORLIGINI BAHOLASH

### 7.1. Investitsiyalarni loyihami moliyalashtirish tushunchasi

Investitsiya loyihasi tushunchasi uning yo'naltirilgan maqsadini amalga oshirish uchun texnologik jarayonlarni, texnik va tashkiliy hujjatlashtirish jarayonini, ob'yektlarni barpo etish va ishga tushirish jarayonini, moddiy, moliyaviy, mehnat resurslarining harakatini, shuningdek tegishli boshqaruv qarorlari va tadbirlarni o'zida mujassamlashtiruvchi tizim sifatida qaralishi mumkin.

To'liq shakllangan, yakuniga yetgan investitsiya loyihasini tuzish va amalga oshirish umumiyl holda quyidagi bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi:

- investitsiya g'oyasini shakllantirish;
- investision imkoniyatlarni tadqiq etish;
- investitsiya loyihasini texnik-iqtisodiy asoslash;
- shartnoma hujjatlarini tayyorlash;
- loyiha (ishchi) hujjatlarini tayyorlash;
- qurilish-montaj ishlari;
- ob'yektni ishga tushirish va investitsiya loyihasi (iqtisodiy ko'rsatkichlar) monitoringini olib borish.

Investitsiya loyihasi o'z maqsadi, yo'nalishi, amal qilish sohasi, muddati va chegarasiiga ega bo'lgan alohida faoliyat turi hisoblanadi. U tashkiliy, huquqiy, ijtimoiy, ekologik, iqtisodiy jihatdan to'liq va mukammal hisob-kitoblar yordamida asoslangan yuridik hujjat hisoblanadi.

Investitsiyalash nuqtai nazaridan investitsiya loyihalarni tanlab olish va amalgam oshirish uslubiyoti va uslubiyotini ishlab chiqish masalalari g'oyat muhim hisoblanadi. Jahon amaliyotida faqat hayotiy muhim loyihalarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatadigan va keng tarqalgan investitsiya loyihalari tsikli kontseptsiyasi mavjud.

Loyihalarni boshqarish uslubiyotining «loyiha sikli kontseptsiyasi» va «loyiha tahlili» ko'rinishlarida keng tarqalgan. Ushbu kontseptsiyalar investitsiyalarning mazmun va mohiyatidan kelib chiqqan holda pul oqimlarini vaqqli qiymati kontseptsiyasi asosida tashkil etiladi.

Loyihalarning ko'lami, tuzilmasi, resurslari, qiymati va boshqalarga qarab ularni boshqarishning maxsus usullariga ehtiyoj ortib boradi. Boshqarish aslida qo'yilgan maqsadlarga erishish vazifasini, loyihami amalga oshirish

muammolarini bartaraf qilish, huquqlar va mas'uliyatlarni jamlash va zifalarini ko'zlaydi. Iqtisodiyotning globallashuvi va integrasionalashuvi, loyihalarini amalga oshirishda chet elliq sheriklar, turli sub'yektlar, moliya institutlarining ishtirok etishi, ular harakatlarini va faoliyatlarini muvofiqlashtirishni talab etadi.

«Loyiha» deyilganda butun dunyoda, resurslar va vaqt birkigi bilan cheklangan, nazariy ishlasmalar bilan asoslangan va «loyiha sikli» kontseptsiyasi ko'rinishida ta'riflangan belgilangan jarayonni tayyorlash va maqsadli faoliyatni amalga oshirish tushuniladi.

Loyiha sikli loyihani tayyorlash, ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish, amalga oshirish (muzokaralar, bajarish) va baholash bosqichlarini, shuningdek loyihani amalga oshirish natijalarini baholash mumkin bo'lgan ko'pdan-ko'p nuqtai nazarlar va mezonlarni qamrab oladi.

Loyiha, birinchidan, maqsadli yyo'naltirilgan faoliyat, ikkincididan, bu faoliyat vaqt birligi va resurslar bilan deyarli cheklangan, uchinchidan esa, undan keladigan naf qilingan xarajatlardan doimo ortiq bo'ladi. Chunki, kelajakdag'i daromadlar bugungi pul qiymatlari bilan o'lchangan bo'lib, zamona viy xarajat oqimlaridan yuqori bo'lishi nazarda tutiladi.

Investitsiya loyihasi o'zaro bog'liq bo'lgan tadbirlar majmuadan iborat bo'lib, cheklangan davr davomida, belgilangan byudjet hisobidan, qo'yilgan vazifalarni hal qilishga qaratilgan aniq maqsadni nazarda tuteadi. Ya'ni, investitsiya loyihalari boshqa tadbirlardan quyidagilar bilan ajralib tuzadi:

- maqsadi, unga erishish ichki kuchi va uni belgilangan vaqt mobaynida amalga oshirish imkoniyatlari bilan;

- belgilangan davr mobaynida loyihaning noyobligi va tanholigi darajasi hamda belgilangan vaqtning o'zining cheklanganligi bilan;

- har qanday tirik mavjudot kabi uning ham hayotiy siklga egaligi bilan.

Loyihani ishlab chiqish dastlabki muhandislik loyihalash, iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlarni tahlil qilish, boshqarishning ma'muriy tizimlarini ko'rib chiqish, loyihaning atrof-muhitga, mahalliy aholiga ta'sirini baholash va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda loyihalarni qoniqarsiz chiqqan variantlarini yaroqsizga chiqarish va eng maqbullarini batafsil o'rqa nish zarurati kelib chiqadi.

Loyihani moliyalashtirish va tegishli qarorlar qabul qilish muammolarini taddiq etishda loyihaning hayotiylik sikli boshlang'ich tushuncha hisoblanadi. Loyihani fazalarga bo'lish g'oyat xilma-xil bo'lishi mumkin. Asosiy narsa shundaki, bunday bo'lish eng muhim nazorat nuqtalarini ochib beracrligan bo'lsin, bu fazalardan o'tish vaqtida qo'shimcha axborotlarni qarab chiqish va loyihani rivojlantirishning imkon bo'lgan yo'nalishlarini baholash mumkin bo'lsin.

Jahon amaliyotida loyihalarning murakkabligiga qarab ularni boshqarishning turli usullaridan foydalaniadi. Loyihalarni barcha mavjud boshqarish usullari nazarda tutilgan natijalarga qaratiladi, huquq va burchlarning jamlanganligiga, matritsali tashkil etilganligiga, to'qnashuvlar va muammlarning oldini olishga qaratiladi. Loyihalarni ishlab chiqish, ular samarasini belgilash, ularni tanlash va amalga oshirish, shuningdek, ularni ichki va tashqi resurslar hisobidan moliyalashtirishda mamlakatning xalqaro bozorga chiqishi kuchli zamin va asos hisoblanadi. Loyihaning kelajakka qaratilishi uning oldindan ayтиб berish mumkin emasligidan dalolatdir, shu sababli investitsiya loyihasining sifat tafsiflarini hisobga olish muhim.

Loyiha yuzaga kelgan vaqtidan toki u tugatilgan vaqtga qadar o'tgan vaqt oraliг'iga loyihaning hayot sikli deyiladi. Loyiha bosib o'tishi lozim bo'lgan holatarga esa fazalar, bosqichlar deyiladi.

Loyihalar hayot sikli(LXS) ning quyidagi bosqichlari farqlanadi:

**1. Investitsiya oldi bosqichi.**

- a) investitsiya imkoniyatlari tahlil qilish;
- b) dastlabki texnik iqtisodiy asoslash;
- v) texnik iqtisodiy asoslash;
- g) marketing taddiqotlarini olib borish;
- cl) investitsiya imkoniyatlari to'g'risida ma'lumot.

**2. Investitsiya bosqichi.**

- a) muzokalaralar olib borish va shartnomalar tuzish;
- b) loyihalashtirish;
- v) qurilish ishlarini amalga oshirish;
- g) xodimlarni o'qitish.

**3. Ekspluatatsiya bosqichi.**

- a) qabul qilish va ishga tushirish;
- b) uskunalarini almashtirish (yangilash);
- v) kengaytirish, innovatsiya.

## 7.2. Investitsiya loyihalarini loyihami мoliyalashtirish xususiyatlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalarni loyihami мoliyalashtirish moliyalashtirishning eng taraqqiy etgan zamonaliv shakllaridandir.

Shunday ekan, loyihami мoliyalashtirishning mazmuni nima? Unga qanday ta'rif berish mumkin? Turlicha fikrlar mavjud. Masalan, Doche bank (Germaniya) ning tarkibiy moliyalashtirish boshqarmasi xodimlarining fikricha loyihami мoliyalashtirish, bu: «Loyiha bo'yicha asosiy vositalarni sotib olishni,

tashkil etishni yoki qurilishni moliyalashtirish bo'lib, unda kreditor asosan quyidagilarga e'tibor beradi:

a) kreditni qaytarish manbasi sifatida, loyihani tadbiq etish natijasi bo'yicha olinadigan sof pul oqimiga (mablag'larning qaytish darajasiga);

b) loyihani moliyalashtirish uchun berilgan kreditning xavfsiz qaytishini ta'minlaydigan manbasiga, ya'ni mijozning qobiliyatiga garov, kafolat va boshqa ta'minotlarga.

Bizning fikrimizcha, loyihaviy moliyalashtirish bu investitsiya loyihalarini kreditlashtirishning bir turi bo'lib, kreditor bu loyihani amalga oshirish bilan bog'liq xatarlarni qisman yoki to'liq o'z zimmasiga oladi.

Agar banklarning oddiy kredit operatsiyalarida eng avvalo qarzdorning kreditga qobiliyatligini o'rGANISHGA, uning moliyaviy va iqtisodiy holatini, shuningdek garov sifatida foydalananadigan mol-mulkлarni baholashga asosiy ahamiyat berilsa, loyihaviy moliyalashtirishda esa loyihaviy tahlilga asosiy e'tibor qaratiladi.

Loyihaviy moliyalashtirish mohiyatini ifoya etishda quyidagi asosiy omillar xizmat qiladi:

-loyihaviy moliyalashtirishning asosiy turi bu sindikatlashgan kreditlashtirish bo'lib, unda turli investor va kreditorlar o'z xatari va mablag'lari bilan ishtirok etadi;

-loyihaviy moliyalashtirishning jahon amaliyotida turlicha usullari va manbalari mavjud bo'lib, har bir davlat o'z iqtisodiy va investitsion siyosati, bozor mexanizmining amal qilish darajasiga qarab, bu usullardan foydalaniши mumkin;

-aniq maqsadni ko'zlagan, iqtisodiy va moliyaviy jihatdan samarali bo'lishi rejalashtirilgan loyihalar loyihaviy moliyalashtirish ob'yekti bo'lib hisoblanadi.

-loyihaviy moliyalashtirishda eng asosiy jarayon bu loyiha hujjatlarining texnik, iqtisodiy, moliyaviy, ekologik tahlili hisoblanib, bu jarayonning qanchalik chuqr va saviyali o'tkazilishi loyihanining kelgusi taqdirini belgilab beradi.

Loyihaviy hujjatlar (loyihaning texnik iqtisodiy asoslanishi) loyihaviy tahlilning ob'yekti bo'lib hisoblanadi va u loyihanining iqtisodiy, moliyaviy samaradorligini va loyiha bo'yicha xarajatlarni aniqlash, moliyalashtirish manbalari va xatarlarni baholashdek o'z maqsadiga ega bo'ladi.

Qanday turdag'i loyihalar loyihaviy moliyalashtirishga mos kelishi mumkin?

Avvalombor, loyihaviy moliyalashtirishning asosi bo'lib mustaqil va maqsadlari aniq belgilangan loyihalar hisoblanadi.

Loyiha natijasi bo'yicha olingan sof pul oqimining miqdori shunday belgilanishi lozimki, kelgusida ko'zda tutilmagan xarajatlarni ham hisobga olish

imkoniyati bo'lsin.

Loyiha ko'p sonli loyiha ishtirokchilarining talabi va manfaatlarini qondirishi zarur.

Loyiha xatarlarni uning ishtirokchilari o'tasida mos taqsimlash imkoniyati mavjud bo'lishini ko'zda tutishi zarur.

Loyihaviy moliyalashtirishda yuqori darajali xatarlarning bo'lishini hisobga olgan holda kreditorlar xatarlarni samarali boshqarishni ta'minlashga harakat qiladi.

Loyihaviy moliyalashtirish orqali moliyalashtirilgan loyjhalari asosan iqtisodiyotning quyidagi tarmoq va sektorlarida ishtirok etishi mumkin:

- telekommunikatsiya;
- transport;
- foydali qazilmalarni qazish;
- energetika;
- qayta ishlovchi va boshqa ayrim tarmoqlarda.

Loyihaviy moliyalashtirishda quyidagi ishlarni bajarish juda muhimdir. Boshqacha aytganda, loyihaviy moliyalashtirishning bosqichlari quyidagicha:

*Birinchi bosqich*, loyihaning texnik tahlili. Bu bosqichda quyidagi savolga javob berish zarur: loyiha o'zining boshlangich smeta xarajatlariga mos holda amalga oshirilmoqdami?

Loyihaviy moliyalashtirishda qarzdorlar tajribali ekspert injenerlarning (bu ko'p hollarda maxsus savollarda tavsiyalar beruvchi mustaqil maslahatchilar) tavsiyasiga amal qiladi. Bunda ekspertlarning xulosasi texnik hisobot shaklida tavsiya etilishi va quyidagi holatlarni o'zida qamrab olishi mumkin:

- zarur investitsiya miqdorini;
- kelgusidagi zarur investitsiyalarni;
- loyihaning qaytimi uchun zarur vaqt. Zarar ko'rmaslik nuqtasi;
- elektr energiya, suv va boshqa xarajatlar qiymati;
- loyihada ishlash uchun xodimlarni o'qitish imkoniyati;
- loyiha mahsulotini sotish bozorining mavjudligi.

*Ikkinci bosqich*, bu iqtisodiy va moliyaviy tahlil.

Loyihalarning iqtisodiy va moliyaviy tahlili jarayonida loyiha bar'cha olingan kreditlar bo'yicha o'z vaqtida hisob-kitoblar uchun yetarlicha foydaga ega bo'ladi, degan savolga javob olish zarurdir.

Pul oqimini tahlili loyihaning iqtisodiy samaradorligini aniqlash asosi bo'lib hisoblanadi. Pul oqimi o'z tarkibiga quyidagilarni qamrab oladi:

- loyiha egalarining aktsiyadorlik kapitaliga dastlabki investitsiya qo'yilmalarini va kreditorlarning qarz mablag'larini;

-olingan foydani;

-sarf-xarajatlarni;

Kreditorlar loyihaning iqtisodiy sezgirligini jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan sof qoplash koefitsiyenti va umumi qoplash koefitsiyenti kabi ko'rsatkichlar orqali aniqlashlari mumkin.

Loyihalarni moliyalashtirishning uchinchi va to'rtinchi bosqichlarida homiyalar faoliyatini, xatarlarni va ularning taqsimlanishini tahlil etadi. Bu bosqichda kreditorlar rahbarlarning faoliyatini va ularning imidjini, loyiha ishtirokchilari uchun xatarlarning to'g'ri taqsimotini o'rganadi.

Loyihaviy moliyalashtirishni jahon amaliyoti tajribasidan kelib chiqqan holda, moliyalashtirish tartibiga qarab ikki turga bo'lish mumkin:

-mustaqil moliyalashtirish;

-hamkorlikda moliyalashtirish;

Birinchi tur moliyalashtirish, odatda, parallel moliyalashtirish deb ham ataladi, ya'ni bir nechta kredit muassasalari investitsiya loyihasining amaliyotga tadbipi uchun qarz mablag'larini ajratadi. Bu bir tomondan banklarga beradigan kredit summalarining me'yoriy chegarasiga rioya qilishiga imkoniyat bersa, ikkinchi tomondan o'z kredit xatarlarini kamaytiradi. Mustaqil parallel moliyalashtirish, ya'ni har bir bank qarzdor bilan kredit shartnomasini tuzadi va investitsiya loyihasining o'ziga tegishli qismini moliyalashtiradi.

Hamkorlikdagagi moliyalashtirish, ya'ni, kreditorlar yagona sindikatga birlashadi; yagona kredit shartnomasi tuziladi.

Sindikat (konsorsium)ni shakllantirishni, kredit shartnomasini imzolashni menejer bank amalga oshiradi; kelgusida kredit shartnomasining amalga oshirilishi ustidan nazorat va zarur hisob-kitob operatsiyalarini sindikat (konsorsium) tarkibiga kiruvchi maxsus agent bank amalga oshiradi va buning evaziga komission haq oladi.

### **7.3. Sindikatlashtirilgan kreditlarni tashkil etish**

Bugungi kunda loyihaviy moliyalashtirishning ikkinchi turi keng tarqalgandir. Loyihaviy moliyalashtirishning hamkorlikda moliyalashtirish turi yirik nufuzli bankning ishtirokida amalga oshiriladi. Bunda nufuzli birinchi toyifali tijorat banklari investitsiya loyihalarini ekspertizasi bo'yicha tajribali mutaxassislarining mavjudligi, kreditlash imkoniyatining yuqoriligi sababli loyihalarni kreditlash uchun katta miqdorda arizalar olishadi. Lekin bu yirik tijorat banklari har doim ham barcha loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo'lmaydi yoki bu holat ularning balansiga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Shuning uchun ham ko'p hollarda bunday banklar loyihalarni kreditlash jara-yonining tashabbuskori vazifasini bajaradi. Korxonaga qarz berilgandan so'ng tashabbuskor bank shartnomaga bo'yicha qarzdorga nisbatan o'z ta'labolari bosqicha kreditorga uzatadi. Investitsiya loyihasini baholaganini, kredit shartnomasini ishlab chiqqani, qarz bergani uchun tashabbuskor bank komission haq oladi.

Bu qayd qilingan loyihaviy moliyalashtirish turlarida asosiy rol tashabbuskor bank sifatida ishtirok etuvchi yirik tijorat banki va xalqaro moliyaviy institutlar zimmasiga to'g'ri keladi.

So'nggi davrlarda «loyiha obligatsiyalari» deb nomlanuvchi qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqaruvchi va joylashtiruvchi moliyaviy kompaniya va banklar ham loyihaviy moliyalashtirishning asosiy ishtirokchilariga aylangan. Dastlabki vaqtarda bunday obligatsiyalarni muomalaga chiqarish investitsiya loyihalarni boshlangich davridan moliyalashtirish uchun emas, balki bankdan olingan loyihaviy kreditni qayta moliyalashtirish maqsadida amalga oshirilar edi. XX asrning 90 - yillarining o'rtaidan bu obligasiyalar investitsiya loyihalarni bosh lang'ich davridan moliyalashtirish uchun muomalaga chiqarilmoqda.

Rivojlanayotgan davlatlarda loyihaviy moliyalashtirish o'z xususiyatiga ega, ya'nini ko'p hollarda ular kontsessiya shartnomasiga asoslanadi. Bu shartnomanining mazmuni shundan iboratki, kontsessonner (loyihachi kompaniya) kelishilgan davr mobaynida (20, 30 va undan ortiq yillarga) investitsiya faoliyatining ob'yektini qurish, moliyalashtirish, boshqarish va xizmatini tashkil etish bilan bog'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. So'ng esa ob'yekt davlatga (davlat korxonasiga) topshiriladi. Kontsessiya davrida kontsessonner ob'yektdan foydalanib daromad oladi, investitsiya loyihasini moliyalashtirish bo'yicha xarajatlarini qoplaydi. Loyihalarni moliyalashtirishning bunday usuli so'nggi vaqtarda sanoati rivojlangan davlatlarda ham ko'p infrat izimli loyihalarni moliyalashtirish chizmasining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Demak, loyihaviy moliyalashtirishda turli investor va kreditorlarning mablag'lari ishtirok etishi mumkin, ya'ni mablag'larning sindikatlashuvi ro'y beradi. Shu jihatdan ham loyihaviy moliyalashtirishni sindikatlashgan kredit lashtirish deb atashimiz ham mumkin.

I-lozirda yevrokredit bozorida harakat qiluvchi bank sindikat va konsortiumlarining loyihalarni moliyalashtirishdagi roli kundan-kunga o'sib bormoqda. Respublikamizda investitsiya loyihalarni moliyalashtirishda ham yevrokreditlar va boshqa rivojlangan chet davlat banklarining kreditlari, xorijiy investorlarning mablag'lari, respublika aksiyadorlik tijorat va xususiy banklarining kreditlari ishtirok etmoqda.

*Bir loyihani amalga oshirishga yo'naltirilgan moliyalashtirishning barqaror turi (sindikatga uyushgan bir necha kreditorlarning kreditlari majmui) sindikatlashgan kredit deb ataladi. Bu kredit turi loyihani bir kreditor tomonidan moliyalashtirish uchun talab qilinadigan resurslar hajmini ta'minlashtirishning iloji bo'limganda yoki kreditor uchun ehtimoli bo'lgan risk darajasi, qabul qilinishi mumkin bo'lganidan bir necha marta ortib ketadigan bo'lsa, qo'llaniladi.*

Sindikatlashgan kreditlash o'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan man'lakatlarda har bir kreditor uchun alohida kredit risklarini pasaytirib, jiddiy muammlolarini hal qilish imkoniyatlarini beradi. Sindikatlashgan kreditlash asosida tashki I etiladigan loyihaviy moliyalashtirish resurslar bazasi sifatini baholashni nazarda tutadi. Bu baholash resurslarni jalg etish narxlarini, resurslardan foydalanish muddatlari, jalg qilingan mablag'larni qo'yish va qoplanish davri, rentabellik darajasi va ularning sifatiga ichki hamda tashqi omillar majmuining ta'sirini aniqlash asosida o'tkaziladi.

Loyihaviy moliyalashtirish, odatda, jahondagi turli mintaqalarcla qo'shma korxonalar, ular sho'balarini tashkil qilish maqsadida ulkan xarajatlarni moliyalashtirishni nazarda tutadi. Bunday loyihalarni moliyalashtirish asosiy faoliyatdan alohida, xarajatlarni moliyalashtirish uchun katta mablag'larni jalg etish yo'li bilan amalga oshiriladi. Loyihaviy moliyalashtirishning bunday mexanizmi yordamida kreditlash risklari minimallashtiriladi. Loyihaviy moliyalashtirishda qarz bevosita loyiha tashabbuskoriga e'smas, balki sindinirlashtirilgan kredit ishtirokchilari nazaratida bo'lgan institutga beriladi, u esa o'z navbatida mablag'larni loyihani amalga oshirish uchun javobxagar bo'lgan sho'ba korxonaga yoki qo'shma korxonaga o'tkazadi. Sindikatlashgan kreditni beruvchi institut, odatda, loyiha natijasi bo'yicha mahsulotni kelajakda yetkazib berish hisobidan avans to'lovlarni amalga oshiradi. Bu mahsulotni kontrakt bo'yicha moliya institutidan bosh (ona) kompaniyaning boshqa korxonasi sotib oladi.

Shunday qilib, loyihaviy moliyalashtirishda sindikatlashgan kreditni jalg qilish murakkab o'zaro majburiyatlarini va oxir-oqibat bosh kompaniyalarining yoki uning asosiy sho'ba kompaniyalaridan birining bevosita majburiyatlarini keltirib chiqaradi. Bunday, sindikatlashtirilgai kredit ishtirokchilari qarzni qoplash uchun moddiy kafolatlar yetishmay qolgan hollarda risklarni o'zaro taqsimlash to'g'risida kelishib oladilar va loyihani amalga oshirish bilan bog'liq risklarning belgilangan qismini o'z zimmalariga oladilar. Korporativ manfaatlarni ko'zlaydigan tomon (bosh kompaniya) o'zining boshqa aktivlari bilan qarz uchun javob bermaydi. Bosh kompaniyaning balansida ushbu zayom qarz ko'inishida qayd qilinmaydi.

## 7.4. Lizing munosabatlarini tashkil etish

Iqtisodiy munosabatlar tarixi bilan shug'ullanuvchilarining fikrlariga ko'ra ijara (lizing) bitimlari Aristotel yashagan davrdan ancha oldin ham mayjud bo'lgan. Lizing bitimlari qadimgi Shumer davlatida ham tuzilgan, bunga miloddan oldingi 2000 yildagi yozuvlar guvohlik beradi. Shumer davlatidagi Ur shaharchasidan topilgan loy taxtalardagi yozuvlar qishloq xo'jaligi qurollari, suv manbalari, ho'kiz va boshqa ish hayvonlarini ijara berilganligi to'g'risida ma'lumotlardan iborat bo'lgan. Bu yozuvlar bizga ibodatxonalar kohinlari mahalliy yer egalari bilan bitim tuzgan ijara beruvchilar bo'lganligi haqida xabar beradi.

XIX asr boshlarida Angliyada sanoatning jadal rivoji tusayli, turli xil uskunalar ishlab chiqarish hajmi sezilarli ortganligi munosabati bilan uskunalar lizingi rivoj topdi. Bunda temiryo'l transporti hamda toshko'mir sanoatining rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etdi. Shimoliy Amerikadagi qo'shma Shtatlarda XVIII asr boshlarida shaxsiy mulkni ijara berish bo'yicha birinchi shartnomaga qayd etiladi. Bunday gildiya a'zolari shartnomaga bo'yicha ot, yopiq arava va aravachani ijara olish huquqiga ega bo'ldilar.

Avtstriyalik tadqiqotchi V. Xoyer «Evropada qanday biznes qiladilar» nomli kitobida, «lizing» terminini birinchi marta 1877 yilda qo'llanganini yozadi. o'shanda «Bell» telefon kompaniyasi o'z telefon apparatlarini sotmaslik, balki ularni ijara berish haqida qaror qabul qiladi, ya'ni apparatni mijozning uyi yoki ofisiga telefondan foydalanganlik uchun ijara haqi to'lash asosida o'rnatadi.

XIX asr boshlarida AQShda avtotransport gurkirab rivojlangani tufayli transport vositasi bilan bog'liq lizing biznesi tez sur'atlar bilan taraqqiy etadi. Avtomobil lizingidan foydalanishga birinchi misol 1918 yilga taalluqli. Genri Ford 30-yillarda o'z avtomobilari sotilishini ko'paytirish uchun lizing shaklidagi ijaradan keng foydalanadi. Lekin Chikagolik savdo agenti — Zolli Frenk avtornobil lizingi biznesining otasi hisoblanadi. U 40-yillar boshida birinchi bo'lib uzoq muddatli avtomobil ijarasini taklif etadi. Lizing munosabatlardagi haqiqiy inqilob Amerikada o'tgan asrning 50-yillardida sodir bo'ladi. Unda texnologiya jihozlari, mashinalar, mexanizmlar, kemalar, samolyotlar va boshqalar ommaviy suratda lizing asosida ijara berila boshlandi. 1952 yilda San-Frantsiskoda tuzilgan mashhur Amerika kompaniyasi «United states leasing corporation» ilk kompaniya bo'lib, lizing operatsiyalari uning uchun asosiy faoliyat turi, hisoblanadi. Bu kompaniya birinchi bo'lib xalqaro miqyosga chiqdi, oqibatda xalqaro lizing yuzaga keldi. 1982 yilda Mak-Donnel Duglas korporatsiyasi lizing yordamida samolyotlar bozorini egalladi.

Frantsiyada birinchi lizing kompaniyasi 1957 yilda paydo bo'ladi va u SERAFITES (1962 yildan - Locafrance) deb nomlangan. Uning faoliyati asosiy yo'naliishi sanoat uskunalarining lizingi bo'ldi. Mazkur kompaniya birinchi bitimni 1961 yil 22 fevralda imzolagan. Fransiyada lizing 1966 yilda qabul qilingan.

Angliyadagi zamонави lizing biznesining ilk qaldирг'очи bo'lib, «Mercantile Leasing Compan» hisobланади. U 1960 yil 8 iyulda ta'sis etilган «Mercantile Credit Compan» va «United States Leasing Corporation» Fransuz-Amerika qo'shma korxonasi tarzida yuzaga kelgan. Biroq, Angliyada lizing faqat 1970 yilda gina sezilarli darajada, soliq imтиyozi joriy etilgandan so'ng rivojlandi.

Shunday qilib, jahon iqtisodiyotida lizing gurkirab rivojlangan davr XX asrning 60-70 yillari bo'ldi, bu bozor munosabatlарining, ayniqsa moliya sohasining yanada rivojlanishini taqozo etган zamонави texnologiyalar jadal sur'атлар bilan o'sganligi bilan aloqador edi. Lizing munosabatlari paydo bo'lish tarixining sharxiga xulosa qilib, uni qarzga olish asosida yuzaga kelgan yaxlit iqtisodiy va huquqiy tizim sifatida qabul qilish mumkin. Lizingning rivojlanish tarixi shuni ko'rsatadiki, lizingning paydo bo'lishiga ob'yektiv sabablar imkon berdi va tegishli shart-sharoitlar bir tomonidan lizing mulkiga talabni oshirgan bo'lsa, ikkinchi tomonidan unga ehtiyojni shakllantirdi, uchinchi tomonidan bo'sh turgan moliyaviy resurslarni lizing munosabatlарini rivojlantirish uchun jaib etishning oshishiga olib keldi, mazkur barcha hollarda lizing munosabatlari faqat lizing munosabatida qatnashuvchi tomonlar o'zarо manfaati bir-biriga mos kelgan hollardagina amalga oshdi.

O'zbekiston uchun tadbirkorlik faoliyatini moliyalashning yangi usulini keng qo'llash uchun, shuningdek, chet el lizing tajribasidan to'g'ri foydalanish uchun, bizning nazarimizda lizing munosabatlari iqtisodiy tabiatи va mohiyatini chuqur anglash lozim bo'ladi. Lizing mohiyatini to'g'ri tushunish, uning tabiyatini atroficha o'rGANISH, zamонави bozor iqtisodiyotida barcha funktsiyalarini bajarish milliy iqtisodiyotda uni keng tadbiq etish va rivojlantirish uchun huquqiy, iqtisodiy va boshqa sharoitlarni yaratish imkonini beradi.

**Lizing** so'zi inglizcha bo'lib, *lease* fe'lidan kelib chiqqan bo'lib va taxminan, **«mulkni ijara berish»** yoki **«mulkni ijara olish»** ma'nolari foydasini bildiradi. Ba'zi manbalarda ta'kidlanishicha, mashina, jihoz, transport vositalari va boshqa ishlab chiqarishga taalluqli harakatlanuvchi mulkn uzoq muddatli ijara olishdir.

Bir qator maxsus adabiyotlarda ham shunga yaqin ta'riflar beriladi, ularning mualliflari, lizing biznesiga xos ijara munosabatlарining uzoq muddatiligini ta'kidladilar. Biroq o'z mohiyatiga ko'ta, bu munosabatlarning kredit

xususi yatiga ega bo'lgan tabiatini ko'pincha inkor etadilar. Ko'pchilik mualliflar lizingga mohiyatini ochib beruvchi o'ziga xos xususiyatlarni nazardan chetda qoldiradilar.

**M**a'lumki, lizing oddiy ijara emas, balki bu uning o'ziga xos kreditga yaqinlashtiruvchi xossa. Ijaradan farqli o'laroq unda, qoidaga ko'ra, uchta va undan ortiq sub'yekt qatnashadi: uskunalarini yetkazib beruvchi, lizing (moliya) kompaniyalari va foydalanuvchilar.

Iqtisodchilar orasida, «dizing - ijara haqidagi oddiy kengaytirilgan, bitim» yoki «ijara butun muddati mobaynida ijara oluvchining mulkka egalik huquqi saqlangan ijara shartnomasi» yoki «dizing ijara munosabatlarining alohida turi» deb hisoblovchilar ham mavjud.

**Y**uqorida qayd etilgan ifodalarda asosiy e'tibor bitimning o'ziga yoki ijara munosabatlar shakliga qaratilgan, shu bilan birga, uning mazmuni, mohiyati ular tomonidan ochib berilmadi.

**Q**uyidagilar lizing munosabatlarning paydo bo'lish shakllari hisoblanadi:

- qarzga olish (kreditga olish), investitsiyalash;
- xususiy mulk munosabati (lizingga oluvchi topshirig'iga ko'ra mulknisotib o'lish va ijaraga berish);
  - mulkiy munosabat (egalik qilish, foydalanish, mulkiy huquqqa ko'rasarraf etish huquqining alohidalanishi);
  - huquqiy munosabat (lizing ishtirokchilarining o'zaro mas'ullik munosabatlari);
    - aqsimlash munosabatlari (lizing oqibati sifatida);
    - lizing mohiyatidan kelib chiqadigan ijara munosabatlari (egalik, foydalanish, tasarruf etish munosabatlari va lizing beruvchi oldidagi mas'uliyat).

**B**uz yuqorida bayon etgan lizing tarixi va uning rivojlanishi, lizing tushunchasini juda qadimiy ekanligini bildiradi. Shunga qaramasdan, lizing munosabatlarning mohiyati bugungi kungacha turli olimlar va mutaxassislar tomonidan turlicha talqin qilinib kelinmoqda. Lizing amaliyotlarining hajmi kundan-kunga kengayib borayotganligi hamda uning ko'pdan-ko'p shakllari va turlari qo'llanilayotganligi sababli, lizing to'g'risidagi mavjud tushunchalarga anqlik kiritish va uning tub mohiyatini ochib berish ham amaliy, ham nazariy jihatda muhim ahamiyatga egadir.

Bundan tashqari, lizing mohiyatini ochishda uning tarkibiy qismlari bo'lmish, lizing ob'yekti va sub'yektlariga ham anqlik kiritib o'tish maqsadga muvofiq deb hisoblamiz.

**L**izing beruvchi, lizing oluvchi va sotuvchi lizing sub'yektlaridir. Bunda:

• **Lizing beruvchi** - lizing shartnomasi bo'yicha lizing ob'yeqtini ke'yinchalik lizing oluvchiga berish maqsadida mulk qilib sotib oladigan bank yoki lizing kompaniyasi yoki ularning sho'ba kompaniyalari.

• **Lizing oluvchi** - lizing shartnomasi bo'yicha lizing ob'yektiga vacqitinchalik egalik qilish va foydalinish uchun oladigan yuridik shaxs, yakka tartibdagi tadbirkor yoki jismoniy shaxslar.

• **Sotuvchi** - lizing beruvchiga lizing ob'yeqtini sotuvchi yur idik yoki jismoniy shaxslar.

**Lizing ob'yekti** - iste'mol qilinmaydigan va qonunchilik bilan taqiqlanmagan tadbirkorlik faoliyatida qo'llaniladigan har qanday buyumlar, barcha mulk majmualari, shu jumladan, yer uchastkalari va bosqicha tabiat ob'yektlari, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari hamda boshqa ko'char va ko'chmas mulk bo'lishi mumkin.

## 7.5. Investitsiya loyihalari samaradorligini baholashning mo'liyati va shamliyati

Korxona uchun investitsion qarorlar qabul qilish juda qiziqin vazifa hisoblanadi. Bunda asosiy mezon korxona qiymatlarini oshirish mezonlariga qaratiladi. Uning omillari bo'lib korxona daromadlari o'sishi, moliyaviy risk yoki ishlab chiqarish xarakatlarning kamayishi, korxona ishlari sa'naradorligi darajasini oshirish hisoblanadi.

Investitsiya loyihalari bo'yicha bunday natijalarga erishish uchun, har qanday loyihaning samaradorligini baholash zarur bo'ladi. Shunday qilib investitsiya loyihalarining samaradorligini aniqlash muhim ilmiy va amaliy ahamiatga ega. Chunki loyihaning samaradorligini baholash darajasidan qo'yilgan kapitalning qaytib kelish muddati, korxonaning rivojlarni sur'ati hamda boshqa ijtimoiy-iqtisodiy muommalarini hal qilish imkonini beradi.

Investitsiya loyihasi samaradorligini baholashning bu ikkala mezonini ham bir-birini to'ldirib turadi.

Moliyaviy baholash investitsiya loyihasini umumiy realizatsiya (amalga oshirish) jarayonidagi likvidligini tahlil qilishda ishlataladi. Boshqach'a aytganda, moliyaviy baholash vazifasi, loyihani belgilangan muddatlarda amalga oshirish uchun, uning jami moliyaviy majburiyatlarini bajarishga korxona ning yetarli moliyaviy resurslari bo'lishini belgilashdir.

Iqtisodiy baholash esa, investitsiya loyihasining potentsial qobiliyati, shu loyihaga qo'yilgan mablag'larning qiymatini saqlab qolishda va ularning o'sishi sur'atini yetarli darajasini yaratib berishda foydalilanildi.

Taqdim etilayotgan ob'yekti investitsiyalashni moliyaviy baholash (yoki moliyaviy asoslanganlik bahosi) investitsiya jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Investor moliyaviy holati noma'lum bo'lган yuridik yoki jismoniy shaxslar bilan hech qanday munosabatlar olib bormaydi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda, korxonalar moliyaviy hisobotlarini e'lon qilish normal holat hisoblanadi va ular har xil to'plamlar holatida chop etiladi. Bu to'plamlar orqali kompaniyalarning moliyaviy holati to'g'risida ma'lumotlar olish mumkin.

Investitsiya loyihalari samaradorligini baholashning ikkinchi usuli, bu loyihiha iqtisodiy baholash hisoblanadi.

Loyihani iqtisodiy baholash o'z navbatida ikki guruhga bo'linadi:

- Oddiy (yoki statistik) baholash;
- diskontlashga asoslangan baholash.

Birinchi guruhga quyidagilar kiradi:

- investitsiya qoplash muddati (Paback Period, PP);
- investitsiya samaradorligi koeffitsiyenti (Accounting Rate of Return, ARR).

Ko'pchilik hollarda amaliyotda investitsiya samaradorligi koeffitsiyentini (ARR) o'rniغا foydaning oddiy normasi (return on investments, ROI) koeffitsiyentidan foydalilanadi.

Lekin bu ikki koeffitsiyenti hisoblash algoritmi bir xildir.

Ushbu usulning asosiy afzalliklari koeffitsiyentlarni aniqlashda bajariladigan hisob-kitob ishlaringning qulayligi, oddiyligi va tushunarligidadir.

Bu guruh koeffitsiyentining kamchiliklari shundan iboratki, bunday investitsiyalananadigan loyiha bo'yicha vaqt omili hisobga olinmaydi.

Ikkinchidan, investitsiya kapitalining qoplanishi ko'satkichiga asos qilinib, foya olinadi, ammo amaliyotda amortizatsiya ajratmalarini ham investitsiya kapitalining qoplanishi uchun manba bo'ladi.

Shuning uchun investitsiya qoplash muddati koeffitsiyentini (RR) hisoblashda, albatta amortizatsiya ajratmalarini hisobga olish zarur.

Uchinchidan, bu koeffitsiyentlar investitsiya loyihasi bo'yicha bir tomonlama baholashni beradi, ya'ni u foya va investitsiya summalari miqdoriga asoslangan bo'ladi.

Investitsiya loyihalaring samaradorligini chuqur tahlil etish uchun ikkinchi guruh iqtisodiy baholash koeffitsiyentilaridan foydalilanadi. Ularga quyidagilar kiradi:

- Sof keltirilgan qiymat (Net Present Value, NPV) yoki sof joriy qiymat;
- investitsiya rentabelligi indeksi (Profitabilit Index, PI);

- foydaning ichki me'yori (Internal Rate of Return, IRR);
- investitsiya diskontlangan qoplash muddati (Discounted Payback Period, DPP).

Xulosa qilib, shuni aytish joizki, investitsiya loyihalari samaradorligini baholashda ikki usul, ya'ni moliyaviy va iqtisodiy baholashdan foydalaniadi. Bu baholash usullari bir-birini to'ldirib turadi va investitsiya loyihasining samaradorligini aniq va to'liq baholashda muhim rol o'ynaydi.

### Nazorat savollari

1. Investitsiya loyihasining mazmuni va mohiyati.
2. Investitsiya g'oyasini shakllantirish ishlari haqida tushuncha.
3. Investision imkoniyatlarni tadqiq etish ishlari haqida tushuncha.
4. Investitsiya loyihasini texnik iqtisodiy asoslash haqida tushuncha.
5. Investitsiyaning hayotilik sikllari haqida tushuncha.
6. Investitsiya loyihasining oldi bosqichida taxlil qilinadigan masalalar.
7. Investitsiya loyihasining investitsiya bosqichida tahlil qilinadigan masalalar.
8. Investitsiya loyihasining ekpluatatsiya bosqichida tahlil qilinadigan masalalar.
9. Loyihaviy moliyalashtirish mohiyati va ahamiyati.
10. Loyihaviy moliyalashtirishning bank kreditidan farqi va vazifalari.
11. Investitsiya loyihalarini parallel moliyalashtirishning mazmuni va mohiyati.
12. Investitsiya loyihalarini hamkorlikda moliyalashtirishning mazmuni va mohiyati.
13. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda sindisiyalashtirilgan kreditlarning roli.
14. Loyihani texnik iqtisodiy asoslashning afzalliklari.
15. Loyihani dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash texnik iqtisodiy asoslash farqlari.
16. Loyihani texnik-iqtisodiy asoslashning biznes rejadan farqlari.
17. Loyihani texnik-iqtisodiy asoslash puxta ishlab chiqilganligini aniqlash omillari.
18. Loyihani texnik-iqtisodiy asoslash uchun bajariladigan ishlar va ular bilan bog'liq xarajatlar.
19. Tadbirkorlik faoliyatida lizingning afzalliklari.
20. Lizingning iqtisodiy mohiyati va vazifalari.

## VIII-BOB. BIZNESNI BAHOLASHNING USLUBIY HOLATI

### 8.1. Baholash faoliyati tushunchasi va mohiyati

Bozor iqtisodiy sharoitida sotuvchi ham, oluvchi ham bitim tuzib, tavakkal qilar ekan, o'zini qiziqtirayotgan ob'yeckning sotilish bahosi haqida bilishni istaydi. Ammo, ob'yeckning bozor narxi bitim imzolangandan keyingina ma'lum bo'ladi. Odamzot tarixida, Aristotel' zamonidan to bizning kunimizgacha ham hech kimga, hatto mislsiz aql sohibiga ham bozor bahosining aniq miqdorini belgilash usulini topish nasib etmagan.

Shu bilan birga, bitimning bozor bahosi asosida sotuvchi va xaridorning baho rnasalasida kelishivi zamirida hal qiluvchi natija sifatida ichki miqdor-aniq bozor sharoitida son jihatidan aniqlangan, o'zi bilan bozor qiymati ni beradigan qiymat yotadi. Aynan mana shu miqdorni ekspert-baholovchi aniqlashga harakat qiladi. O'zbekiston Respublikasining "Baholash faoliyati haqida"gi Qonuning 3-moddasida shunday deyilgan: "*Baholash faoliyati tushunchasi zamirida baholovchi (yuridik yoki jismoniy shaxs)ning ob'yeckning qiymat bahosini belgilashga yo'naltirilgan faoliyati tushuniladi.*"

Baholovchilar ob'yeckning bahosini aniqlashda umuman bozorning holati va shu segment haqida mavjud bo'lgan boshqa ma'lumotlarga qo'shimcha ravishda buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan, tashqi manbalardan kelib tushgan ma'lumotlardan foydalanadi. Olingan ma'lumotlar asosida ob'yeckni yaratish uchun sarflangan pul miqdori, uning keltingan foydasi, bu foyda bilan yonma-yon turgan xavf - xatar va boshqalar hisoblab chiqiladi. Aniqlangan miqdor bitimning bo'lajak bahosiga mos kelishi ham, undan farq qilishi ham mumkin. Bundan tashqari, ma'lum bir ob'yeck bo'yicha sotuvchi va xaridorning buyurtmasini bajara turib baholovchi har xil miqdorga ega bo'ladi, shu bilan birga, buyurtmachilar tomonidan kutilmagan ma'lumotlar bazasiga duch kelish ham kuzatiladi. Ammo bunday har xillik muhim ahamiyat kasb etmasligi kerak. Shunday ekan, baholovchi tomonidan aniqlangan baho bu bozor narxi ham emas, tovarning tan narxi ham emas. Bu shu ikki narx orasida boholanayotgan ob'yeckning o'ziga xos xususiyatlari va mazkur vaqtidagi umumbozor parametrlarini organik birlashtirgan holda, birini ikkinchisi bilan ifodalagan tarzdagi oraliq holatni egallaydi. Shuning uchun har qanday baho aniq paytga "bog'liq" bo'ladi.

Baholash faoliyatining mohiyati va o'ziga xos jihatlarini tushunish uchun imkon qadar ochiq ma'lumotlar berish zarur. Biznesning miqdor bahosini belgilashda har qanday xususiy mulk ob'yeckning miqdori aniq vaqt va holatda,

aniq bozor sharoitida ta'sir ko'rsatadigan boshqa omillar qiymatini nazarda tutgan holda pul shaklida ma'lum maqsad sari yo'naltirilgan, tizimli jarayon nazarda tutiladi. Tannarxni aniqlashning bir qarashda bir oz qo'pol ko'rning bu shakli mazkur jarayoning asosiy belgilarini oshib beradi.

Biznesning bozor bahosining har xil ta'riflari mavjud. Ulardan har birini alohida ko'rib chiqamiz. Birinchidan, biznes (tashkilot)ning miqdor bahosi-bu jarayon. Ekspert-baholovchi bu jarayonda natijaga erishish uchun bahoning maqsadi bilan bog'liq bo'lgan mazmun va ketma - ketlilik, ob'yeqtning parametrlari va tanlangan usuli bilan bog'liq bir qator operatsiyalarni amalgalash kerak. Ikkinchidan, baholashning barcha bosqichlari uchun umumiy bo'lgan jihatlarni ajratish lozim. Masalan, baholashning maqsadini aniqlash; narxning hisob - kitob bilan bog'liq turini tanlash; zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash; tannarxni baholash usullarini asoslash; ob'yeqtning miqdoriy tannarxini hisoblab chiqish, tuzatishlar o'tkazish; yakuniy bahoni chiqarish; natijalarini tekshirish va taqposlash. Bosqichlarning birortasini o'tkazib yuborish yoki o'rmini almashtirish mumkin emas. Bunday o'zboshimchalik natijaning noto'g'ri bo'lishiga olib keladi. Bundan kelib chiqadiki, baholash faoliyati - ketma-ketlilik jarayoni: barcha ishlar ma'lum izchillikda amalgalash kerak. Uchinchidan, tannarxni baholash - ma'lum maqsad sari yo'naltirilgan jarayon. Ekspert – baholovchi o'z faoliyatida hamisha aniq maqsad asosida ish olib boradi. Albatta, u ob'yeqt tannarxining miqdorini hisoblab chiqishi, qanday narxni belgilash lozimligi baholash maqsadiga, shu bilan birga, baholanadigan ob'yeqtning parametrlariga ham bog'liq. Masalan, biznes miqdorini baholash oldi - sotdi bitimi maqsadida amalgalash kerak bo'lsa, unda bozor narx hisoblab chiqiladi; agar biznes miqdorini baholash uni tugatish maqsadida amalgalash kerak bo'lsa, unda likvidli narx hisoblab chiqiladi.

To'rtinchidan, tannarxni belgilash jarayoni shundan iborat bo'ladiki, baholovchi tannarxning miqdorini pul birligi shaklida belgilaydi. Shundan kelib chiqib qiymatga oid barcha ko'rsatkichlar, ular aniq o'lchovga va pul birligiga qanchalik mos kelishidan qat'iy nazar, son bilan ifodalanishi lozim.

Beshinchidan, biznes qiymatini baholashning mohiyatiga oid jihatlari bozor bilan bog'liq vaziyatga tayanadi. Bundan ko'rindaniki, baholovchi baholanayotgan ob'yeqtning qurilishi yoki sotib olinishi, texnik xarakteristikasi, joylashgan o'rni, keltiradigan daromadi, aktiv va vazifalarning tarkibiy va tuzilishi kabi xaratjatlar bilan cheklanib qolmaydi. U albatta: bozor konyukturasi, raqobatning darajasi va strategiyasi, baholanayotgan biznesning bozordagi ulushi, uning makro va mikroiqtisodiy muhitdagi o'rni, unga ta'sir etadigan xavf-xatarlar, olinadigan foydaning o'rtacha darajasi, o'xshash ob'yeqtarning bahosi va shu kabi bozor

omillarning barchasini hisobga oladi.

Bozor iqtisodiyoti o'z dinamikasi bilan ajralib turadi. Shu ma'noda vaqt – butun bozor jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi muhim faktor bo'lib, biznesning (tashkilotning) bahosini qamrab oladi. Daromad olish vaqt yoki foydani olgungacha bo'lgan vaqt interval yoki oraliq davr bilan o'lchanadi. Bu interval yoki oraliq davr kun, hafta, yo, kvartal, yarim va hatto bir ylga teng bo'lishi mumkin.

Ma'lumot davrinning davomiyligi bozor narxi qiymatiga, avvalo, diskontlash davriga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Biznesning bozor narxi bir qator faktorlar ta'sirida, vaqtida o'zgaradi. Shuning uchun u aniq kunga bog'liq bo'ladi. Bir necha oydan keyin esa hammasi boshqacha bo'lishi mumkin. Shuning uchun ob'yektlarni doimiy ravishda qayta baholab turish zarur.

Bozor iqtisodiy sharoitida boshqa muhim faktorlardan biri xavf-xatardir. Xavf-xatar deganda bozordagi holatning, makroiqtisodiy jarayon va hokazzolarning doimiy emasligi va aniq emasligi tushuniladi. Boshqacha aytganda xavf-xatar – baholangan biznes keltiradigan daromadning prognoz qilinganidan ko'pligi yoki kamliq ehtimolidir. Biznesni baholashda xavf-xatarning har xil turlari mavjudligini, bozor sharoitida mablag'ning hech biri xavf-xatardan holi emasligini hamisha yodda tutish lozim.

Hisoblab chiqilgan miqdorning bozor narxi yoki uning boshqa turi belgilangan narxning natijasi bo'lib xizmat qiladi. Bozor narxi – mazkur ob'yektning bahosi ochiq bozorda aslidan ancha uzoqlashgan, bo'lishi mumkin bo'lgan narx hisoblanadi. Agar tomonlar bitimni barcha ma'lumotlarga ega bo'lgan holda oqilona tuzsalar, favqulodda holatlar ularning bitimlariga o'z ta'sirini ko'rsatmaydi.

Oltinchidan, bozor narxi albatta pul birligida, masalan, so'm yoki dollar shakli da aniqlanadi. Bunda, avvalo, tanlangan valyuta asosida ish olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan tashqari, ish tutishning mazkur usuli hisob-kitobning aniq bo'lishiga va valyutaning bir turidan ikkinchisiga o'tishda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatoliklarning oldini olishga erishiladi.

Biznesning narxini belgilashda baholovchi baholanayotgan ob'yektping aylanrnna daromadi, xavf-xatar, bu foydani nazorat qilib olish, bozor sharoitida o'rtacha foya olish darajasi, shunga o'xshash boshqa ob'yektlarning bahosi, baholanayotgan ob'yektning xarakterli tomonlari, aktivlarning tarkibi va vazifalari (tarkibiy qismlari), bozor holati kabi asosiy faktorlarni to'liq hisobga olishga harakat qiladi.

"Baho" atamasi nafaqat iqtisodiyotda, balki boshqa sohalarda ham keng qo'llaniladi. "Faoliyatni baholash", "auditor bahosi", "buxgalter bahosi" "reyting

bahosi” kabi iboralar keng qo’llaniladi. Bozor bahosi yoki qiymat bahosi bularning barchasidan nimasi bilan farq qiladi?

Shu narsa tamoyili ahamiyat kasb etadiki, sifatli bozor bahosida sarflangan xarajat bilangina chegaralanmaydi, balki iqtisodiy imidj, tashkilotning bozordagi o’rni, vaqt va xavf-xatar omili, raqobat darajasi kabilar albatta e’tiborga olinadi. Baholovchi baholash jarayoniga firmaning iqtisodiy kontseptsiyasidan kelib chiqqan holda yondashadi.

Mazkur kontseptsiyaning buxgalteriya konyeptsiyasidan farqi shundaki, u firmanın bozor bahosini belgilashga imkon beradi. Bu kontseptsiyada vaqt, xavf-xatar, sezilmas aktivlar, tashqi raqobat muhit va baholanayotgan ob’yektning ichki xususiyatlari hisobga olinadi. Daromad yoki naqd pul keltiradigan har qanday ob’yektning bozor bahosi keladigan naqd pulning diskont qilingan miqdoridan kelib chiqib aniqlanadi.

Firma aktivining balans yoki buxgalter bahosi:

$$A = O + SK$$

bu yerda, O – majburiyat; SK – sof xususiy kapital.

Agar xususiy kapitalning balans bahosi uning real bozor yoki iqtisodiy bahosiga mos kelmasa, unda yashirin yoki balansdan tashqari kapital bo’lishi lozim.

Xavf-xatar masalasiga kelsak, buxgalter bahosi “bitta xatar hamma maga ta’sir ko’rsatadi” degan qarashdan kelib chiqadi. Ammo har bir firma daromad olishda xavf-xatarning turli shakillari bilan to’qnashadi va daromad olishning o’z xususiy darajasi bo’ladi.

Shu ma’noda, buxgalter modeli firmanın real bahosini belgilay olmaydi. Iqtisodiy kontseptsiya bazasida belgilangan baho tashkilotning kelajak-dagi taqdiri haqida real tasavvur beradi. Bu hamma uchun ya’ni xususiy tadbirkor, boshqaruvchi, istemolchi, taqdimotchi, bankir, sug’urta va soliq idoralari va investorlar uchun ham qadrlidir.

Bozor qiymatining bahosi sotuvchi va xaridorga tovarning asoslangan bahosiga tayangan holda bitim tuzish imkonini beradi. Chunki bozor narxi nafaqat individual va kutilayotgan xarajatlarni, balki bitim ob’yektiga bozoring ta’sirini, umumiyyatidagi joriy taraqqiotni, umuman bozordagi aholvolni ham hisobga oladi.

Bozor narxining qiymatini bilish xususiy tadbirkorga ishlab chiqarish jarayonining o’sishiga, biznesni rivojlantirishga yo’naltirilgan bir qator tadbirlarni aralga oshirish imkonini beradi. Baholashning uzlusiz tarzda amalga oshirib turilishi boshqarish samaradorligining ortishiga olib keladi hamda bankrot va inqiroz holatlaridan himoya qiladi.

Baholash an'anaviy sarf-xarajatlarni qisqartirib, to'g'ri investitsion qarorlar chiqarishga imkoniyat yaratadi. Agar nazarda tutilgan bitinining har bir ishtirokchisi u yoki bu ob'yektni o'zicha baholashga urinsa, uning xarajatlari ahamiyatli bo'lib, ma'lumotlar bazasi shakllangan bo'lar edi. Professional baholovchida tashkilotlar mablag'idan ko'p marta foydalanish natijasida, ma'lum aloqa va kontaktlari asosida tranzaktsion sarf-xarajatlar kam bo'ladi. Bundan tashqari, baholash ishlarini tashkil etishda professional bilim va ko'nkmalar zarur bo'ladi. Shuning uchun ham biznes bahosini belgilashni maxsus tayyo rgarlikdan o'tgan ekspert-baholovchilar amalga oshiradilar.

Professional baholovchiga buyurtma berganda investor u bilan shartnoma tuzadi. Shartnomada tomonlarning huquq va burchlari belgilanadi. Baholovchi hajari ladigan ishning sifatiga javobgar hisoblanadi, demak, noto'g'ri baholash xavfi buyurtmachining emas, ekspertning zimmasiga yuklanadi. Va nihoyat, makroiqtisodiyot aspektida biznes bahosi iqtisodni davlat tomonidan boshqarish va ta'sribga solish richaglaridan biri hisoblanadi hamda davlat va munisipial mulklarni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## 8.2. Baholash jarayonining sub'yekti va ob'yekti

Ob'yektni samarali boshqarish va taqsimlash maqsadida uning bozor yoki boshqa turdag'i bahosi aniqlangach bu jarayonda kimlar ishtirok etishi va aynan qaysi ob'yektlarda mumkinligini ham aniqlash lozim. Narx belgilanayotganda ob'yekt va sub'yektlarning bahosi ham nazarda tutiladi.

**Baholash faoliyatining sub'yekti jismoniy va yuridik shaxslar**, davlat hokimiysi organlari, o'z-o'zini boshqaruvchi tashkilotlarning baholovchilari hisoblanadi. Baholash jarayonining sub'yektlariga quyidagi larni kiritish mumkin:

- davlat hokimiyyati organlari;
- tashkilotlar va yuridik shaxslarning individual baholovchilari;
- baholovchilarning professional uyushmasi;
- buyurtmachi-baholovchilarni – baholovchi va yuridik yoki jismoniy shaxslarning yozma shakldagi shartnoma bo'yicha o'zaro kelishuv asosida u yoki bu ob'yektning baholanishi amalga oshiriladi;
- baholash xizmatining iste'molchilari – ijro hokimiyatining baho haqidagi hisobotda o'z aksini topadigan ma'lumotlarga ega bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslari.

Ob'yektlarni individual tadbirkorlarning baholovchilari yoki baholovchi kompaniyalarning baholovchisi kabi jismoniy shaxslar ham baholashlari mumkin. Oxirgi holatda aynan baholovchi kompaniya ob'yektni baholash uchun

buyurtmachi bilan shartnoma tuzadi. Ob'yeektni baholovchi sub'yeektlar sifatida, bir tomonidan, faoliyati qonun bilan belgilab qo'yilgan (baholovchilar) yuridik va jimoniy shaxslar (individual tadbirkorlar), ikkinchi tomonidan, ularning xizmatidan foydalanadigan iste'molchilar (buyurtmachilar) tan olinadi. Shu tariqa buyurtmachi, va baholovchilar – birinchi bosqichning sub'yeektlari, qolgan barchasini ikkinchi bosqichdagi sub'yeektlar deb atash mumkin.

Hokimiyat organlari tizimni shakllantirishda, talablarni be Igilashda, baholash jarayonini tashkil etish uchun shart-sharoitlar yaratishda, normativ huquqiy aktlar va ularni ijro organlari tomonidan amaliyotga joriy qilinishida va baholovchilarning faoliyatini nazorat qilishda ishtiroy etadi.

Hokimiyat organlarining normativ huquqiy aktivini baholash jarayonini qat'iy tartiha bog'lanib qolishidan saqlash va real iqtisodiy hayotga imkon qadar, yaqinlashtirish maqsadida baholovchilarning o'zлari ushbu jarayonda faol ishtiroy etishini maqsadga muvosiq ekanligi nazarda tutiladi.

Baholash natijalarining iste'molchilariga kelsak, ular buyurtmachilar bo'lishi shart emas. Baholash natijalarining har qanday ishtirokchisi uning iste'molchisi bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, hokimiyat organlari ham (davlat yoki munitsipial mulk egalari ham xususiylashtirilgandan keyin xususiy mulk egasi rolida chiqishi mumkin). Baholashda buyurtmachi va iste'molchinining ehtiyojlari bunday vaziyatlarda mutanosib kelmasligi ham mumkin. Agar ob'yeektni baholash jarayoni uni soliqqa tortish maqsadida mustaqil baholovchilar tomonidan amalga oshirilsa, unda mustaqil baholash xizmatining iste'molchisi ob'yeektni baholash bo'yicha hisoboti bilan uning to'g'rilingini nazorat qilish mazmuni bilan bog'liq ma'lumotlardan foydalanuvchi soliq organlari hisoblanadi. Soliqqa tortiluvchi esa buyurtmachi vazifasida chiqadi va bu ikki tomonning qiziqishlari bir-biriga zid bo'ladi. Baholash jarayoni natijalarining (narxning) aniqligi uchun baholovchi to'liq javobgar bo'ladi. Ammo buyurtmachi baholovchini baholanuvchi ob'yeektni baholash bilan bog'liq hujjatlarning to'liqligiga va baholovchiga ob'yeektan bermolol foydalish huquqini berishga mas'ul hisoblanadi.

Baholash ishini tashkil etishda baholash haqida shartnoma a'sos bo'lgan hollarda O'zbekiston Respublikasining "Baholash faoliyati haqida"gi fuqarolik qonunlari talablari tomonlar ixtiyoriga havola etiladi.

Qonunga binoan shartnomada buyurtmachi va baholovchi jismoniy va yuridik shaxslar bo'lishi mumkin. Buyurtmachi baholovchidan farqli o'laroq individual xususiy tadbirkor bo'lmagan jismoniy shaxs ham bo'lishi mumkin. Har ikki tomon orasida ma'lum bir ob'yeektni baholash haqida shartnoma rasmiylashtiriladi yoki uzoq muddatga bir qator ob'yeektlarni baholash haqida

buyurtmachining arizasiga asoslaniladi.

Ta'kidlash joizki, "baholovchi" atamasi ikki ma'noda qo'llaniladi: biringchidan, baholovchi – baholash jarayonini amalga oshiruvchi firma yoki individual tadbirkor; ikkinchidan, baholovchi – baholash jarayonini amalga oshiruvchi professional jismoniy shaxs.

Shu tariqa baholash jarayonini amalga oshiruvchilar bu borada umumiy qobiliyatga va huquqqa ega bo'lgan, uning ustavi bilan tanish bo'lgan individual tadbirkorlar, yuridik shaxslar bo'lishi mumkin.

Baholanadigan ob'yektlar orasida biznes (tashkilotlar, idoralar, kompaniyalar) salmoqli o'rinni egallaydi. Biznesni baholashda ob'yekt sifatida foyda olishga yo'naltirilgan va tashkilotning faoliyatiga asoslangan mulk kompleksi faoliyati namoyon bo'ladi. Tashkilot fuqarolik huquqi ob'yekti hisoblanib, xo'jalik oborotiga kiradi, xo'jalik operatsiyalarida ishtirok etadi. Natijada uning qiymatini baholashga ehtiyoj paydo bo'ladi. Tashkilotning mulki majmuua tarkibiga uning maqsadlari yo'lida xizmat qiladigan, xo'jalik ishlari yuritish uchun zarur bo'lgan, foyda olishga xizmat qiladigan mulkning barcha turlari, shu bilan birga, ko'chmas mulk (yer maydoni, bino, inshootlar, mashinalar, asbob-uskunalar, boshqa transport vositalari, inventarlar, xom ashyo, mahsulot, mulkiy majburiyatlar, qimmatbaho qog'ozlar, nomaterial aktivlar, intellektual xususiy mulk ob'yektlari, fermaning nomi, xizmat belgilari, patentlar, litserniziylar, yangiliklar, tovar belgilari kiradi. Shuning uchun biznesni baholashda baholovchi tashkilotni uning xususiy kapitali qiymatini aniqlagan holda, umumiy tarzda va mulkiy majmuuning ayrim qismlarini (aktivlar va vazifalarini) alohida baholaydi.

Tashkilot baholash ob'yektining murakkab tizimi sifatida aniq baholanadigan chegaraga ega bo'lishi lozim, chunki baholanayotgan biznes har xil tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi. Tashkilotning tarkibiga har xil bo'limlarda va hujudlarda joylashgan sexlar, uchastkalar, xo'jalikni yuritish uchun zarur bo'lgan ashyojar, maxsus bo'limlar, idora tizimi, kommunikatsiya va aloqa vositalari kirishi mumkin. Tashkilot mavjudligining tashkiliy-huquqiy shakli ham muhim ahamiyat kash etadi. Birlashmalar, xoldinglar, moliyaviy-sanoat guruhlari baholash ob'yekti bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda bir biznes doirasida tarrho-qdan ajralib chiqqan bir nechta kompaniyalar, bo'limlar, filiallar birlashadi. Biznesni to'g'ri baholash uchun pul oqimini va ularning yo'nalishini, shu bilan birga, har bir bo'limning haq-huquqlarini nazorat qilish kerak. Ob'yektning tarkib ida ijtimoiy-madaniy jabhalar bor-yo'qligini, uning umummilliy qadriyatga ega ekanligini ham aniqlash lozim bo'ladi.

Biznesni baholashda tashkilot yuridik shaxs bo'lgan holda bir vaqtning

o'zida xo'jalik sub'yekti bo'lishi ham mumkinligini hisobga olish lozim. Shuning uchun ob'yefti baholash jarayonida ma'lum yuridik huquqlarning mavjudligini ham nazarda tutish lozim. Bu biznesning baholash ob'yefti sifatidagi o'ziga xos jihatini namoyish etadi. Baholanayotgan biznesning o'ziga xos tomonlaridan yana biri shundan iboratki, baholovchi baholanayotgan ob'yeftning mulkiy kompleksi (moddiy buyum) ning qiymatini ham, tashkiliy va rivojlanish samaradorligini (tashkilotning moliysi, boshqarish tizimi va h.k.) ham aniqlashi lozim.

Har qanday biznesning asosini tashkilotning ma'lum tashkiliy tizimda harakatlanadigan kapitali tashkil etadi. Shuning uchun biznesni baholayotganda baholovchi xususiy kapitalni ham ishlab chiqarish omili sifatida, ham biznesning asosiy mohiyati sifatida tashkiliy-huquqiy shaklini, tarmoq xususiyatlari va nomaterial aktivlarini nazarda tutgan holda aniqlaydi. Masalan, biznesni – ochiq aktsiyadorlik jamiyatini baholashda jamiyat kapitalini tashkil etadigan oddiy 100 foizli paketlarning bozor narxi aniqlanadi. Biznes egasi uni sotish, garovga qo'yish, sug'urta qilish va meros qilib qoldirish huquqiga ega. Biznes unga tegishli bo'lgan barcha jihatlar bilan bitim ob'yefti hisoblanadi.

Har qanday tovar singari biznes xaridor uchun foyda keltiruvchi manba hisoblanadi. Eng avvalo, u daromad olish ehtiyojiga mos kelishi lozim. Har qanday boshqa tovar singari biznesning foydali jihatlari undan foydalananilganda namoyon bo'ladi. Agar biznes tadbirkorga daromad keltirmasa, u o'z qimmatini yo'qotadi va sotuvga qo'yiladi. Boshqa kimdir bu biznesda daromad olishning boshqa yo'llarini ko'rsa, uni sotib olishga ehtiyoj sezadi. Ayni vaqtida daromad olish manbaini qayta ishlab chiqarish yoki ma'lum xarajatlar bilan boshqa biznesga, tashkilotga aylantirish ham mumkin.

Baholovchi tomonidan hisoblab chiqilgan daromad va xarajatlarning barchasi bozor narxining asosiy qiymatini tashkil etadi. Biznes faoliyatning aniq turi sifatida bozor iqtisodiy sharoitida tashkilotning tashkiliy shakli sifatida mulkdorning sarflagan resurslarini qoplab, daromad olishdagি ehtiyojlarini qondiradi.

Biznes – tashkilot tovarning barcha belgilarini o'zida mujassam lashtiradi va oldi-sotdi ob'yektiga aylanadi. Ammo u alohida mavqega ega bo'lgan tovar hisoblanib, uning boshqachaligi uni baholash tamoyillari, yondoshuvi va usullariga xizmat qiladi.

### **8.3. Baholash maqsadi va qiymat turlari**

Malakali baholovchi o'z faoliyatida hamisha ma'lum maqsad asosida ish yuritadi. Maqsadning aniq va oqilonqa belgilanishi hisoblanadigan qiymatni to'g'ri 108

belgilash va baholash usullarini to'g'ri tanlash imkonini beradi.

Baholash maqsadi mijoz investitsion qaror qabul qilishi, bitim tuzishi, moliyaviy hisobotga o'zgarishlar kiritishi uchun zarur bo'lgan baholanadigan qiymatning u yoki bu ko'rinishini aniqlashdan iborat bo'ladi. Baholash ishlarning tashkil etilishidan davlat tizimidan tortib, xususiy shaxslargacha nazorat-tekshiruv organlari, boshqaruv tizimi, kredit organlari, sug'urta kompaniyalari, soliq firmalari, biznesning xususiy egalari, investorlar singari har xil tomonlar manfaatdor bo'lishi mumkin.

Baholash jarayonida ishtirok etadigan tomonlar o'z iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqib baholash maqsadini belgilaydilar.

Biznesni baholash quyidagi maqsadlarda amalga oshirilishi mumkin:

- tashkilot yoki firmani boshqarish samaradortligini oshirish;
- tashkilot obligatsiyalari va aksiyalarini bozor fondida sotish;
- asoslangan innovatsion qarorlar qabul qilish;
- tashkilotni yaxlit yoki uning yarim qismlarini sotish;
- shartnoma bekor qilinishi yoki sheriklardan birining vafoti munosabati bilan hamkorlarning ulushini belgilash;

- tashkilotning qayta tuzilishi. Tashkilotni yo'qotilishi, birini-biri yutib yuborishi, ularning birlashtirilishi yoki xolding tarkibidan ayrim tashkilotlarning ajrab chiqishi uning bozor narxini belgilashni taqozo etadi. Shunday holatlarda aksityalarni sotish yoki sotib olish narxi, konversiya narxi yoki birlashtirilgan tashkilot aktsionerlariga beriladigan mukofot qiymatini aniqlash;

- tashkilotni takomillashtirish rejasini ishlab chiqish. Strategik rejalashtirish jarayonida firmanın nazarda tutilayotgan daromadini, uning qat'iyligi darajasi va imijining qiymatini baholash;

- tashkilotning kreditga qodirligi va uning kredit olishdagi garov qiymatini aniqlash. Bunday vaziyatlarni baholashda buxgalter hisobi bo'yicha aktivlar qiymatining bahosi uning bozor bahosidan keskin farq qilishi mumkin;

- yo'qotish holatiga kelib qolib, aktivlarning qiymatini belgilash zaruriyati paydo bo'lganda sug'urta qilish;

- soliqqa tortilish. Soliqqa tortilishi lozim bo'lgan baza aniqlangan holatlarda tashkilotning daromadi va uning imijini ob'yektiv baholashni tashkil etish;

- asosli boshqarish uchun zarur bo'lgan qarorlar qabul qilish. Inflatsiya tashkilotning moliyaviy holatini buzadi. Shuning uchun mulkni mustaqil baholovchilar yordamida muntazam ravishda qayta baholab turish moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun baza hisoblangan moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini oshirish imkonini beradi;

- biznesni rivojlantirishni investitsion loyihalashtirish. Bunday holatlarda uni asoslash uchun korxonaning dastlabki bahosini, uning xususiy kapitali, aktivini bilish zarur.

Agar bitim ob'yekti tashkilot mulkinining biror elementi bo'ladigan bo'lsa, yoki biror narsasiga soliq belgilanadigan bo'lsa, zaruriy ob'yekt alohida baholanadi. Masalan, mashina, uskunalar, nomaterial aktivlar va hk.

Tashkilotning alohida mulk elementlari qiymatini baholash quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- ko'chmas mulkning biror qismi sotilganda, masalan, foydalanilmay yotgan yer mulki, bino, inshootdan qutulish zarurati paydo bo'lganda;

- kreditorlar bilan hisoblashish kerak bo'lganda;

- sud qarori bilan hamkorlardan biriga yetkazilgan moddiy zararni qoplash kerak bo'lganda va boshqalar;

- ko'chmas mulkning bir qismini garovga qo'yib kredit olishda;

- ko'chmas mulkni sug'urta qilishda shu bilan bog'liq sug'urta qilinadigan mulkning sug'urta narxini belgilashda;

- ko'chmas mulkni ijaraga berilganda;

- mulkni soliqqa tortish uchun soliq miqdorini aniqlashda;

- ko'chmas mulkning bir qismlarini yangi tashkil etilgan boshqa tashkilotga mulk sifatida rasmiylashtirishda;

- birorta investitsion loyihanining biznes-planini ishlab chiqish va baholashda;

- ko'chmas mulkni baholashda oraliq bosqich sifatida tashkilot qiymatining umumiyligi bahosidan foydalanishga xarajat sifatida yondashuvda.

Bahoning asosligi va ishonchiligi ko'pincha nimani baholashga va uning qanchalik to'g'ri belgilanganligiga bog'liq bo'ladi: oldi-sotdi, kredit olish, sug'urta, soliq to'lash, qayta tuzish va boshqalar.

Baholash jarayonini tashkil etish uning maqsadi, soni, hisobga olinishi lozim bo'lgan omillarni jamlash bilan bog'liq bo'ladi. Baholovchi bozor narxini yoki undan farq qiluvchi qiymat shaklini hisoblab chiqadi. Baholash standartida baholash jarayoni sub'yektlari tayanishlari lozim bo'lgan qiymatning (baholash narx) quyidagi shakllari o'rganiladi:

- bozor bahosi;

- ob'yekti qiymati bahosining bozor bilan cheklangan narxi;

- ob'yektning almash tirish bahosi;

- ob'yektning takror ishlab chiqarish bahosi;

- ob'yektning foydalanilayotgan vaqt dagi bahosi;

- investitsion baholash narx;

- ob'yektni soliqqa tortish uchun belgilanadigan bahosi;

- likvidlashtitish bahosi;
- chiqitga chiqarish bahosi;
- maxsus bahosi.

#### **8.4. Biznesni baholashning yondoshuv va usullari**

Biznesni baholash uch yondashuv asosida amalga oshiriladi: daromadga oid, qiyosiy va xarajatga oid. Har bir yondashuv ob'yeqt xarakteristikasining o'ziga xos tomonlarini namoyish etadi.

Biznesni baholashning *daromadga oid* yondashuvida daromad ob'yeqtning bahosini belgilovchi asosiy faktor sifatida yetakchi o'ringa qo'yildi. Ob'yeqt tomonidan qancha ko'p daromad keltirilsa, uning bozor bahosi shuncha yuqori bo'lib boraveradi. Bu yerda daromad olish mazkur jarayonning davomiyligi, u bilan hamisha birga bo'ladijan xavfning shakli va darajasi ham muhim ahamiat kasb etadi. Daromadga oid yondashuv-xususiy mulkdan foydalanish natijasida vujudga keladigan bo'lajak daromadning uni sotishda qo'l keladigan amaldagi qiymati bilan hisoblab chiqariladi. Bunday holatlarda kutish tamoyili qo'llaniladi.

Daromadga asosan yondashuv biznesni baholashda nisbatan mos keladigan ish turi hisoblanadi. Ammo, qiyosiy va xarajatga oid yondashuvlardan ham foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayrim hollarda qiyosiy va xarajatga oid yondashuvlar nisbatan aniq, samarali bo'lishi mumkin. Ko'p hollarda ularning uchlasidan ham boshqa yondashuvlar asosida qiymat bahosi bo'yicha olingan ma'lumotlarni tekshirishda foydalanish mumkin.

Qiyosiy yondashuv xususiy mulk ob'yeqtlarini taqqoslash bozori chaqqon bo'lganda o'ta samarali bo'ladi. Bahoning aniqligi to'plangan materialning aniqligiga bog'liq bo'ladi. Chunki bu yondashuvni qo'llaganda baholovchi qiyoslanayotgan ob'yeqtarning yaqin oradagi sotuvi haqida aniq ma'lumot to'plashi kerak. Bunday ma'lumotlar sirasiga: iqtisodiy xarakteristika, sotilish vaqt, joylashgan o'rni, sotilish va moliyalashtirish shartlari kiradi. Agar bitimlar kam bo'lsa; tashkil etilgan vaqt bilan baholash orasini katta vaqt birligi ajratib tursa; bozor turg'un holatda bo'lsa bu yondoshuvning ta'sir kuchi kamayadi. Chunki bozordagi o'zgarishlarning tezlig ko'rsatkichlarning buzilishiga olib keladi. Qiyosiy yondashuv almashuv tamoyilining qo'llanilishiga asoslanadi. Taqqoslash uchun baholayotgan biznes bilan raqobatlashayotgan ob'yeqtlar tanlanadi. Odatda ular orasida farq bo'ladi, shu bois ma'lumotlarning tuzatishlarini tashkil etish joiz.

Xarajatga oid yondashuv tashkilotlarni baholashda har xil aktivlarga ega bo'lgan, shu bilan birga moliyaviy, hatto biznes qat'iy daromad keltirmagan


holatlarda ham, ancha qo'l keladigan yondashuv. Xarajatga oid yondashuvning usullarini, biznesning maxsus shakllarini baholashda, ularni sug'urta qilish hollarda ham qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. To'plangan ma'lumotlar baholanayotgan aktiv haqidagi (yerning bahosi, qurilish bilan bog'liq bo'lgan maxsus ma'lumotlar va hk.), to'lanadigan ish haqining darajasi, materiallarning bahosi, jihozlarga sarflangan mablag', foyda va qurilish jihozlariga sarflangan harajatlarning holati to'g'risidagi va boshqa qator ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Xarajatga asoslangan yondashuvdan tarixiy qimmatga ega bo'lgan, estetik xarakterdagi yoki eskirgan ob'yektlar singari kam uchraydigan ob'yektlarni baholashda foydalanish qiyin.

Xarajatga oid yondashuv quyidagi: nisbatan yaxshiroq va samaraliroq foydalanish maqsadidagi almashinuv, tenglashtirish, iqtisodiy kattaligiga, iqtisodiy bo'linish tamoyillariga asoslanadi.

Uchala yondashuv o'zaro bog'langan. Ulardan har biri bozordan olingen har xil ma'lumotlardan foydalanishni nazarda tutadi. Masalan, xarajatga binoan yondashuv uchun materiallarga va ishchi kuchiga oid ma'lumotlar baza hisoblanadi. Daromadga oid yondashuv uchun esa xuddi shunday bozor ma'lumotlari asosida hisoblab chiqiladigan diskontga oid stavka va kapitallashtirish koefitsiyenti baza hisoblanadi.

Yondashuv tanlashda baholovchining oldida har xil istiqbollar ochiladi. Hatto mazkur yondashuvlar uchun ma'lumotlar bitta bozordan olinsada, ularning har biri bozorming har xil holati bilan bog'langan. Takomillashgan bozorda barcha yondashuvlar bitta qiymat bahosiga olib kelishi lozim. Ammo bozorlarning hammasi mukammal emas, taklif va ehtiyoj ham mutanosib emas. Potentsial foydalanuvchilar noto'g'ri ma'lumot bilan ta'minlangan bo'lishlari, ishlab chiqarish samarali bo'lmasligi mumkin. Shu va shu kabi sabablarga ko'ra ma'lum yondashuvda qiymatning har xil ko'rsatkichlari olinishi mumkin.

Har uchala yondashuvda ularning o'ziga mos uslublardan foydalaniladi.  
(8.1-8.2-rasmlar)




8.1-rasm. Daromadga oid yondashuv uslublari

Biznesning kapitalizatsiya usulidagi bozor bahosi quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$V = D/R_k$$

bu yerda  $D$  – biznesning yil davomidagi soʻf daromadi;  $R_k$  – kapitalizatsiya stavkasi.

Pul oqimini diskontlash usuli mazkur biznesdagʻi bu oqimni prognoz qilishga asoslangan boʻlib, diskont stavkasi investr talab qilayotgan daromad stavkasi boʻyicha diskon qilinadi.



### 8.2-rasm. Qiyosiy yondashuv usullari

Kapital bozori uslubi analogik kompaniyalar aksiyalarining bozor bahosidan foydalanishga asoslangan. Almashuv tamoyili asosida faoliyat yuritayotgan investor bu kompaniyani yoki yangi baholanayotganini tashqi mablag’ bilan taʼmirlaydi. Shuning uchun kompaniya haqidagi maʼlumotlar, kimning aksiyalari erkin sotuvda boʼlsa, mos tushadigan tuzatishlarni kompaniya bahosini belgilashda maʼlumot boʼlib xizmat qilishi kerak. Mazkur usul nazorat qilinmaydigan aktsiyalar paketlarini baholash uchun qoʼllaniladi.

Bitim usulida oʼxshash kompaniyalarning nazorat aksiyalari paketlarini sotib olish bahosi tahlil qilinadi.

Tarmoqlarning koefitsiyenti uslubi biznes qiymatining maʼlumoti tarmoq statistikasi bazasida keltirilgan formula asosida hisoblash imkonini beradi.


Biznesning bozor bahosi tashkilotning barcha toza aktivlari qiymatining bahosi bilan aktivlarning bozor bahosi oʼrtasidagi summasi asosida uning burchlari toza aktivlar usuli bilan aniqlanadi.

Tashkilotning likvidlashtirish usuli bu qiymatni tashkilotning aktivlari bilan uni likvidatsiya qilish oʼrtasida sarflangan xarajatni ifoydalaydi.

## Baholash jarayoni

Biznesni baholash jarayoni 7 bosqichda amalga oshiriladi:

1. Masalalarni aniqlash.
2. Baholashning rejasini fuzish.
3. Ma'lumot to'plash va tekshirish.
4. Baholashning yondashuv va usullatini tanlash.
5. Oraliq natijalarни keliştilrish va yakuniy xulosasini tayyorlash.
6. Qiymat bahosi natijalari haqida hisobot tayyorlash.
7. Hisobotni taqdim etish va himoya qilish.



8.3-rasm. Xarajatga oid yondashuv uslublari

Biznesni baholashda sotuvchi bilan xaridor orasidagi shartnoma asos bo'lib xizmat qiladi. Tashkilotni baholash, shu jumladan, qayta baholash, baholovchi tomonidan sud qaroriga binoan ham amalga oshirilishi mumkin.

Tashkilotlarning rahbarlari va menejerlari tan narxni baholashning zarurligini, shu bilan birga o'z sohasini yaxshi biladigan baholovchilar bilan hamkorlik qilishning yutuq va afzalliklarini yaxshi tushunadilar.

Biznesning qiymatini baholash, boshqa har qanday xususiy mulkni baholash singari ma'lum maqsad sari yo'naltirilgan, tizimga solingen jarayon bo'lib, ob'yekti miqdori bahosining hisoblab chiqilishi unga ta'sir ko'rsatuvchi faktorlarning ma'lum vaqt va aniq bozor sharoitida pul shaklida ifodalanishidir.

Bozor bahosining hisoblab chiqilgan qiymati yoki uning o'zgargan turi baholash jarayonining natijasi bo'lib xizmat qiladi. Bozor bahosi – mazkur baholash ob'yekti uchun nisbiy narx bo'lib, ochiq bozorda aslidan uzoqlashgan bo'lishi mumkin, bitim tuzayotgan tomonlar barcha ma'lumotlarga ega bo'lgan holda, bahoning qiymatiga boshqa favqulotdagi holatlarda aralasha olmaydi.

Jismoniy va yuridik shaxslar, davlat hokimiyyati organlari, baholovchilarning o'z-o'zini boshqaruvchi tashkilotlari baholash jarayonining sub'yektlari hisoblanadilar, ya'ni, kim bahoni buyurtma qilsa o'sha uni tashkil etadi, boshqaradi, nazorat qiladi, shu bilan birga baholash xizmatining iste'molchisi hisoblanadi.

Biznesni baholashda foyda olishga va tashkilot mulki jamg'armasining faoliyati asosiga yo'naltirilgan jarayon ob'yekt sifatida namoyon bo'ladi. Korxona (tashkilot) xo'jalik oborotida fuqarolik huquqlari ob'yekti hisoblanadi, xo'jalik operatsiyalarida ishtirok etadi. Natijada uning qiymatini baholashga zarurat paydo bo'ladi. Korxonaning mulkiy jamg'armasi tarkibiga uning maqsadi yo'lida xizmat qiladigan, xo'jalik ishlarini yuritishga va foyda olishga ko'maklashadigan barcha mulk turlari kiradi. Shuning uchun biznesni baholashda baholovchi korxonani uning xususiy kapitali qiymati va mulkiy jamg'armaning qismlarini (aktivlari va vazifalarini) aniqlagan holda alohida va umumiy baholaydi.

### Nazorat savollari

1. Baholovchi korxonani uning xususiy kapitali qiymati va mulkiy jamg'armaning qismlarini (aktivlari va vazifalarini) aniqlagan holda alohida va umumiy baholaydi?
2. Biznesni baholashda qaysi 3 ta yondashuv amaliyotda keng tarqalgan?
3. Bozor (qiyosiy) yondashuv boshqa yondashuvlarga nisbatan qanday imtiyozlarga ega?
4. Daromadga oid yondashuv boshqa yondashuvlarga nisbatan qanday imtiyozlarga ega?
5. Xarajatga oid yondashuv boshqa yondashuvlarga nisbatan qanday imtiyozlarga ega?
6. Baholovchi korxonani uning xususiy kapitali qiymati va mulkiy jamg'armaning qismlarini (aktivlari va vazifalarini) aniqlagan holda alohida va umumiy baholaydi?
7. Baholovchi korxonani uning xususiy kapitali qiymati va mulkiy jamg'armaning qismlarini (aktivlari va vazifalarini) aniqlagan holda alohida va umumiy baholaydi?
8. Qoidaga binoan baholovchi o'z faoliyatida bir qator baholash tamoyillariga tayanishi kerak. Almashuv tamoyili nimaga asoslanadi?
9. Mulk egasining tasavvurlariga asoslangan tamoyillar guruhibiga tegishli bo'lgan foydalilik tamoyili nimaga asoslanadi?
10. Mulk egasining mulk haqidagi tasavvurlariga asoslanadigan tamoyillar guruhibiga qaysi tamoyillar kiradi?

## **IX-BOB. BIZNESNI BAHOLASHDA XARAJATGA ASOSAN YONDASHUV**

### **9.1. Aktivlarni (aktivlarning balans qiymatini hisoblash) jamlash usuli**

Bunday vaziyatlarda tashkilot qiymati bahosi uning mulkiy qancha turishi har xil aktivlarning moliyaviy (buxgalter) hisoboti bo'yicha aniqlanadi. Mazkur usul soddalashtirilganligi umumlashtirilganligi sababli baholash mezonlari nuqtai nazaridan tanqidga uchragan, ayni vaqtida amaliyotda ko'p qo'llaniladi.

Buxgalterlik terminologiyasi doirasida "mulk" tushunchasi tashkilotning aylanma va noaylanma aktivlarini anglatadi. Oxirgisiga foydali jihatlari bir yildan oshiq deb nazarda tutilgan yoki oddiy operatsion siklning xususiyatlari tegishli. Agar u bir yildan oshsa, masalan, asosiy mahsulot, yer uchastkasi, tabiiy materiallar (suv, qazilma va boshqa tabiiy resurslar), kapital va boshqa uzoq muddatli (moliyaviy) mablag'lar, nomaterial aktivlar, tashkilotning ishbilarmonlik mavqeい va boshqalar. Aylanma aktivlar deganda tashkilot kassasi va bankdagи mablag'lar, tez sotiladigan qimmatbaho qog'ozlar, uzoq muddatli moliyaviy mablag' sifatida qaralmaydigan, debtorlik qarzları, zahiradagi tovarlar, materiallar, xom ashyo, tayyor mahsulot, tugallanmagan qurilish, yana eng muhim, "aktiv" tushunchasini aniqlash, kelajakdagи xarajatlar tushuniladi. Yana shu narsani alohida ta'kidlash lozimki, aktiv mulkka daxidor bo'limgan ob'yektlarni – kelajakda sarflanadigan xarajatlarini, tashkilotlarda tugallanmagan ishlab chiqarishni, mulk deb hisoblanmaydigan mahsulotni, (diqqatni tortmaydigan mahsulotni) debtorlik qarzlarini, an'anaviy ravishda buxgalterlik hisobi predmeti bo'lgan mablag'larni qamrab oladi.

Buxgalter hisobi ob'yekti sifatida ajratilgan bu kabi xarajatlar vaqtinchalik aniqlash tamoyilining tashkilotga tegishli hisobot davridagi xo'jalik faoliyati faktlari sotuv natijasi hisoblanadi. Ular tushib kelishidan qat'iy nazar yoki pul mablag'ining to'lanishidan qat'iy nazar shu faktlar bilan bog'langan.

Xo'jalik hayoti faktlarini vaqtinchalik aniqlash tamoyili ikki oqimming: qadriyatlarning o'sishi va pasayishining mutanosibligi tamoyili sifatida ma'lum. Mazkur hisobot davrinining ma'lumotlari sifatida xarajatlar bilan, daromadlar olingan bo'lishi, mutanosib kelishidir.

Shundan qoida kelib chiqadi, angliya-amerika tajribasidan ma'lum bo'lgan firma xarajatlarini kapitalizatsiyalash, ya'ni xarajatlarni xarajatlarga emas, balki

aktivlarga daxldorligi.

Shu bilan birga kapitalizatsiya – bu xarajatlarni daromadga aylantirish maxsul, yoki kapitallashтирilган kattalik qancha ko'p bo'lsa, fermaning foydasi, soliqlar to'lovi qo'shilgan dividendlar shuncha ko'p bo'ladi, deganidir.

Aktivlar asosida yondashuvni tashkilotni yaxlit darajada baholashda qo'llash mumkin. Tashkilot kapitalida ayrim aksionerlarning ulushi qiymatini baholashda aktivlar asosida yondashuvdan foydalanish shart emas. Mazkur yondashuv baholashga topshiriq berilganda ishlab chiqaruvchi tashkilot "faoliyatdag'i" sifatida baholansa, yagona bo'lishi mumkin emas, oddiy sotuvchi-xaridor munosabatlari asosidagi shunday favqulodda holatlarda bo'lishi mumkin.

Balans qiymati kamdan-kam holatlarda sof aktivlar qiymatida o'xshash tarzda aks etadi. Shunga qaramay balansning har bir raqami aniq aktiv yoki vazifani hisobga oladi, shuning uchun aktivlarni baholashda munosib usul bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ammo, aktivlarni baholash, jiddiy aytganda, tashkilotning (kompaniyaning) xo'jali k yurituvchi sub'yekt sifatidagi bahosi, shuning uchun xususiy manbadan shakllangan mol-mulk qiymatini aniqlamaydi. Bundan tashqari, balans qiymati – aktivlarning qiymatini juda qo'pollik bilan tushirishdir. Masalan, ko'chmas mulknı qayta baholaganda yer va bino ularning sotib olingan bahosi bilan hisoblanishi mumkin, ularning balans qiymati asl qiymati bilan mos kelmaydi. Mashin va mexanizmlarning balans qiymati «sun'iy qiymat», chunki u tashkilotning amortizatsiyani hisobga olish usuli bo'yicha chiqargan qaroriga bog'liq bo'ladi. Sotib olish bahosi bo'yicha hisobga olingan yozuvlar, ko'proq pasaytirilgan baho bo'ladi, lekin asosiy mablag' darajasida emas. Ma'lumki, balans qiymati safdan chiqarilgan yoki balansga kiritilmagan aktivlarning mavjucligini hisoblamaydi.

## 9.2. Tiklash va almashtirish qiymati bahosini hisoblash usullari

Mazkur usullardan baholash amaliyoti faoliyatida asosan ko'chmas mulknı baholashda foydalilanadi. Ko'chmas mulk xaridorlari o'z qiziqishlariga mos ravishda ko'chmas mulk ob'yektlari bozorida belgilangan narxni yangi ob'yektni qurishga sarflanadigan baho bilan taqqoslashga moyil bo'lishadi. Bundan tashqari, xaridorlar ko'chmas mulk uchun to'lashga tayyor bo'lgan narx bu ob'yektlarni ular istagan darajadagi holatga keltirishni talab qiladigan xarajatlar bilan bog'liq bo'ladi.

Ko'chmas mulknı xarajatga oid yondashuv yordamida baholashda quyida gilarni aniqlash taklif etiladi:

- yer uchastkasining bozor bahosini;
- ko'chmas mulk ob'yektining qayta tiklash yoki almashtirish qiymatini;
- ob'yektning yig'ilgan jami yemirilish kattaligi;
- ko'chmas mulkning xarajatga oid yondashuvdagi bozor qiymati, yer uchastkasining qiymati summasi va qayta tiklash qiymati sifatida yemirilishning ayirmasini.

Xarajatga oid yondashuvdan foydalanishning asosiy xususiyatlari baholovchi tomonidan ob'yekt qiymatini qayta tiklash bilan (takror ishlab chiqarish qiymati) almashtirish qiymati orasidagi farqni tushuni lishini talab qiladi. Qayta tiklash (takror ishlab chiqarish qiymati) baholanayotgan ob'yektning yangi nusxasi bo'lgan ob'yektning qurilishiga kundalik xarajatlarining, xuddi shunday arxitekturaviy-rejalashtirish qarori, qurilish konstutsiyasi va materiallari, shunda sifatdagi qurilish-montaj ishlari, texnologik jarayon tizimni va tarkibi bahosi bilan aniqlanadi. Qayta tiklash qiymatini aniqlashda baholanayotgan ob'yektda mavjud bo'lgan xuddi o'sha moliyaviy yemirilish, arxitektura ishlaridagi yetishmochiliklar, texnologik qarorlar qayta ishlab chiqiladi. Al mashuv qiymati foydalilik ekvivalentiga ega bo'lgan ob'yektning qurilishi kundalik narxlariga xarajatlar bilan aniqlanadi. Ammo yangicha arxitektura stilida zamonaviy standartlar, materiallar, dizayn va loyihalash asosida qurilgan ob'yektning xarajatlari ham o'ziga xos bo'ladi.

Qayta tiklash qiymati yoki almashtirish qiymati hisobining to'rtta usuli mavjud:

1. Son tahlili usuli.
2. Elementlar bo'yicha hisoblash usuli (kattalashtirilgan konstruktiv elementlar bo'yicha hisoblash usuli)
3. Taqoslash birligi usuli
4. Indeksga oid usul.

Songa oid tahlil usuli ob'yektning ayrim konstruktorlik eleme ntлari qurilishi uchun zarur bo'lgan barcha ish turlari xarajatlarining smetasini tuzish va umuman ob'yektga sarflangan barcha xarajatlar: mehnat, materiallar, mexan izatsiya ishlari kabilar bilan hisoblanadi. Bu xarajatlarga material xarajatlarni, quruvchi foydasini, shu bilan birga loyihalashtirish, qurilish, asboblarni topish va montaj qilish, qayta ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan baholanadigan ya xshilanishlarni ham qo'shish kerak bo'ladi. Sonlar asosida tahlil qilish usuli nisbatan aniq lekin ko'p mehnat talab qiladi. Uni qo'llash uchun yuqori malakali baho lovchi, qurilish smetalari bo'yicha katta tajriba, sotib olish xarajati smetasi, texnik jarayon va ularning xizmati talab qilinadi.

**Hisoblashning elementar usuli** o'zida son asosidagi usulning modifikatsiyasini ifodalaydi, lekin unda mehnat nisbatan kamroq, chunki u mayda smetalardan emas, balki kattalashtirilgan smeta normalari va baholarga asoslanadi. Qiymat o'lchov birligi sifatida konstrukturlik elementlarining nisbatan xarakterli ko'rsatkichlarini qabul qiladi ( $1m^3$  g'isht taxlami,  $1 m^2$  maxsus qoplama, texjarayon birliklari va b.).

**Qiyosiy birliklar usuli** baholanayotgan ob'yekt qiymatining iste'mol xususiyatlari birligi bilan shunga o'xhash tipik tashkilot o'lchovining taqqoslanishiga asoslanadi. Usulning mohiyati shundan iboratki, baholanayotgan ob'yektga konstruktiv xarakteri bilan, foydalanilgan matYeriallari va tayyorlash texnologiyasi bilan monand keladigan o'xhash -ob'yekt tanlashadi. Shundan so'ng o'xhash - ob'yekt o'lchov birligi qiymati ( $1m^3$ ,  $1m^2$  va h.k.) baholanayotgan ob'yektning son birligiga ko'paytiriladi. Bu ko'chmas mulk ob'yektni baholashning eng sodda usuli va baholovchilar tashkilotlarning asosiy fondini qayta baholashda keng qo'llaydigan usul.

**Indeks usuli** qayta tiklanadigan qiymatni baholashda balans qiymatini qayta baholashning mos indeksiga ko'paytirib aniqlashdan iborat bo'ladi.

Baholash jarayoni asosiy mahsulot qiymati va ular aks etgan buxgalter hisoboti bilan birga uzlusiz ravishda amalga oshirilishi va har kunga qayta tiklash qiymatidan katta farq qilmasligi lozim. Shu bilan birga, unutmaslik lozimki, ob'yektni qayta baholash natijasida asosiy mahsulot va amortizatsiya summasi tuzatilgan bo'ladi. Shu maqsadda bozor qiymatining ob'yekt buxgalter hisobida nazarda tutgan qiymatga munosabat koefitsienti aniqlanadi.

Ob'yektning xarajatlarga oid yondashuv bo'yicha bozor qiymati bahosi uning umumlashgan yalpi yyemirilishini hisobga olgan holda aniqlanishi lozim. Qiymatni baholashdagi "yemirilish" atamasini buxgalter hisobidagi "yemirilish" terminidan farqlash lozim. *Buxgalter hisobida yemirilish* - o'zgaruvchan xarajatlarni aktivni butun foydali muddat davomida uning qiymatini baholashga urinmagan holda taqsimlash jarayonidir. *Xususiy mulkni baholashdagi yemirilish* - baholashning o'zgaruvchan xarajatlar faktori sifatida qaraladi. Yemirilish ob'yektni baholashda foydaliligini yo'qotish sifatida qaraladi, demak qiymatga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Yemirilishni aniqlashdan yangi va real baholanayotgan ob'yektlarning xarakteristikasihi farqlashda foydalaniladi. Ob'yekt yemirilishining hisobi - baholanayotgan ob'yekt qiymatini aniqlash uchun qayta ishlab chiqariladigan mulk qiymatini o'ziga xos tarzda tuzatish demakdir. Ob'yekt qiymatining tushib ketishidan qat'iy nazar yemirilish - jismoniy, vazifasiga ko'ra va tashqi

(iqtisodiy) qismlarga taqsimlanadi.

*Jismoniy yemirilishi* baholanayotgan ob'yeckning ma'lum vaqt mobaynida jismonan o'zgarishi(masalan, konstruktivlik ishlariagi nosozliklarda o'z aksini topadi. Jismoniy yemirilishning ikki turi mavjud: birinchisi ekspluatatsiya faktori ta'siri asosida yuzaga keladi, ikkinchisi – tabiiy faktorlar asosida sodir bo'ladi.

Jismoniy faktorni hisoblashning to'rt asosiy usuli mavjud: ekspertga oid, normativ (yoki buxgalter)ga oid, qiymatga oid va ob'yeckning umriga oid usullar.

Eng aniq va ko'p mehnat talab qiladigani ekspert usulidir. Nosozliklarni qayd etish daftarida binoning, inshootning yoki asbob - uskunalarining butun elementlari yemirilish holati qayt etib boriladi.

Jismoniy yemirilishni hisoblashning normativ usuli safdan chiqarishning eskirish me'yordan foydalanishga asoslanadi. Bu normalar dastlabki qiymatning to'liq tiklanishini hisoblab chiqadi, hisobga yana bino, inshoot va asbob-uskunalarini safdan chiqarishning eskirish me'yordari qo'shiladi.

Qiymatga oid usul bino va inshootlar elementlarini qayta tiklashga ketgan xarajatlarni aniqlashga asoslanadi. Mazkur holatlarda nazardan o'tkazish yo'li bilan keyinchalik qiymat ifodasida o'z aksini topadigan har bir element yemirilishning foizi aniqланади.

Bino umri muddatini hisoblash usuli baholanayotgan ob'yeckning qurilishi ekspertizasiga va ob'yeckning effektiv yoshi (ob'yeckning jismoniy holatiga javob beradigan yoshi va uni sotib olish imkoniyatlari hisobga olinadi) iqtisodiy hayotining (ob'yeck daromad keltirishi mumkin bo'lgan vaqt) tipik muddatiga daxldor tasavvurlarga kundalik qayta tiklash qiymatiga umumlashgan yemirilish sifatida asoslanadi.

*Funktional yemirilish* – bu qiymatdagi yo'qotishdir. Ya'ni ob'yeck: ish faoliyati bo'yicha foydaliligi, axitektura-estetik jihat, hajmi va loyihasi, konstruktivlik qarorlari, ish sharoiti, xavfsizligi, qulayligi va boshqa funktional xarakteristikasi bilan zamonaviy sandart talablariga javob bermaydi.

Funktional yemirilish bartaraf etiladigan yoki bartaraf etib bo'lmaydigan darajada bo'lishi mumkin, agar qo'shimcha olingan qiymat qayta tiklashga xarajatlarni ko'paytirib yuborsa, demak funktional yemirilish bartaraf etiladi. Bartaraf qilinadigan yemirilishning kattaligi binoning uni baholash paytidagi potensial qiymati bilan, ya'ni elementlari yangilangan holati bilan elementlari yangilanmagan holatidagi sana bahosi orasidagi farq bilan aniqланади.

Bartaraf etilmaydigan funksional yemirilishga binoning kamchilik va ortiqcha sifatlari xarakteristikasi faktlari tufayli qiymatning pasayishi kiradi.

Yemirilishning sifat xarakteridagi yetishmovchiliklar bilan bog'liq kattaligi ko'chmas mulk ob'yektini ijara berishda ijara haqining kamaygan qismining mazkur ko'chmas mulk va renta to'lovi multiplikatoriga ko'paytmasi bilan hisoblanadi.

Yemirilishning sifat xarakteridagi ortiqcha jihatlar bilan bog'liq kattaligi – bu elementni o'rnatishda binoning ortiqcha chtiyoj sifati bilan bog'liq holda ko'rildigian zarar.

Tashqi (iqtisodiy) yemirilish ko'p hollarda bartaraf qilinmaydigan yemirilish bo'ladi. Tashqi (iqtisodiy) yemirilish – tashqi faktorlarga asoslangan qiymatni yo'qotishdir. Tashqi (iqtisodiy) yemirilishni umumiyqtisodiy, soha ichidagi, qonunchilik bilan, munitsipal qarorlar bilan yoki boshqaruv buruqlari bilan bog'liq bo'lgan huquqiy o'zgarishlar, singari bir qator sabablar keltirib chiqaradi.

Tashqi (iqtisodiy) yemirilishga ikki xil yondashuv mavjud:

- turg'un va o'zgaruvchan tashqi sharoitlarda o'xhash ob'yektlarning sotilishi bilan qiyoslash.

- daromadda tashqi shart-sharoitdag'i o'zgarishlar bilan bog'liq yo'qotishlar kapitalizatsiyasi.

Birinchi yondashuvni qo'llashda sotiladigan tashkilot bilan taqqoslash uchun joylashgan o'rni va atrof sharoiti bilan yetarli darajada mos keladigan ob'yektlar talab qilinadi. Taqqoslanayotgan ikki ob'yektning farqi shundaki, ulardan birida tashqi yemirilishning ta'siri bor. Bu baholanayotgan ob'yektning tashqi yemirilishi kattaligi haqida xulosa chiqarishga imkon beradi.

Tashqi (iqtisodiy) yemirilishga ikkinchi yondashuv – ikki ob'yektning, ulardan biri negativ ta'sirlarga berilgan, ijara to'lovini taqqoslashdir.

Baholovchi yig'ilgan yalpi yemirilishni aniqlab olgach, baholash ob'yektning yakuniy qiymatini olish uchun yer uchastkasining bozor bahosiga ob'yektni qayta tiklash va umumiy yemirilishdagi farqni qo'shadi.

Qayta tiklash qiymati va o'rin almashish qiymatida usullari amaliyotda keng qo'llanilishini ta'kidlash joiz. Daromad keltiradigan ko'chmas mulk ob'yektni baholashga bu usullarni qo'llash hamisha ham o'zini oqlayvermaydi. Shu munosabat bilan ko'chmas mulk bozori sektorlarida passiv yoki kamharakat ob'yektlarni baholashda xarajatga oid yondashuvni qo'llanilish hududi nisbatan keng tarqalgan. Xarajatga oid yondashuvning afzalliklari mazkur holatda o'xhash obektlarning oldi-sotdisi haqidagi

bitimlarning holati bilan bog'liq ma'lumotlarning yetishmasligi yoki noaniqligi bilan bog'liq bo'lib, bu ko'p hollarda baholashda boshqa yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlarini cheklab qo'yadi.

Ko'chmas mulkni baholashda yer uchastkasining qiymatini ham hisobga olish zarur. Chunki yer uchastkasi qiymatga qo'shiladigan daromad hisoblanadi. Yer uchastkasi o'zining potentsial qiymati bilan dam olish zonasni, transport magistrali, qishloq xo'jalik qurilishi qilsa bo'ladigan foydali potentsial hisoblanadi.

Yuqorida ko'rsatilgan usullarning eng ishonchlisi sifatida jahon amaliyotida sotuv tahlilini to'g'ridan to'g'ri taqqoslash usuli qabul qilingan. Mazkur usul bilan hisoblash analogik yer maydonlarining oldi-sotdi bitimining tahlilidan, ularni baholanayotgan ob'yekt bilan taqqoslash va farqlarga ma'lum tuzatishlar kiritishda iborat bo'ladi (sotuvni taqqoslash davri 3-5 oy). Bu usul almashtirish tamoyiliga asoslangan: ratsional xaridor mazkur yer uchun daromadliligi bilan shunga analogik bo'lgan yer uchastkasiga to'lagandan ortiq haq to'lmaydi. Taqqoslash birligi sifatida 1 ga (yashash, sanoat, qishloq xo'jaligi uchun) 1 m<sup>2</sup> (shahar markazida ofislar, do'konlar uchun), 1 frontal metr (kommertsiya uchun), 1 lot (dala hovli qurilishi, kvartirlar va hk. uchun), zichlik birligi uchun (Yer maydoni uchastkasiga qurilish maydoni munosabati).

### **9.3. Tugatish (likvidatsiya qillish) bahosini hisoblash usuli**

Tashkilotning likvidashtirish qiymati bahosi quyidagi vaziyatlarda amalga oshiriladi:

- tashkilot bankrotlik holatida yoki uning faoliyatdagagi korxona sifatida qolish qobiliyati guman ostida bo'ladi;
- tashkilotning likvidashtirish oldidagi qiymati faoliyatini davom ettirish davridagidan yuqori bo'lishi mumkin.

Likvidashtirish standartga binoan baholanayotgan ob'yekt qiymati – agar ob'yektning babosini o'xshash ob'yektlar odatdagagi muddatidan kam muddatga aslidan uzoqlashtirish kerak bo'lsa, bunday holatlarda ob'yektning qiymati hisoblanadi. Ko'rinish turibdiki, mazkur holat xususiy mulkni ajratib sotishda likvidashtirish qiymati alohida o'rin tutmaydi, ammo majburiy sotish jarayonida likvidashtirish qiymati ko'rib chiqiladi.

Tashkilot qiymatini baholash amaliyotida likvidashtirish qiymati asosida uning bankrotlik holatida amalga oshiriladi. Qonunga binoan tashkilotning qazlarini to'lay olmay qolgan holati bilan bog'liq vaziyatlar bo'lganda – tashkilotni tashqaridan boshqarishga asos bo'limganda (sud sanatsiyasi) – 122

qarzlarni to'lash qobiliyatini tiklash imkonini bo'lmaganda qarzdorni bankrot deb qabul qilinadi. Shunday qilib sud bunday qaror qabul qilishda, qarzdorning moliyaviy imkoniyatlari sog'lomlashuvi mumkin emasligi faktidan kelib chiqadi. Mazkur faktini belgilab, u ekspertiza tomonidan olingen natijalar asosida ish olib boradi yoki tashkilotda o'tkazilgan moliyaviy tahlil holatiga tayanadi. Tahlilning ma'lumot bazasi sifatida tashkilotning buxgalterlik hisoboti va buxgalter hisobi registri xizmat qiladi.

Sud tomonidan tashkilotni bankrot deb qaror qabul qilinganda to'lash imkoniyati bo'lmagan yuridik shaxsga nisbatan ishlab chiqarishga tanlov e'lon qilinadi – likvidlashtirish jarayonida kreditorlarning ehtiyojlarini qondirishga mos tushadigan yo'nalish bo'yicha ish ochiladi. Bunday tanlov asosida ishlab chiqarishning majburiy bosqichi sifatida mulkning inventarizatsiyasini o'tkazish va tashkilotning burchlari belgilanadi. Bu faktini shu bilan asoslash mumkinki, bankrotlik holatida vazifalarni inventarizatsiya qilish kreditorlar talablari reyestrining shakllanishida, har bir kreditor haqida ma'lumot beruvchi hujjatlar, pul vazifalari bo'yicha uning talablari o'lchami va majburiy to'lov haqidagi har bir talabni qondiradigan izchillikdan iborat bo'ladi.

*Tashkilotning likvidlashtirish aktivlari qiymati* baholanadigan aktivlarni sotishda pul oqimining analidagi qiymati summasi, shu bilan birga, aylanmaydigan, mahsulot zahirasi, hisob raqamidagi va tashkilot kassasidagi baholash kunidagi pul massasi aniqlanadi.

Tashkilot likvidatsiyasi bilan bog'liq bo'lган xarajatlar tarkibiga soliqlar, sug'urta va korxona aktivlarini ular sotilgunga qadar qo'riqlash, yordam va tashkilot xodimlariga to'lanadigan pullar, boshqaruv xarajatlari (bular safida yuristlar, baholovchilar) kiradi. Tashkilot xodimlarga to'lanadigan maoshdan tashqari barcha xarajatlar oshirilgan narxda diskontlashtiriladi.

Quyidagilarni bilish foydadan holi bo'lmaydi:

- to'liq xususiy bo'lган yer va bino o'z bozor narxida sotilishi kerak;
- mashinalar, mexanizm va boshqalar, tashkilotning asbob-uskunalarini ularning balans narxidan kam summaga sotish mumkin, chunki likvidlashtirishning chiqimlari katta bo'lishi, tutilgan texnikaning bahoşı esa past bo'lishi mumkin;
- zahirani, albatta, bir oz foyda bilan sotish mumkin;
- debtorlar o'z qarzlarini to'liq tekshirishlari kerak.

Balansning passiv qismi tuzatilishi uzoq muddatli va kundalik qarzlar bo'yicha amalga oshiriladi. Bunda imtiyozli aksiyalarga, soliq to'lovlariga va

kelajakda sud ishlarida albatta ko'tariladigan shartli vazifalarga alohida e'tibor qaratiladi.

#### **9.4. Tashkilotni «sof aktivlar» ko'rsatmasiga asoslangan holda baholash**

Aktzionerlik jamiyati mulkining bozor qiymatini asosliligi va adolatlilikini ta'minlash uchun "sof aktivlar" hisobi belgilangan. Sof aktivlar – bu tashkilot hisobga olinadigan aktivlari summasidan uning hisobga olinadigan vazifalari summasini chegirib qolish yo'li bilan aniqlanadigan kattalik.

Hisobda qatnashadigan aktivlar – aktzionerlik jamiyatining (AJ) pullik va o'zgarmas mulki bo'lib, uning tarkibiga balans qiymatini tashkil etuvchi quyidagi moddalar kiradi:

1) balansning birinchi bo'limida aks etadigan aylanmaydigan aktivlar. Bunda sof aktivlar kattaligini hisoblashda buxgalterlik balansining birinchi bo'limida hisobga olingan, quyidagi talablarga javob beradigan nomaterial aktivlar, qo'llaniladi:

- jamiyat tomonidan asosiy ish faoliyati davomida bevosita foydalilanilgan va unga daromad keltirgan (yer maydonlaridan foydalinish, tabiiy resurslardan, patentlardan, nou-xau, dasturiy mahsulotlar, monopoliya huquqi va imtiyozlari, tashkiliy xarajatlar, savdo markalari, tovar belgilari va h.k.lar huquqi);

- ularga egalik qilish huquqini beruvchi tasdiqlangan hujjatlar;
- mazkur nomaterial ma'lumotlarga egalik qilish huquqini beruvchi hujjatlar (patent, akt, shartonma va h.k.lar)ning qonuniy tashkilotlar tomonidan berilgan bo'lishi;

2) "Boshqa noaylanma aktivlar" moddasiga asosan sotilgan mulk bo'yicha qarzi hisobga olinadi;

3) pul mablag'ining zahirasi va xarajati, hisobi va boshqa aktivlari singari buxgalterlik hisobining ikkinchi bo'limida aks etadigan jihatlar, qatnashchilar (mutaxassislar)ning qarzlaridan tashqari ular ustav kapitaliga qo'yan mablag' va aktionerlar tomonidan sotib olingan xususiy aksiyalarning kapital balans qiymati.

AJ da yil oxirida baholanadigan rezervlar naqd bo'lganda, lekin shubhali qarzlarga va qimmatbaho qog'ozlarning qadrsizlanishini ko'rsatuvchi moddalar, hisoblarda mazkur rezervlar qiymatini o'ziga xos kichraytirilgan balans qiymatida ko'rsatiladi.

*Hisobda qatnashadigan passivlar* – bu AJ ning burchlari. Ularning 124

tark ibiga quyidagilar kiradi:

- buxgalterlik balansining uchinchi bo'limi moddasi – maqsadga muvofiq moliyalashtirish va tushum;
- balansning to'rtinchi bandi moddasi – banklar, jismoniy va yuridik shaxslar oldidagi uzoq muddatli burchlar;
- balansning beshinchi bo'limi moddasi – banklar, jismoniy va yuridik shaxslar oldidagi qisqa muddatli burchlar, jami qiymatdan tashqari "Kelajak davr daromadi" moddasida aks etgan hisob va boshqa passivlar.

Sof aktiv qiymatini baholash tartibini shartli ravishda quyidagicha tasawwur qilish mumkin:

$$Ch = A_r - P_r$$

bu yerda  $A_r$  – hisobga olinadigan aktivlar;  $P_r$  – hisobga olinadigan passivlar.

Aktivlar qiymatining passivlar qiymatiga tengligini hisobga olib:

$$P - A = O$$

bu yerda  $P$  – passiv balans yakuni;  $A$  – aktiv balans yakuni.

Ikki tenglikni birlashtirib quyidagi natija olinadi:

$$Ch = P - A + A_r - P_r$$

Olingen natijani qayta shakillantiramiz:

$$Ch = (P - P_r) - (A - A_r)$$

Demak, sof aktivlar qiymati passivlar yakuni farqi bilan hisobga olinadigan passivlar farqiga va aktivlar yakuni bilan hisobga olinadigan aktivlar orasidagi farqqasi teng.

Balans passivlari bilan hisobga olinadigan passivlar orasidagi farq hisobga olinmaydigan passivlar moddasiga teng.

Sof aktivlarning hisobi umumiyl holda balans moddalariga monand ravishda quyidagi algoritm bo'yicha hisoblanadi:

$$\text{Sof aktiv (SA)} = \text{Aktivlar(A)} - \text{Passivlar(P)}$$

"Sof aktivlar" ko'rsatkichi – tashkilotning mustahkam va qarzlarini o'z vaqtida to'lashga qodirlik xarakterini ko'rsatuvchi qiyoysi ob'yektiv ko'rsatkich, chunki xo'jalik sub'yektlari yuqorida keltirilgan normativlar bilan mos ravishdagidagi normativ aktivlar bilan direktiv tartibda sof aktivlar darajasini ta'minlashlari lozim. Qonunchilikka asosan, agar ikkinchi yilning yakunidan boshlab har moliya yili AJ ning sof aktivlari qiymati uning ustav kapitalidan kam bo'lsa, jamiyat o'z ustav kapitalining sof aktivlar qiymatidan tashqari kamayayotganini ma'lum

qilishi lozim. Agar ikkinchi yilning yakunidan boshlab har moliya yili AJ ning sof aktivlari qiymati ustav kapitalining minimal qiymatidan past bo'lsa, qonun bilan belgilangan bo'yicha jamiyat o'zining likvidatsiyasi haqida qaror qabul qilishi lozim. Agar jamiyatning ustav kapitalini kamayishi haqida qaror qabul qilinmagan bo'lsa, uning aksionerlari, kreditorlari va boshqa davlat tomonidan belgilangan organlar tashkilotning likvidlashtirishni sud orqali talab qilishga haqlilar.

Keltirilgan holatlар birinchi navbatda jamiyat aktsionerlari qiziqishlarini qondirishga qaratilgan bo'lib, eng muhimmi aktsionerlar tomonidan jamiyatga qo'yilgan summa sof aktivlarning kamayishi bilan qadrsizlanishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Ayni vaqtida, AJ tomonidan belgilangan ustav kapitalining minimal o'lchami ko'rsatilgan me'yor bo'yicha sof aktivlar qiymati darajasida bo'lishi lozim, shunda kreditorlar nisbatan ishonchli kafolatga erishadilar. Shu nuqtai nazardan sof aktivlar ko'rsatkichi potentsial sotuvchi sotishi mumkin bo'lgan jamiyatning barcha oddiy aktsiyalarining dastlabki bahosini belgilashi mumkin, chunki u xususiy manbalar hisobidan shakllangan mulkning qiymatini xarakterlaydi.

Ammo, shuni ham ta'kidlash lozimki, jamiyatning sof aktivlari qiymati oldi-soldi jarayonining ob'ekti bo'lganda, jamiyat aksiyalari qiymatining bozor bahosi aniq bo'lmasagan holatlarda uning bozor qiymati hisoblanmaydi. Bundan tashqari, sof aktivlar o'lchami bozor bahosini belgilashda hamisha ham asosiy faktor bo'lib hisoblanavermaydi, chunki u yoki bu jamiyat aktivlari qiymatini tom ma'noda aks ettirolmaydi, bu quyidagi ko'pgina sabablarlarga asoslanadi: jamiyatni baholashda uning rentabellihi hisobga olinishi kerak, bozor talabining bor-yo'qligi, mazkur sohada davlat boshqaruvining o'ziga xosligi, raqobatbardoshlik va h.k. Bundan tashqari, tashkilotlarni baholashning mazkur usuli tashkilotning avvalo investorni qiziqitiradigan ishlab chiqarish faoliyati, moliyaviy va investitsion faoliyati natijalarini ochib berolmaydi, va (foyda yoki zarar, pul oqimining qochish yoki yaqinlashishi) natijalarini baholay olmaydi.

Yuqorida sanalgan kamchiliklarga qaramay sof aktivlar ko'rsatkichi tashkilotning xarajatga oid (mulkiy) qiymatini baholashda nisbatan qulay ko'rsatkich hisoblanadi, chunki bu texnologik taraqqiyot darajasini xususiy mablag' hisobidan shakllangan mulk bilan birga baholashni hisobga oluvchi kompleks ko'rsatkichdir.

Tashkilot qiymatini mulkiy yondashuvga asoslangan holda baholashdagi asosiy kamchilik - u tashkilotning bugungi va ertangi faoliyati matijalarini bilan bog'liq emas. Shuning uchun bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida bo'libajak daromad qiymatiga asoslanadigan baholash usullari keng tarqalgan.

### **Nazorat savolları**

1. Mulkni xarajatga oid yondashuv bo'yicha baholashning asosiy tamoyillarini sanang.
2. Xarajatga oid yondashuv qanday baholash usullarini qamrab oladi?
3. Tashkilot qiymatini mulkni balans qiymati bo'yicha aniqlash usuli bilan baholashning izchilligi va xarakteristikasini bering.
4. Qayta tiklash qiymati bilan almashtirish qiymati orasidagi farq nimadan iborat?
5. Yemirilishning buxgalter uchyoqidagi va baholash qiymatidagi farqi nimada?
6. Yemirilishning jismoniy, funksional va iqtisodiy shakllariga xarakteristika bering.
7. Yer maydoni qiymatini aniqlashning asosiy usullari qaysilar?
8. Tashkilot qiymatini baholash likvidlashtirish qiymat hisobi bo'yicha amalgaga oshiriladigan holatlarni sanang.
9. Sof aktivlar ko'rsatkichining hisobi ketma - ketligi qanday?

## X-BOB. INVESTITSION LOYIHALARNI BAHOLASH

### 10.1. Loyihaning o'z-o'zini qoplash bosqichi

Baholash amaliyotida investitsion loyihalar samaradorligi ko'rsatkichini qo'llashning hisob-kitob tartibi va o'ziga xosligining mohiyati shundaki, uni tinimsiz o'rganib turish kerak. Bu, bir tarafdan, investitsion loyiha sifatida yoki baholanayotgan mustaqil ob'yekt, yoki xarajatga oid yondashuv bilan ajratilgan xususiylik elementlaridan biri sifatida mashina va asbob – uskunalar, intellektual muilq va boshqalarga asoslanadi.

Boshqa tomondan, agar baholashning maqsadi xususiy mulkning oldisotdisi bo'lsa, mulk egasi, daromadga oid, qiyosiy va xarajatga oid yondashuvlar bilan uyg'unlikda aniqlangan qiymatning yakuniy kattaligi bilan mos tushadigan mablag'ni investitsiya qilishni nazarda tutadi. Ko'rinish turibdiki, daromadga oid yondashuvda amalga oshirilgan diskontirlash jarayoni tahrirga muhtoj.

Investitsion loyihalarning o'ziga tortuvchanligi quyidagi katta mezon va faktorlar bilan: investitsiya bozoridaga holat, moliya bozoridagi vaziyat, investoring professional qiziqishlari va malakalari, loyihaning moliyaviy holati, geopolitik faktor va boshqa shu kabilarga asoslangan holda baholanishi mumkin. Ammo amaliyotda, loyihalarning investitsiyani o'ziga tortuvchanligini aniqlovchi universal usullar mavjud bo'lib, ular quyidagi formal javoblarni beradi: mazkur loyihaga mablag' qo'yish to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini; bir necha variantlardan qaysi birini tanlashni aniq belgilab beradi.

Investitsion loyiha bo'yicha qaror qabul qilish uchun xarajatlarni to'liq qoplash xarakterida to'liq ma'lumotga ega bo'lish zarur, shu bilan birga, qo'shimcha olinadigan daromad darajasiga monand ravishdagi ox irgi natijsa erishishning noma'lumligiga sabab bo'ladigan xavf haqida ham unutmaslik zarur.

Pulning vaqtga nisbatan qiymatini o'chash nazariyasiga asosan, baholashning sodda (statistik) va murakkab usullari farqlanadi. *Sodda usulidan* mamlakat amaliyotida an'naviy ravishda foydalanim kelingan.

Bozor munosabatlariiga o'tishda investitsion faoliyatga daxildor qonunlarning qabul qilinishi investorlarga tanlash imkonini berdi:

- investorlash ob'yekti;

- iqtisodiy samaradorlikni baholash mezonlari;
- moliyalashtirish manbalari;
- yakuniy natijalardan foydalanish usullari.

Ko'rindiki, loyihalarning investitsiyani o'ziga tortishi darajasini baholashda, investorlash imkoniyatlari, kapitalning ishlashi zarurligi, moliyalashtirish uchun jalg qilishda inflayatsion jarayonni ham hisobga olish kerak.

Loyihalarni murakkablashtirilgan usullar bilan baholashda loyiha bo'yicha kirim-chiqim oqimi biznes-rejada aks ettirilganiga mos emasligiga asoslaniladi. Adolatli baholash uchun loyiha bo'yicha xarajatlarni daromad bilan taqqoslash kerak, ya'ni keltirilgan qiymatni baholanayotgan loyiha bo'yicha xavf darajasidan kelib chiqib xarajat qilingan momentga taqqoslanadi. Daromadlar diskontlanishi kerak.

Loyihaning iqtisodiy baholanishi investitsyaning boshqa variantlariga nisbatan o'ziga tortuvchanligi bilan xarakterlanadi. Investitsion loyihalarni vaqtinchalik faktorini hisobga olgan holda baholashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

- loyihaning o'zini qoplash davri (muddati);
- daromadning sof kundalik qiymati;
- loyihaning daromadliligi (rentabellik koeffitsiyenti) stavkasi;
- loyiha daromadliligining ichki stavkasi;
- daromadlilikning modifitsion stavkasi;
- moliyaviy menenjmentning daromadliligi stavkasi.

Loyihaning investitsion qobiliyatini baholashda ko'rsatkichlarning barcha tizimidan foydalanish nazarda tutiladi. Bu shundan dalolat beradiki, har bir usulning ish jarayonida boshqa ko'rsatkichlar hisobini bartaraf qiladigan o'ziga yarasha kamchiliklari bor. Har bir ko'rsatkichning iqtisodiy ko'rsatkichi har xil. Analitik investitsion loyihalarning har xil jihatlari haqida ma'lumotga ega bo'ladi, shuning uchun to'g'ri investitsion qarojni qabul qilishda hisoblarning birlashuvi yordam beradi.

O'z-o'zini qoplash davrining aniqlanishi, kutilayotgan yillar hisobida, investitsion xarajatlarni to'liq qoplash uchun zarur. O'z-o'zini qoplash davri:

$$T_{ok} = \frac{O'z - o'zini qoplashga sarflanadigan illar hisobi}{O'z - o'zini qoplash davridagi oqimning mavjudligi} + \frac{O'z - o'zini qoplashning boshidagi jolashmadigan qiymati}{}$$

O'zini qoplash muddatini aniqlash uchun quyidagilar zarur bo'ladi:

- 1) loyiha yuzasidan daromadning diskontirlangan pul oqimini diskont stavkasi va daromadning paydo bo'lish davridan kelib chiqqan holda hisoblash;
- 2) yig'ilgan diskontirlangan pul oqimini xarajatlarning matematik summasi sifatida va loyiha bo'yicha daromad oqimi shaklida hisoblash. Yig'ilgan diskontirlangan pul oqimi birinchi ijobiy kattalikni olishdan oldin hisoblanadi;
- 3) formula bo'yicha o'zini qoplash muddatini topish.

"Uran" loyihasining o'zini qoplash muddatini 11.1-jadval ma'lumotlari bo'yicha aniqlaymiz:

### 11.1-Jadval.

#### Dastlabki investitsiyani taqsimlash jarayoni

(pul birligi)

Oqim	Davr					
	0	1	2	3	4	5
Biznes-plandagi pul oqimi	(1000)	200	500	600	800	900
Diskontirlangan pul oqimi	(1000)	174	378	394	458	447
yig'ilgan diskontirlangan pul oqimi	-1000	-826	-448	-54	+ 404	

Investitsion summani zarur bo'lgan real davrga, oddiy usul bilan aniqlangan vaqt faktorini hisobga olgan holda 0,6 yilga joylashtirish.

Mazkur ko'rsatkich investitsiya "muzlatilgan" vaqt davormidagi muddatni aniqlaydi, chunki investitsion loyihadan real daromad o'z-o'zini qoplash muddati nihoyasiga yetgandan keyin kela boshlaydi. Afzal variantlarni tanlashda shu muddatning imkon qadar qisqarishiga asoslaniladi.

O'z-o'zini qoplash davrini uzoq muddatli vazifalar hisobidan moliyalashtiriladigan loyihamlar bo'yicha hisoblash maqsadga muvofiq bo'ladi. Loyerha bo'yicha o'z-o'zini qoplash davri qarzga olingan mablag'larning kreditor belgilagan davridan qisqa bo'lishi lozim.

Ko'rsatkich investor uchun investitsiyaning maksimal darajada o'sishi holatida ustuvor hisoblanadi, masalan, bankrotga uchragan tashkilotning moliyaviy sog'lomlashuv yo'lini tanlash.

Mazkur ko'rsatkichning kamchiliklari quyidagilardan iborat:

- hisoblarda loyihaning taklif etilgan o'zini qoplash muddatidan keyingi darornad e'tiborsiz qoladi. Ko'rinaliki, faqat mazkur ko'rsatkich ma'lumotlariga tayanib ish ko'rilsa, loyiha variantlarini tanlashda jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yish mumkin;
- uni investitsion portfelni tahlil qilishga qo'llash qo'shimcha hisoblarni talab qiladi. Investitsiyaning portfel bo'yicha o'zini oqlash davri yaxlitligicha oddiy o'rtacha kattalik sifatida hisoblanishi mumkin emas.

## 10.2. Daromadning soj joriy qiymati

Sof daromad qiymati usuli loyihalarni klassifikatsiya qilishga asoslangan va investitsion loyiha bo'yicha kundalik qiymatga olib keladigan xarajatlarni daromad bilan taqoslagan holda qaror qabul qilish imkonini beradi. Sof daromad qiymati ko'rsatkichini hisoblash uchun quyidagilar talab qilinadi:

- daromad oqimidagi har bir so'mning amaliy qiymatini daromadning paydo bo'lish davridagi diskontlash stavkasidan kelib chiqib aniqlash;
- loyiha bo'yicha kelgan daromadning summasini chiqarish;
- keltirilgan daromadni loyiha bo'yicha xarajatlar kattaligi bilan qiyoslash va sof daromad qiymati ko'rsatkichini hisoblash;

### CHTSD – PD – LR,

bu yerda PD – keltirilgan daromad summasi; PR – loyiha bo'yicha xarajatlar.

Salbiy kattalikka ega bo'lgan SDQKni investorlar rad etishadi. Bir necha variantlarini ko'rib chiqilganda imtiyoz mazkur ko'rsatkichning maksimal kattaligiga beriladi.

Tahlil qilinayotgan "Uran" loyihasi bo'yicha SDQKning ko'rsatkichlarini 11.2-jadval bo'yicha hisoblaymiz:

## 10.2-jadval.

### Diskontirlangan daromad summasining hisobi

	davr					
	0	I	2	3	4	5
Biznes rejadagi pul birligi	(1000)	200	500	600	800	900
Diskontirlangan	(1000)	174	378	395	458	447
Pul oqimining summaga oid daromadi			$(174 + 378 + 394 + 458 + 447) =$			
SDQK			$1851 - 1000 = + 851$			

SDQKning ijobiy kattaligi, investorning mazkur loyihaga qo'ygan mablag'i ishlab chiqarish aktivlari qiymati oshayotganini ko'rsatadi. Shuning uchun SDQKning nisbatan kattaligi mazkur loyihaga qaratiladi. SQDK ko'rsatkichi absolyut kategoriyaga daxldor, bu natijalarni summalashtirishga imkon beradi.

Mazkur ko'rsatkichning kamchiliklari quyidagilar:

- SDQKning absolyut ahamiyati, investitsion loyihalarni qiyoslashda har bir variant bo'yicha mablag' hajmi hisoblanmaydi;
- SDQKning loyiha bo'yicha kattaligi nafaqat xarajatlar kattaligiga va daromad oqimining vaqtga taqsimlanishiga bog'liq. Natijalarni tahlil qilishda qo'llanilgan diskontirlash stavkasi sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Baho xavf ta'siri ostida sub'yektiv bo'ladi.

«Uran» loyihasi bo'yicha diskontirlash stavkasining loyiha daromadlilikiga ta'sirini 11.3-jadval asosida ko'rib chiqamiz.

## 10.3-jadval.

### SDQKning diskont o'sishi bilan bog'lliq o'zgarishlari

Diskont stavkasi, %	5	15	25	35	45
Daromadning sof kundalik qiymati, pul. brl.	+ 1526	+ 851	+ 410	+ 108	-106

Diskont stavkasining kattarish aktivlarning real o'sishini pasaytiradi. Ko'rindiki, birgina loyiha har xil sharoitda diskont stavkasi bo'yicha baholanganda har xil natijalarni beradi, daromadlilikdan zararliga aylanib qolishi ham mumkin.

### **10.3. Loyihalarning daromadliligi stavkasi**

Bu ko'rsatkich xarajatlarning kattaligi va daromad oqimi bilati bir-biridan farcq qiladigan taqqoslanayotgan investitsion loyihalarning samaradorligini aks ettiradi. Loyiha daromadliligi stavkasi (LDS) SSDQK loyiha bo'yicha investitsiya kattaligiga munosabatlari kabi hisoblanadi:

$$SDP = \frac{CHTSP}{PR}$$

Bu ko'rsatkichni hisoblashning boshqacha variantlari ham mavjud bo'lib, keltirilgan daromad summasi xarajatlarga taqsimlanadi:

$$SDP = \frac{SPD}{PR}$$

«Uran» loyihasining daromad stavkasi:  $(851 : 1000) \times 100\% = = 85,1\%$ , yoki  $1851 : 1000 = 1,85$  ni tashkil etadi.

Loyihaning daromad stavkasi iqtisodiy mazmunga asosan investitsiya birligida aktivlarning o'sish kattaligini ko'rsatadi.

Agar indeks birlikdan katta bo'lsa, investitsion loyiha SDQKda ijobjiy ahamiyat kasb etadi, ammo maksimal SDPga ega bo'lgan loyiha tanlanadi.

Investitsion qarorlar qabul qilishda, agar SDQKning kattaligi ko'rileyotgan loyihalarda bir xil bo'lsa, tahillilar SDP ko'rsatkichini tanlaydilar. SDQK ko'rsatkichi absolyut hisoblanadi, shuning uchun bir xil SDQK vaziyati bo'lishi mumkin.

Loyihaning daromadliligi stavkasi afzalligi shundaki, unda bu ko'rsatkich nisbiy bo'ladi va investitsiya birligining samaradorligini aks ettiradi. Bundan tashqari, resurslarning cheklanganligi holatlarida bu ko'rsatkich nisbatan samarali portfel shakllantirish imkonini beradi.

Bu ko'rsatkichning asosiy kamchiligi-diskont stavkasi natijalariga bog'liqligidir.

Loyihalarning investitsion o'ziga tortishni baholash loyiha bo'yicha xarajat va daromadni vaqt faktori bo'yicha taqqoslashni nazarda tutadi.

Daromad qiymatini hisoblash uchun qo'llaniladigan diskontlash stavkasi baholayotgan loyihaning xavf darajasi bilan bog'liq bo'ladi.

Baholovchi loyihaning iqtisodiy samaradorligini har xil tomondan aks ettiruvchi 6ta ko'rsatkichidan foydalanishi mumkin. Investitsion jalg

qilishning yakuniy qarori faqat ko'rsatkichlarning barcha tizimidan olingan ma'lumotlarning integratsiyasi asosida qabul qilinishi mumkin.

Loyihaning o'z-o'zini qoplash davrida qo'yilgan mablag'ni qaytarish uchun zarur bo'lgan vaqt oralig'i haqida ma'lumot beradi, lekin keyingi bosqichlardagi daromad dinamikasini hisoblamaydi.

Daromadning sof kundalik qiymatida baholanayotgan loyiha sotuvida aktivlarning real o'sishi o'z aksini topadi. Ammo ko'rsatkich qabul qilingan diskont stavkasiga jiddiy ravishda bog'liq bo'ladi va loyiha bo'yicha xarajatlarni hisobga olmaydi.

Loyihaning daromad stavkasi (rentabellik koeffitsiyenti) loyiha bo'yicha xarajat birligida keltirilgan sof daromadni o'zida aks ettiради, ya'ni sub'yektiv ta'sirni his qiladi.

Loyihaning ichki daromadlilik stavkasi o'zida loyihaning "mustahkamlik zahirasi"ni ifodalarydi, chunki, iqtisodiy mazmun bo'yicha bu diskontlash stavkasi loyiha bo'yicha xarajatlar va daromadlarni tenglashtiruvchidir. Bu usulning kamchiligi shundan iboratki, u ichki likvidlik bo'yicha reinvestirovka haqidagi gipotezaga asoslangan tasavvur, amaliyotda mumkin emas. Bundan tashqari, agar tahlil jarayонида katta xarajatlarga bir necha marta duch kelinsa, ko'rsatkich ko'pgina yechimlarga ega bo'ladi.

Daromadlilikning modifikatsiyaga oid stavkasi loyiha bo'yicha xarajatlarning yillarga taqsimoti bilan hisoblanadi. Shuning uchun keyingi bosqichlarda asosiy loyiha qo'yilishi mo'ljallangan bo'sh mablag'lar, shartlariga javob beradigan boshqa loyihalarga vaqtinchalik investitsiya qilish ham foydadan holi bo'lmaydi. Modomiki, ikkinchi darajади loyihalar qandaydir daromadni ta'minlar ekan, dastlabki bosqichda investitsiyaga ehtiyoj diskontlash stavkasining likvidlik xavfsizligi darajasi kamayadi.

### Nazorat savollari

1. Investitsion loyiha qanday aniqlanadi? Uning belgilari qanda?
2. Invistitsion loyihalarni baholash usullarining sodda va murakkablashtirilgan turlarining asosiy farqi nimadan iborat?
3. Investitsion loyihani baholash uchun nega bir necha samaradorlik ko'rsatkichidan foydalilaniladi?
4. Qanday holatlarda loyihaning daromadlilik stavkasi baholash uchun zaruriy hisoblanadi?

5. Investitsion loyiha samaradorligining qanday ko'rsatkichlari tahlilda foydalaniladigan diskont stavkasiga bog'liq bo'ladi?
6. Qaysi ko'rsatkichni uning samaradorligini baholash uchun investitsion portfelga kiruvchi barcha loyihalar bo'yicha jamlash mumkin?
7. Ma'lum investitsion loyiha uchun diskontirlash stavkasi uching ichki daromadlilik stavkasidan nimasi bilan farqlanadi?
8. Daromadlilik ichki stavkasining daromadning modifitsiya stavkasi va moliya menejmenti stavkasi bilan qiyosiy xarakteristikasi qanday?

## XI. QIMMATBAHO QOG' OZLAR QIYMATINING BAHOSI

### 11.1. Qimmatbaho qog'ozlar qiymatini baholashning umumiy uslubiyati

Fond bozorining o'sishi bilan qimmatbaho qog'ozlar qiymatining bozor bahosi nisbatan dolzarblashib bormoqda. Investitsion qarorlarni qabul qilish motivi narxning qat'iy hisoblangan, asosli bo'lismeni talab qiladi. Amaliyotda qimmatbaho qog'ozlarni baholashda har xil yondashuvlar va usullardan foydalaniladi. Foydalaniqlan yondashuv bilan bog'liq holda qimmatbaho qog'ozlar qiymatining 5ta asosiy turi farqlanadi:

1. *Nominal qiyamat* yoki qimmatbaho qog'ozlarning oddiy nominali (N) – hujjatlashtirilgan shaklda bevosita chiqarilgan qimmatbaho qog'oz sertifikati va emissiya prospektida ko'rsatiladigan pul summasi, hujjatlarsiz, chiqarilgan shaklda esa faqat qimmatbaho qog'ozlar emissiyasi. Nominal qiyamat – bu emissiya to'g'risida qarorlar qabul qilish jarayonida belgilanadigan doimiy kattalik bo'lib, emitent tomonidan faqat qonuniy o'zgarishlar asosida ko'rib chiqilib, emissiya loyihasiga o'zgartirishlar kiritilganidan so'ng o'zgartirilishi mumkin.

Nominal qiyamat qimmatbaho qog'ozlarning dastlabki joylashishida (qimmatbaho qog'ozlarni emitent tomonidan birinchi egalariga sotishda) muhim o'rinni egallaydi. Masalan, kompaniya aksiyalarini nominal qiymatdan past bahoga joylashtirishni qonunchilik man etadi. Obligatsiyalarni joylashtirishda nominal qiyamat orientir bo'lib xizmat qiladi, shunga asoslangan holda joylashtirish bahosi (foizlarda) belgilanadi.

2. Qimmatbaho qog'ozlarning *balans* (yoki buxgalter) *qiymati* (V) o'zida investor-tashkilotning buxgalter balansi ma'lumotlari bo'yicha aktivning qiymatini ifodalaydi. Bu zamonda o'zgaruvchan qimmatbaho qog'ozlar qiymatining ancha mustahkam ko'rinishi, chunki ularga yemirilishning dahli yo'q.

3. Qimmatbaho qog'ozlarning *bozor qiymati* yoki *kurs bo'yicha qiymati* (R) ehtiyoj va takliflar balansi natijasida yig'iladigan narxga mos keladi va shu narxda raqobat bozorida sotish mumkin. Modomiki, bozor qiymati buxgalter balansi ma'lumotlariga asoslanmas ekan, bozor bahosi qimmatbaho qog'ozlarning balans qiymati bilan mos ravishda arzimas darajada bog'liq bo'ladi. Qimmatbaho qo'g'ozlarning amaldagi bozor kotirovkasi (birjadagi bahosi) bozor qiymatining bevosita aksi hisoblanadi.

Amaldagi qonunchilik boshqa tipdag'i aksiyalar bilan konvertatsiya

qilinadigan, aksiyalar va imtiyozli aksiyalarni qo'shimcha ishlab chiqarib ularni bozor bahosida joylanishini talab qiladi.

4. Qimmatbaho qog'ozlarning amaldagi (ichki) qiymati (S) mazkur qimmatbaho qog'oz barcha faktorlar hisobga olinsa, uning qiymatiga ta'sir ko'r satadigan: aktivlar holati, foydaning borligi, kelajakdagi rivojlanish va emitent kompaniyani boshqarish singari, ega bo'lishi kerak bo'lgan narxni o'zida ifodalaydi. Boshqacha aytganda, qimmatbaho qog'ozning haqiqiy qiymati - bu uning bir qator iqtisodiy faktorlarga o'z ta'sirini ko'r satadigan *chinakam bahosi*. Ba'zan uni adolatli bozor qiymati deb ham atashadi. Agan investorlar qimmatbaho qog'ozlar bozorida yetarli darajada samarali ish yuritsalar, yetarli darajadagi ma'lumotlarga ega bo'ladi, shunda har qanday qimmatbaho qog'ozning amaldagi narxi uning asl qiymati atrofida tebranishi lozimligini bilib oladilar.

Qimmatbaho qog'ozning qiymatini haqiqiy baholash uchun ikkita yondashuvdan foydalananish mumkin:

- *statistik yondashuv* sotiladigan qimmatbaho qog'oz va unga aloqador bo'lgan qimmatbaho qog'ozlarning bozor qiymati haqidagi katta hajmdagi ma'lumotni qayta ishlashga (o'chab ko'rish va o'tachalashtirish) asoslangan. Bunday qimmatbaho qog'ozning haqiqiy qiymati sotuvchi va oluvchi o'z ixtiyori bilan minnatdor bo'ladi natijada, bitim shoshilinch bo'Imagan, balki ikkala tomon ham(sotuvchi va oluvchi) baho qiymati haqida bilimga ega bo'lgan holida, bosinriga tushma va oldi-sotdi ob'yekti haqida keng va chuqur ma'lumotga ega bo'lgan tarzda sotilishi mumkin bo'lgan baho sifatida aniqlanadi;

- *detyerminatsiyalashtirilgan yondashuv* qimmatbaho qog'ozlarning haqiqiy bahosini investor tomonidan pul oqimi haqida olinib qiymat bahosiga keltirilgan, ular talab qilgan daromad stavkasi bo'yicha, mazkur investitsiya bo'yicha xavfni hisobga olgan holda diskontlangan tarzda hisoblab chiqarishni nazarcla tutadi.

5. *Qimmatbaho qog'ozlarning likvidlashtirish (yo'q bo'lism) qiymati* (L) pul kompensatsiyasining emitent kompaniyasining yo'q qilinishi holatida egasi olishi lozim bo'lgan o'chami bilan aniqlanadi. Qimmatbaho qog'ozning likvidlashtirish qiymati, umuman aytganda, uning qiymati bozor yoki haqiqiy bahosidan baland bo'lishi mumkin. Bu kompaniyaning sof aktivlari uning barcha real funksional biznesi bilan birlashganda nisbatan qimmatroq bo'lgan vaziyatlar uchun xarakterlidir, ya'ni, kompaniyaning likvidlashtirish qiymati uning kommersiya qiymatidan yuqori bo'ladi.

Demak, amaliyotda qimmatbaho qog'ozlarning 5 asosiy turi farqlanadi:

- nominal;

- balansga oid (buxgalterlik);
- bozor (kurs bo'yicha);
- haqiqiy (ichki);
- likvidlashtirish.

Qimmatbaho qog'ozlarning u yoki bu turi qiymatidan foydalanishi bahoning umumiyligi masalalari bilan va ma'lum vaziyatda aniqlanadi. Masalan, fond bozorida faol sotiladigan qimmatbaho qog'ozni baholash uchun qoidaga binoan, uning sotilgan oxirgi bozor bahosiga asoslaniladi. Gap sotuvi juda ham sust ketayotgan yoki umuman to'xtagan qimmatbaho qog'ozlar haqida ketganda, uning ayrim matematik hisoblarni talab qiladigan haqiqiy qiymati aniqlanadi. Qarzga olingan qimmatbaho qog'ozlar (obligatsiyalar)ning haqiqiy bahosini belgilash oson va sof matematik usul bilan amalga oshiriladi. Ulushdagi (aksiyalar) qimmatbaho qog'ozlarni baholash uchun nisbatan murakkab, matematik modellashtirishga asoslangan usullar talab qilinadi. Aralash (konvertatsiya qilinadigan obligatsiyalar, imtiyozli aksiyalar va h.k.) qimmatbaho qog'ozlarga kelsak, ularni baholashda bunday qimmatbaho qog'ozlarni baholashda doim qo'l keladigan yondashuvlardan foydalaniladi.

Qimmatbaho qog'ozlarning rivojlangan bozorida qimmatbaho qog'ozlarning bozor bahosi hamisha haqiqiy qiymat bilan likvidlashtirish qiymat orasidagi masofada bo'ladi. Agar kompaniyaning moliyaviy ahvoli mustahkam bo'lsa, u keyinchalik ham samarali faoliyat yuritaveradi, qimmatbaho qog'ozlarning bozor narxi uning haqiqiy narxiga intilib boradi. Bozorning ayrim ehtiyojkorliklarida emitent kelajagining bahosi uning qimmatbaho qog'ozlarining bozor bahosi ularning asl narxidan nisbatan pastroq darajada bo'ladi, ortiqch'a optimizm holatida – ortib boradi. Emitent qimmatbaho qog'ozlarining yuqori bozor bahosi kompaniyaning samaradorligi haqidagi bozorida aks etadi.

Qimmatbaho qog'ozlarning rivojlangan bozorida qimmatbaho qog'ozlarning bozor bahosi hamisha haqiqiy qiymat bilan likvidlashtirish qiymat orasidagi masofada bo'ladi. Emitent qimmatbaho qog'ozlari bozor bahosining balandligi kompaniyaning samarali faoliyati haqidagi bozor fikriga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

**Obligatsiyalarning bahosi.** U yoki bu mamlakatning amaldagi qonunchiligiga binoan har qanday obligatsiya emissiya qilinganda o'matilgan nominaliga  $N_{obl}$  ega bo'lishi kerak. Jahan va mamlaka tajribasida obligatsiyalarning nominallari belgilanganidan so'ng ularni o'zgartirish bo'limgan.

Obligatsiyalarda hamisha ularning to'lov vaqtini, kompaniya obligatsiya egasiga mazkur nominal qiymat bo'yicha moliyaviy qarzni to'lashni lozim bo'lган

sa nasi aniq belgilangan bo'ladi.

Obligatsiyalar chiqarish haqidagi qaror qabul qilinganda undan olinadigan daromadning o'lchami (o'lchamini aniqlash tartibi) yoki kupon daromadi belgilangan holatlarda, har bir kuponning razmerini  $S_{kup}$  aniqlash tartibi ham belgilangan bo'lishi lozim. Olbigatsiyalar bo'yicha daromad xajmini aniqlash tartibi egalarining daromadi hajmini belgilangan ko'satkichlar tartibidagi o'zgarishlar bilan bog'liq holda aniqlashga imkon berishi lozim. Bu ko'satkichlarning hajmi esa emitent ixtiyorisiz o'zgara olmaydi.

Ko'p hollarda har bir obligatsiyaning emistsiyasi belgilangan ma'lum kupon stavkasi yoki nominal yillik stavka r bilan xarakterlanadi. Emitent tomonidan ob ligatsiyalar bo'yicha belgilangan stavkasi – bu har yillik to'lov foizlarining ma'lum obligatsiya nominal qiymatiga mos kattaligidir.

Diskontlash qimmatbaho qog'oz sohibi butun muddat davomida olishi mumkin bo'lgan pul oqimini kapitalizatsiyalashni anglatadi. Diskontlashning stavkasi ma'lum qimmatbaho qog'ozni investitsiyalash darajasining xavfi bilan aniqlanadi.

Qoidaga binoan obligatsiya egasiga u emitent kompaniya tomonidan to'liq bekor qilinmagunicha, doimiy ravishda avvaldan e'lon qilingan foizlar (foizli daromad) to'lab boriladi. Shuning uchun obligatsiyalarning haqiqiy qiymatini belgilashda diskontlashni amalga oshirish lozim. Bu qimmatbaho qog'oz egasi u chiqarilgan butun muddat davomida olishi mumkin bo'lgan foizlarga mos pul oqimini kapitalizatsiyalashda ahamiyatga molik. Odatda, obligatsiyalash shaxxitida emitent obligatsiya egasiga e'lon qilingan foizlarni (foiz daromadi) ko'msatilgan yillar davomida va obligatsiyaning nominaliga teng bo'lgan yakuniy to'loyni uni bekor qilish muddati kelganda to'lashni zimmasiga oladi. Pul oqirniga (emitentdan obligatsiya egasiga) mos bahoni belgilashda qo'llaniladigan diskontlash (diskont) stavkasi yoki kapitalizatsiya har xil obligatsiyalarda farq lanadi. Bu har xil obligatsiyalarni investitsiyalash xavfining darajasi bilan belgilanadi. Umuman, obligatsiya egasi daromad olishning xavfsiz stavkasi nomi bilan ifodalanadigan (nisbatan kam xavf sifatida davlat qarzni belgilovchilari tomonidan belgilangan) olishni istagan daromad stavkasi va xavf uchun qo'shimcha mukofot bilan hisoblash qabul qilingan.

Daromadlik stavkasi ikki qismidan iborat:

- daromadning xavfsiz stavkasi;
- xavf uchun mukofot.

Qimmatbaho qog'ozlarning har xil sinfi uchun optimal bo'lgan obligatsiyalarning haqiqiy qiymatini belgilashni oddiydan murakkabga o'tish asno sida aniq yo'llarini ko'rib chiqamiz.

*Muddati cheklangan obligatsiyalar.* Obligatsiyalarning haqiqiy qiymatini belgilash ishlarini aniqlashga ularning to'lash muddati aniq bo'lмаган maxsus sinfi asosida: obligatsiya shaklidagi muddatsiz renta shaklida kirishish qulay bo'ladi. Xalqaro bozor amaliyotida Buyuk Britaniya hukumati tomonidan Napoleon janglaridan keyin avvalgi qarzlarni umumlashtirish uchun chiqargan "konsoli" shunday obligatsiyalardan hisoblanadi. Mazkur vaziyatda obligatsiyaning haqiqiy qiymati muddatsiz obligatsiya qiymati deb topiladi va foizlar to'lovi muddatsiz oqimining kapitalizatsiyalashgan qiymatiga tenglashtiriladi. Agar qandaydir obligatsiya uning egasi uchun har yilgi muddatsiz to'plangan to'lovini oldindan ko'ra bilsa, uning keltirilgan qiyamati  $S_{obi}$  investor tomonidan talab qilinganda bu qarz stavkasining yillik vazifasi  $r$ , quyidagicha bo'ladi:

$$S_{obi} = \sum_{t=1}^{\infty} \frac{S_{kyn}}{(1+r_t)^t}$$

bu yerda:  $S_{kup}$  — muddati cheklangan yillik kupon to'lovleri.

Daromadlilikning uncha katta bo'lмаган stavkasida uni yildan y'ilga bir xil hisoblash mumkin. Bunday vaziyatda tenglikni soddalashtirish mumkin:

$$S_{obi} = \frac{S_{kyn}}{r}$$

Shu tariqa, muddatsiz obligatsiyalarning keltirilgan qiymati davomi foizlar to'lovini diskontirlashning bir yil davomidagi mos stavkasiga taqsil motida aks ettiriladi.

*Yopilish muddatiga ega bo'lgan obligatsiyalar.* Yopilish muddatiga ega bo'lgan obligatsiyalarni baholash uchun nafaqat to'lov foizlari oqimini, balki uning yopilish paytida to'lanadigan nominalini ham hisobga olish kerak bo'ladi. Yopilish muddatiga ega bo'lgan, foizlari har bir yilning oxirida to'lanadigan kuponli obligatsiyalarni baholash uchun tenglama quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$S_{obi} = \sum_{t=1}^{T} \frac{S_{kyn}}{(1+r_t)^t} + \frac{N_{obi}}{(1+r_T)^T}$$

bu yerda:  $T$  — obligatsiyalarning qarzini uzish muddati kelganga qadar bo'lgan yillar soni;  $r_t$  — investor tomonidan talab qilingan yillarga mos daromad stavkasi;  $N_{obi}$  — obligatsiyaning (nominal) qiymati.

Investor tomonidan taklif qilingan daromad stavkasini qabul qilgan holda yuqoridagi tenglamani soddalashtirish mumkin:

$$S_{\text{обн}} = \frac{S_{\text{кын}}}{r} + \frac{N_{\text{обн}}}{(1+r)^T}$$

Agar daromadlilikning talab qilingan stavkasi obligatsiyaning kupon stavkasiga tenglashsa (juda kam uchraydi va obligatsiyaning dastlabki joylashuvda) obligatsiyaning keltirilgan stavkasi odatda nominal qiymatga tenglashadi.

Kuponsiz obligatsiya foizlarni uzlusiz to'lab borishni nazarda tutmadi, ammo o'z nominaliga nisbatan yirik diskont bilan sotiladi. Bunday obligatsiyaning xaridori u haqiqiy qiymati dastlabki sotib olingan narxidan (baho uning nominal qiymatidan past) asta-sekin kattalashib boradigan daromad oladi. Obligatsiya o'zining nominal qiymati bo'yicha to'liq sotib olinib, qarzlarini opish muddati kelgunicha daromad olinaveriladi.

## 11.2. Foizlardagi xavf

Amaliyotda obligatsiyalarning haqiqiy bahosini qo'lda hisoblab o'tirilmay, odatda obligatsiyalar qiymatini baholovchi jadvallardan foydalaniladi. Obligatsiyalarning yopilish vaqtি kelganda va keltirilgan qiymatga mos tushadigan mazmun bunday jadvaldan talab qilinayotgan daromad stavkasini topish qiyin emas.

Kuponli obligatsiyalar (investor tomonidan yopilish muddati etguncha oldindan ko'rib chiqilgan oraliq to'lovlarni) qoida bo'yicha, emitent tomonidan nominal qiymat bo'yicha chiqariladi. Kupon to'lovlari, obligatsiyaning yopilishi oldidan qarzning asosiy summasining to'lovi kelajakka daxildordir. Shuning uchun obligatsiyalarning haqiqiy bahosi (investor bu to'lovlarni olish huquqiy uchun to'lashga tayyor)  $S_{\text{обн}}$  u kelajakda oladigan pullarning qiymatiga bog'liq bo'ladi. Natijada bozor foizi stavkasi bilan kelajak qiymat stavkasi bog'liq bo'ladi.

Nominal xavfsiz foiz stavkasi real xavfsiz stavka va kutilayotgan inflatsiyani qoplash uchun real stavka ustiga to'lanadigan mukofot summasiga teng bo'ladi. Bundan tashqari, obligatsiyalarning ko'pchiligi xavfsiz bo'limgani uchun diskontirovka stavkasi alohida obligatsiyalar uchun maxsus ajratilgan, risk ho'lati uchun qoshimcha mukofotni o'ziga qamrab oladi.

Daromadlilikning nominal xavfsiz foiz stavkasi real xavfsiz stavka va kutilayotgan inflatsiyani qoplash uchun real stavka ustiga to'lanadigan mukofot summasiga teng bo'ladi.

Vaqtning har bosqichida yuzaga keladigan pul oqimi uchun, qoida bo'yicha,

diskontirlashning har xil stavkalari oldindan ko'rib chiqiladi. Obligatsiyaning haqiqiy qiymatini aniqlash uchun uning egasi kutayotgan pul oqimini diskontirlashning mos stavkalari bilan diskontirlash kerak. Obligatsiyalardan keladigan pul oqimi kupon to'lovlarni (obligatsiyaning yopilish muddati kelguncha) va obligatsiyaning nominal qiymati oxirgi to'lovini qo'shib oladi. Agar obligatsiyaning yopilish muddatini T, diskontlash stavkasini esa barcha uchun umumiy bo'lgan intervalni r bilan belgilasak, obligatsiyaning haqiqiy qiymatini aniqlash uchun modifitsion tengamadan foydalaniladi:

$$S_{\text{oq}} = \sum_{t=1}^T \frac{S_{t, \text{y}}}{{(1+r)}^t} + \frac{N_{\text{oq}}}{(1+r)^T}$$

Daromadlilikning nominal foiz stavkasi nominal xavfsiz stavka va emitentning dastlabki xavfi uchun belgilagan qo'shimcha mukofoti summasiga teng bo'ladi.

Diskontflashning har xil stavkalaridan foydalanishda darajali funktsiyalar o'miga formula maxrajiga joylashadi va quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$(1+r_1)(1+r_2)\dots(1+r_t)$$

Formuladagi summalar har bir kuponli to'lovning keltirilgan qiymatini qo'shish zarurligini ifoydaladi. Har bir kupon to'lash vaqtigacha qolgan vaqt masofasining uzunligidan kelib chiqib diskontlanadi.


Obligatsiya egasidan ushlab qolinadigan to'lovlarning keltirilgan qiymati nisbatan yuqori foizli stavkada past bo'ladi. Shu tariqa, bozor foizlari stavkasi ko'tarilganda, obligatsiyalarning bahosi pasayadi. Bu obligatsiyalarning haqiqiy bahosini aniqlashning muhim umumiy qoidasini namoyish etadi. Foiz stavkalari oshganda, obligatsiyalarning narxi tushishi kerak, chunki obligatsiyalar bo'yicha to'lovlarning keltirilgan qiymati nisbatan yuqori foiz stavkasida diskontlash bo'yicha aniqlanadi. Bozorda foiz stavkalarining pasayishi qimmatbaho qog'ozlar narxining to'plangan daromad bilan (obligatsiyalarning) yoki aksincha ortishini osonlashtiradi.

Shuni nazarda tutish lozimki, foiz stavkalari qancha ortsa, shuncha kam darajada narx pasayadi. Bunday foiz stavkalari ortishining asta-sekinlik bilan kamayuvchi ta'sir ko'rsatishi obligatsiyalarning stavkasi yuqori bo'lganda narxi pasayishi natijasi hisoblanadi. Shunday ekan, stavkalarning qo'shimcha ortishi kam boshlang'ich bazaga ta'sir ko'rsatadi va bu narxning kamayishiga olib keladi.

Foiz stavkalarini absolyut qiymatga kattalashtirish obligatsiya bahosining pasayishi foiz stavkasi bilan bog'liq.

Yuqorida aytilganlarni, obligatsiya narxining foiz stavkasiga bog'liqligini

grafik asosida quyidagicha tasvirlash mumkin (11.1 - rasm). Unda yaxshigina ko'rinib turibdiki, obligtsiya bahosi – foiz stavkasiga teskari proporsional. Foiz stavkalarini oshirishda funksiya nisbatan pastroq bo'ladi va bahoning foiz stavkalariga qaramligi zaifligini tasvirlaydi.



**11.1- rasm. Obligatsiya bahosi bilan foiz stavkasi o'ttasidagi teskari qaramlik**

Obligatsiyalarning baholari bilan foiz stavkalari orasidagi o'zaro teskari aloqa qimmatbaho qog'ozlarning to'plangan daromadi bilan asosiy xususiyati hisoblanadi. Shuning uchun foiz stavkalarining tebranishi mazkur bozorda xavfning asosiy manbai hisoblanadi. Obligatsiya egasining foiz stavkalari tebranishi bilan bog'liq moliyaviy xavfini foizli xavf deb atashadi.

Qimmatbaho qog'ozlar bozoridagi foiz xavfini obligatsiya egalarining stavkalarning tebranishi bilan bog'liq moliyaviy xavf deyishadi.

Obligatsiyalarning yopilish muddati qancha uzoq bo'lsa, uning bahosi foiz stavkasi tebranishiga shuncha ta'sirchan bo'ladi. Bundan ko'rindiki, davr qancha uzoq bo'lsa, bu davr oralig'ida foiz stavkasi tasodifan o'zgarib qolsa, obligatsiyalarning bahosining faktik o'zgarishi shuncha sezilarli bo'ladi. Shuning uchun davlat qisqa muddatli obligatsiyalari (yopilish muddati 3 oydan) eng ishonarli hisoblanadi. Ular foiz stavkalarining o'zgaruvchanligi bilan bog'liq baho xavfidan deyarli mahrumlar va faqat umumiy xavf ostidalar. Obligatsiyalarning yopish muddatini qisqartirish bilan ular bahosining foiz

stavkalari tebranishiga ta'sirchanligini pasaytirish mumkin.

Obligatsiyalarning 6 ta alohida turini ajratish mumkin:

1. Daromadlilikning bozor stavkasi obligatsiyalarning kupon stavkasidan baland bo'lganda, bu obligatsiyaning bahosi uning nominal qiyamatiga nisbatan past bo'ladi. Shu tariqa bu obligatsiya uning nominal qiyamatidan diskont bilan sotiladi. Nominal qiyamatni oshirib yuboradigan amaldagi baho kattaligi obligatsiya bo'yicha diskont deb ataladi.

2. Daromadlilikning bozor stavkasi obligatsiyalarning kupon stavkasidan past bo'lganda, bu obligatsiyaning narxi uning nominal qiyamatidan baland bo'ladi. Shu tariqa bu obligatsiya uning nominal qiyamatiga mukofot bilan sotiladi. Amaldagi bahoni oshirib yuboradigan nominal qiyamat kattaligi, obligatsiya bo'yicha mukofot deb ataladi.

Obligatsiyaning nominal qiyamatining amaldagi bozor bahosini oshirib yuboradigan kattaligi diskont deb ataladi.

Obligatsiyaning amaldagi bahosini oshirib yuboradigan nominal qiyamat kattaligi bo'yicha mukofot deb ataladi.

3. Daromadlilikning bozor stavkasi obligatsiyaning kupon stavkasiga teng bo'lganda, bu obligatsiyaning bahosi uning nominal qiyamatiga teng bo'ladi. Bunda obligatsiya o'zining nominal qiymati bo'yicha sotiladi deyishadi.

4. Foiz stavkalari bilan obligatsiya bahosi orasida bog'liqlikning bo'lishi foiz stavkalarining tebranishiga olib keladi, bu o'z navbatida, obligatsiya bahosining tebranishini keltirib chiqaradi. Ammo, ta'kidlash joizki, investor qimmatbaho qog'ozlarini uning yopilish muddatidan oldin sotsa va foiz stavkasining darajasi uning sotib olinishi davridan ortiq bo'lsa, u foiz xavfi bilan bog'liq ko'rila jazalar xavfiga duch keladi.

5. Obligatsiya bahosining bozor daromadliligida berilgan o'zgarish qiymati qancha katta bo'lsa, uning yopilishiga shuncha kam muddat qolgan bo'ladi. Obligatsiyaning yopilishiga qancha ko'p vaqt qolgan bo'lsa, bahoning bozor stavkasi daromadliliqi bilan bog'liq o'zgarishlar holati shuncha katta bo'lishi mumkin. Investor obligatsiya yopilishning nisbatan katta qiyamatiga vaqt hisobida qancha tez yaqinlashsa, shuncha kam aks etadi, mos qimmatbaho qog'ozlar bozor bahosining aniqlanishiga, bu bo'yicha to'lanadigan to'lovga, bu ob ligatsiyaning bozor bahosi uchun daromadlilikning bozor stavkasida shuncha kam o'zgarish bo'ladi.

6. Daromadlilikning bozor stavkasining berilgan o'zgarishida obligatsiya bahosi, uning kupon stavkasi qancha past bo'lsa, shuncha yuqori bo'ladi. Boshqacha aytganda, obligatsiya bahosining o'zgaruvchanligi kupon stavkalari o'zgarishi bilan teskari proporsional holda bog'liq. Bu effekt obligatsiyaning

kupon stavkasi qancha past bo'lsa, investoring daromadi hajmi shuncha katta bo'lishidan kelib chiqqan. Bu obligatsiyani yopishda asosiy to'lov bilan (fiozlarning oraliq to'loviga qarama-qarshi) bog'liq. Boshqacha aytganda, past kupon stavkali obligatsiyalar holatida investorlar o'z daromadligini baland kupon stavkasiga ega bo'lgan obligatsiyalar holatiga nisbatan kechreq sotadilar. Urnuman aytganda, to'lovlar oqimining katta qismi uzoq kelajakdan qancha uzoq bo'lsa, qiymatdan kelib chiqadigan effekt shuncha katta bo'ladi. Agar yuqori yo'ki past kupon stavkali obligatsiyalar bir xil muddat bilan yopilsalar, past kuponli obligatsiya stavkas, qoida bo'yicha ko'proq o'zgaruvchan bo'ladi.

### 11.3. Fyuchers va forward shartnomalarinilarini baholash


Fyuchersli shartnoma - ikki tomon o'rtaсидаги aktivlarni almashtirish yoki kelajakda baho va vaqt yuzasidan ko'rsatiladigan xizmatlar haqida tomonlar kelishilgan holda imzo chekadigan shartnoma. An'anaviy fyuchers shartnomasi bilan savdo qilinganda ko'p hollarda bir taraf ikkinchi tarafning tovarni qo'yish yoki xizmatni kelajakda belgilangan vaqtida almashtirish taklifiga rozi bo'ladi, ikkinchi taraf tomonlar orasidagi shartnomaga binoan qo'yilgan tovar uchun haq to'lashga kelishiladi. Birinchi taraf fyuchers shartnomalarining sotuvchisi, ikkinchi taraf uning xaridori.

Mazkur bo'limda fyuchers shartnomalarini maqsadiga muvofiq bo'lgan bir nechta har xil, masalan, tez buziladigan tovarga, buzilmaydigan tovarga va mol ivaviy aktivlar singari aktivlarga fyuchers shartnomasi bilan uning zamirida yotgan asos orasiga asosiy arbitraj mutanosibligini o'rnatish yo'li bilan tadqiq qiliraadi. Bundan tashqari, bo'limda ko'rsatilgan mutanosiblikda transaktsiya xara jatlari va savdoga hamda fyuchers narxiga oid ta'qilqar ham o'rganiladi. Va niho yat, bo'limda narxlarning shakllanishiga daxildor fyuchers shartnomalari ayirin ma'lumotlarga sharh beriladi.

**Fyuchers, forward va option shartnomalarinilar(shartnomalari).** Fyuchers, forward (hujumchi) va option shartnomalarinilar hosila shartnomalari hisoblanadi, chunki ular o'zlarining qiymatini ularning asosida (tayanch) yotadigan aktivlardan foyda chiqaradi. Ammo bu shartnomalarning ishlashida bir nechta asosli tafovut mavjud.

**Fyuchersli shartnomalari qanday ishlaydi.** Har bir fyuchersli shartnomaning ikki tarafni mavjud: shartnomaning aktivni kelajakda ko'rsatilgan vaqtida qo'yishga rozi bo'lgan sotuvchisi va uning, to'plangan bahoni to'lashga va qo'yilgan aktivni olishga rozi bo'lgan xaridori bor (11.2-rasm).

Fyuchersli shartnomada xaridor yoki sotuvchi vaziyatdan o'z maqsadida foydalanishi mumkin. Unda bo'lgan xuddi shu aktiv bo'yicha fyuchers shartnomasi tuzilganidan so'ng aktivning narxi o'zgarishi, birining hisobidan ikkinchisi yutuq olishi mumkin. Agar tayanch aktivning bahosi shartnoma tuzilganidan keyin oshsa, xaridor sotuvchining hisobidan yutuq oladi. Agar aktivning bahosi tushib ketsa, unda yutuqni xaridor hisobidan sotuvchi oladi.




**11.2-rasm. Fyuchersli shartnomalarinlardan pu'l oqimi**

**Fyuchersli va forvardli shartnomalar.** Fyuchersli va forvardli shartnomalar yakunlovchi natijalarda o'xshash bo'lsa ham, forvardli shartnoma shartnomalarini tuzganlar shartnoma muddati tugamagunicha o'z vazifalarini bajarishni talab qilmaydi. Vazifalarni bajarish (forward shartnomasi doirasidagi hisob) odatda, yutqizgan taraf (ya'ni baho yo'nalishini noto'g'ri belgilagan taraf) g'olibga shartnomadagi va faktik baho orasidagi farqni to'lashni nazarida tutadi.

**Fyuchers va forvard shartnomalarining option bilan qiyosli.** Fyuchers va forvard shartnomalari orasidagi tafovut nozik farqlanib turganida, bu kontaktlar va option orasidagi farq anchagina katta. Option shartnomada xaridor shartnomaning o'ziga tegishli qismini bajarishni zimmasiga olmaydi (ya'ni aktivni


ma'lum ijro bahosida sotib olish xaridor tomonlar erishgan kelishuv option holatida koll va aktivni ijro bahosida sotish option holatida). Ko'rinadiki, optionsionning xaridori shartnomalarini agar unda bunga qiziqish bo'sa, bajaradi (ya'ni, agar aktivning bahosi ijro bahosidan koll-optionsionda ortiq bo'ladi, yoki aksincha, put-optionsionda). Albatta, optionsionning xaridori bu ustunlik uchun darhol to'ladi. Fyuchersli shartnomada xaridor ham, sotuvchi ham shartnomadagi o'ziga tegishli shartlarni bajarishni bo'yniga oladi. Ko'rinadiki, xaridor sotuvchi hisobidan ustunlikka ega emas, va o'zi fyuchersli shartnomalar uchun darhol to'lashi shart emas. 10.2-rasmida to'lovlar diagrammasi taqdim etilgan bo'lib, unda ikki shartnomalar bo'yicha xaridor foydasiga to'lovlar farqini ko'rish mumkin:



11.3-rasm. Fyuchers shartnomasi va opcion-koll savdosi

#### Fyuchers shartnomasi bilan savdo qiladigan institutlar xarakteristikasi

Fyuchers shartnomasi – bu ikki taraf o'tasidagi kelishuv. Fyuchers savdo shartnomasida dallol va kafil sifatida birja turadi. U ham xuddi shunda standartladi va shartnomalar bo'yicha tashkiliy va savdo shartnomasi bo'yicha savollarni nazorat qiladi.



Mazkur bo'limda fyuchers shartnomasining ayrim institutsional tomonlari o'rghaniladi.

**Standartlashtirish.** Savdolashadigan fyuchersli shartnomalarini shu shartnomalar asosida amalga oshiriladigan ishlarning osonlashuvini ta'minlash, shu bilan birga ularni baholash uchun standartlashtiriladi, standartlashtirish bir necha darajada joy oladi.

- *Aktivlarning sifati va ta'rifsi.* Aktivning shartnoma bilan qoplanishi mumkin bo'lgan shakli aniq belgilanadi.

- Aktivning hajmi. Aktivlar bilan savdo qiladigan har bir fyuchers shartnomasi aktivlarning aniq hajmi (soni) bilan ta'minlashni nazarda tutadi.

- Standartlashtirishning maqsadi o'sha aktiv bo'yicha fyuchers shartnomalarini o'zaro almashishidan iborat. Bu likvidlikni ta'minlaydi, shu bilan birga fyuchers shartnomasi bilan savdo qiladigan tomonlarga ular tushgan vaziyatdan yengilroq chiqish imkonini beradi.

**Fyuchers shartnomalari narxining shakllanishi.** Fyuchers shartnomalarining ko'pchiligi arbitraj asosida baholanishi mumkin, ya'ni investorlar tashkil etolmaydigan, o'z ichiga fyuchers shartnomasi va aktivlar bazasini qamrab olgan darajani (holatni), dastlabki investitsiyasi bo'limgan hollarda xavfsiz foydani shakllantiruvchi narxni (yoki narxning diapazonini) chiqarishi mumkin.

**Bahoning o'zgarish limiti: likvidlashtirish ta'siri.** Bahoga o'zgartirish kiritish limitlarining mantig'i shundan iboratki, ular bozor uchun tormoz vazifasini o'taydi va savdodagi sarosimaning oldini oladi. Ulardan foydalanishga qo'yish aniq emas, chunki ba'zida savdo chegarasi kattartirishi va narxning o'zini oqlamaydigan yuqori yoki past darajadagi tebranishiga olib kelishi mumkin. Bahoning o'zgarishi limiti bilan bog'liq muammolar quyidagilardan iborat: ular narxlar orasidagi ratsional o'zgarishlar (tovarga bo'lgan talab va taklif asosidagi tebranishlarga) bilan irratsional o'zgarishlarni farqlamadi.

**Savdo cheklovları.** Fyuchers shartnomalarida narx o'zgarishi va marja talablariga limitlarning mavjudligi odatda baholashda va arbitraj shartlarini tuzishda e'tibordan chetda qoladi. Ammo ularning baholashga ta'siri imkoniyatlari qoladi, natijada savdoga ko'rsatilgan cheklovlardan yetarli darajada malollik qoladi. Masalan, narx o'zgarishlariga limitlarning bo'lishining ikki xil yakuni bor. Birinchisi, narxni bozor ma'lumotining ta'siridan himoya qilish yo'lli bilan chegarasini pasaytirish qobiliyatidan iborat. Bu bilan fyuchers shartnomalarini qiymatini nisbatan oshiradi. Boshqasi fyuchers shartnomalari likvidlashni pasaytirishdan iborat.

Fyuchers shartnomasining qiymati uning zamirida yotgan aktivning

qiymatidan kelib chiqib belgilanadi. Arbitrajning fyuchers va spot narxlari orasida kuchli aloqa o'rnatish imkoniyati, aslida chinakam aloqa foiz stavkalarining darajasi, tayanch aktivlarni saqlash xarajatlari va aktivlarga egalik qilish bilan tuziladigan boshqa daromadlarga bog'liq. Bundan tashqari, fyuchers bozori bahoning o'zgarish limiti va bozor narxiga monand qayta baholash, maxsus opsonlar ta'minoti singari fyuchers narxiga ta'sir ko'rsatuvchi usullar institutsional xarakteristikasi hisoblanadi.

### Nazorat savollari

1. Qimmatbaho qog'ozlarning asosiy ko'rinishlari qiymatini sanang.
2. Pul oqimini diskontirlash operatsiyasiga aniqlik kiring.
3. Qimmatbaho qog'ozlarning daromadlilik stavkasi tarkibi nimalardan iborat?
4. Diskont va obligatsiyalarni joylashtirish narxiga mukofot tushunchalarini sharhlang.
5. Qimmatbaho qog'ozlarning qad qilingan foiz stavkalarini bilan bozor qiymati orasida qanday aloqadorlik mavjud?
6. Qimmatbaho qog'ozlar bozorida foiz xavfi nima?
7. Foiz xavfi bilan chaqirilgan obligatsiyalarning bozor bahosining asosi xususiyatlarini sanang.
8. Emitent obligatsiyalari retingini aniqlovchi asosiy faktorlarni sanang.
9. Oddiy aksiyalarning haqiqiy qiymati qanday qoidalar bilan aniqланади?
10. Aksiyalar qiymatini baholashning texnik va fundamental yondashuvlari orasidagi farq nimadan iborat?
11. Qanday hollarda aksiyalarning majburiy balans qiymati tashkil etiladi?
12. Aksiyalarning likvidatsion qiymati nima?

## XULOSA

Iqtisodiyot tarmoqlarida mahalliy investitsiya manbalarining cheklanganligi xorijiy investitsiyalarni, xususan to'g'ridan – to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish borasida ham mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishni talab etmoqda. Lekin, respublika miqyosida yaratilgan qulay investitsiya muhitining mavjudligi, davlat tomonidan investitsiya faoliyatining qo'llab-quvvatlanishiga qaramasdan sohada bir qator muammolar ham o'z yechimini kutmoqda.

Shu boisdan, qurilish tarmog'idagi tarkibiy islohotlarni chuqurlashtirish va uni yanada jadallashtirish hamda qurilish ishlab chiqarishi ko'lamini kengaytirish, qurilish mahsulotlari sifatini zamon talablari darajasiga yetkazish bilan bog'liq masalalarni bal etishga yo'naltirilgan dasturlarni amalga oshirish, ko'p jihatdan tarmoqda investitsiya siyosatini to'g'ri yurgizish, investitsion qurilish faoliyati samaradorligini oshirish, investitsion loyihalarni baholash va ularning samaradorligini oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, shuningdek mutaxassislarining bu sohada chuqur nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishlari, shuningdek dunyo miqyosidagi sohaga oid fantexnika yutuqlaridan boxabar bo'lishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu masalalarni o'z yechimini topish va amaliyatga tadbiq etish, jumladan ularning kapital qurilish tarmog'iga oid tomonlarini nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rghanish, ularni hal etish yo'llarini topishda mazkur o'quv qo'llanmada o'rjanilan asosiy vazifalar hisoblanadi.

Mazkur o'quv qo'llanmada investitsiyaning mazmun mohiyati, investitsiya faoliyati va investitsiya siyosati, Davlat investitsiya dasturlarini shakllantirish, investitsion faoliyatni rivojlantirishda investitsiya muhitining o'rni, xorijiy investitsiyalar mazmuni va ahamiyati, investitsiya faoliyatida kapital qurilish va kreditlash, investitsiyalarni moliyalashtirish yo'llari va ularning iqtisodiy samaradorligini baholash, biznesni baholash uslubi holati, biznesni baholashda xarajatli yondashuv, investitsion loyihalarni baholash, qimmatbaho qog'ozlar

qiymatini baholashga oid masalalarning nazariy va amaliy jihatlari yoritib berilgan. Shuningdek, o'quv qo'llanmada iqtisodiyotni modernizatsiyalashtirish sharoitida respublikamiz kapital qurilish tarmog'iga investitsiyalarni jalb qilishning asosiy yo'nalishlari va muammolari, biznes faoliyatni rivojlantirishning muhim masalalari alohida o'rinn olgan.

Shu bilan birlgilikda ushbu o'quv qo'llanmadan sohaga qiziquvchi barcha kitobxonlar, shuningdek professor-o'qituvchilar, oliy ta'lim muassasalari arxitektura va qurilish sohasining barcha ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining talaba-magistrantlari foydalanishlari uchun tavsiya qilinadi.

Yana bir bor ta'kidlash joizki, mualliflar ushbu adabiyot bo'yicha bildirilgan barcha fikr-mulohaza va takliflarni chin ko'ngildan qabul qiladilar va o'z minnatdorchiligini bildiradilar.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" davlat dasturi to'g'risidagi PQ-1474-sonli Qarori 7 fevral 2011 yil.
2. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamalakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. – T.: O'zbekiston, 2011. – 48 b.
3. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiysi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. T.: O'zbekiston, 2010. – 56 b.
4. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdi. – T.: O'zbekiston, 2010. – 62 b.
5. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratiashtirish va yangilash, mamlakatimizni modernizatsiya va islox etishdir. T.: «O'zbekiston», 2005. – 96 b.
6. An'shin V.M. Investitsionney analiz. M.: Delo, 2008. - 280 s.
7. An'shin V.M. Osnove investitsionnogo analiza. M.: Universitet Rossiyskoy akademii obrazovaniya, 2009.
8. An'shin V.M. Osnove finansovoy matematiki. M.: Universitet Rossiyskoy akademii obrazovaniya, 2007.
9. Appel Dj. Effektivnee investitsii. Kak zarabatevat na roste i padenii aktsiy, inflyatsii, skachkax tsen na neft... i ne tol'ko / Per.s angl. pod red. V.V. Il'ina. – SPb: Piter, 2009. – 416s.:s il.
10. Berens V., Xavranek P.M. Rukovodstvo po podgotovke texniko - ekonomiceskix issledovaniy. M.: «Interekspert», 2005.
11. Blank I. A. Investitsionney menedjment. Kiev: MP «YTEM» LTD 1999.
12. Brngxem Yu., Gapenski L. Finansovey menedjment. Polney kurs v 2-x tomax, Sankt-Peterburg: «Vesshaya shkola», 1997.

13. Investitsii: Sistemney analiz i upravlenie / Pod red. Prof. K.V. Boldina.
- 2-e izd. – M.: Izdatel'sko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i K», 2007. – 288s.
14. Gitman L.Dj., Djonk M.D. Osnove investirovaniya, M.: «Delo», 2007.
15. Djon Dj. Merfi «Texnicheskiy analiz fyuchersnex renkov: teoriya i praktika». M. «Diagramma» 2004. s 41-50.
16. Djon Dj. Merfi «Texnicheskiy analiz fyuchersnex renkov: teoriya i praktika». - M.: «Diagramma» 2004. – 587 s.
17. Dmitriy Molodtsov - Strategicheskiy podxod k upravleniyu portfelem.
18. Eliferov V.G., Repin V.V. Biznes-protsesse: Reglamentatsiya i upravlenie: Uchebnik. – M.: INFRA-M, 2008. – 319s.
19. Druker, Peter F. Biznes i innovatsii: Per. s angl. – M.: “I.D. Vil'yams”, 2007. – 432s.
20. Dirlav Dez. Izbrannee kontseptsii biznesa. Teorii, kotoree izmenili mir /Per. s angl. — M.: «Olimp—Biznes», 2007. — 336s.
21. Osnove biznesa: uchebnik. 6-e izd. pererab. i dop. / Pod red. YU.B.Rubina. – M.: OOO Market DS Korporeyshn, 2005. – 784s.
22. Esipova V.E. Mejdunarodnee investitsii i mejdunarodnee zakupki. – SPb.: GUEF, 2003.
23. Zubchenko, L.G. Inostrannee investitsii: uchebnoe posobie. 3-e izd., ispr. i dop. – M.: Knigodel, 2010. – 184s.
24. Investitsii: uchebnik / A.Yu. Andianov, S.V. Valdaytsev, P.V. Vorob'ev [i dr]; ot.red. V.V. Kovalev, V.V. Ivanov, V.A. Lyalin. – 2-e izd., pererab. I dop. – M.: TK Velbi, Izd-vo Prspekt, 2008. – 584s.
25. Investitsionnaya strategiya predpriyatiya: uchebnoe posobie/ N.I. Laxnetkina. – 3-e izd., ispr. i dop. – M.: KNORUS, 2007. – 192 s.
26. Inostrannee investitsii: uchebnoe posobie/ A.G. Ivasenko, YA.I. Nikonova. – M.: KNORUS, 2010. – 272s.
27. Informatsionney Byulleten' za 2007-2009g. Tashkent, TSentr po koordinatsii i kontrolu za funktsionirovaniem renka tsennex bumag pri Goskomimimustve Respubliki Uzbekistan.
28. Kak rasschitat' effektivnost' investitsionnogo proekta. Raschet s komponentariyami. M.: Institut promshlennogo razvitiya (Informeletro), 2006.

29. Kovalev V.V. Metode otsenki investitsionnex proektov. «Finanse i statistika», 2008.
30. Kommercheskaya otsenka investitsiy: uchebnoe posobie/V.E. Esipov, G.A. Maxovikova, T.G. Kos'yanenko, S.K. Mirzajanov. - M.: KNORUS, 2009. - 704s.
31. Statisticheskie sborniki po sootvetstvuyushim godam Gosudarstvennogo komiteta statistiki Respubliki Uzbekistan.
32. Cheterkin E.M. Metode finansovex i kommercheskix rascchetov. M.: «Delo», 2008.
33. Ekonomicheskaya otsenka investitsiy: uchebnoe posobie/ G.S. Staroverova, A.YU. Medvedev, I.V. Sorokina. - 3-e izd., ster. - M.: KNORUS, 2010. - 312s.

#### VIII. Internet saytlari

34. <http://www.uza.uz.business>; <http://www.press-service.uz>;
35. <http://www.oecd.org>; <http://www.unctad.org>;
36. <http://www.uza.uz/business/idl>; <http://www.wto.com>;
37. <http://www.mcdonald.org>; <http://www.wordbank.org>;
38. <http://www.nestle.com>; <http://www.imf.org>;
39. <http://www.nafta.org>; <http://www.eurunion.org>;
40. <http://www.aseansec.org>; <http://www.arthurandersen.com>;
41. <http://www.bir.uz>
42. <http://www.press-service.uz>
43. <http://www.uzbekistan.uz>
44. Strategy and Business [www.growthbusiness.co.uk](http://www.growthbusiness.co.uk)
45. Panoptic Solutions Business Strategy [www.panopt.co.uk](http://www.panopt.co.uk)
46. Investors in People - Business Strategy [www.investorsinpeople.co.uk](http://www.investorsinpeople.co.uk)
47. Business Information and Strategy Tools [www.shoulders-of-giants.co.uk](http://www.shoulders-of-giants.co.uk)
48. "Norma" 2010.
49. "Pravo" 2010.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH .....</b>	<b>3</b>
<b>I-BOB. INVESTITSIYALARING IQTISODIY MAZMUNI VA MOHIYATI.....</b>	<b>5</b>
1.1. Fanning predmeti, maqsadi va vazifalari.....	5
1.2. Investitsiyalarining iqtisodiy mazmuni va mohiyati.....	8
1.3. Investitsiyalarining tasniflanishi.....	9
1.4. Investitsiya jarayoni mazmuni va asosiy bosqichlari.....	10
Nazorat savollari.....	14
	143
<b>II-BOB. INVESTITSIYA FAOLIYATI VA INVESTITSIYA SIYOSATI.....</b>	<b>15</b>
2.1. Investitsiya faoliyatini muvofiglashtirishda davlatning roli.....	15
2.2. O'zbekistonda investitsion faoliyatning me'yoriy-qonuniy bazasi.....	18
2.3. Zamonaviy investitsion siyosyatni amalga oshirishda chet el investitsiyalarining o'rni.....	22
Nazorat savollari.....	26
<b>III-BOB. DAVLAT INVESTITSIYA DASTURINI SHAKLLANTIRISH.....</b>	<b>28</b>
3.1. O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturining mazmuni va maqsadlari.....	28
3.2. Investitsiya dasturi asosida investitsiyalar va investitsiya faoliyatini tashkil etish.....	33
Nazorat savollari.....	36
<b>IV-BOB. INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA MUHITINING O'RNI.....</b>	<b>37</b>
4.1. Investitsiya faoliyatini rivojlantirishda investitsiya muhitining o'rni..	37
4.2. Investitsiyalarни moliyalashtirish manbaiari.....	39
4.3. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning o'z mablag'lari.....	46
4.4. Jalg etilgan mablag'lar evaziga investitsiya faoliyatini moliyalashtirish.....	47
Nazorat savollari.....	50

<b>V-BOB. XORJIYIY INVESTITSIYALARING MAZMUNI VA AHAMIYATI.....</b>	<b>51</b>
5.1. Xorjiy investitsiyalarning mazmuni va mohiyati.....	51
5.2. Xorjiy investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb qilishning ob'yektiv zarurligi.....	53
5.3. O'zbekiston Respublikasida chet el investitsiyalari ishtirokida korxonalar va ular uchun belgilangan imtiyoz va kafolatlar.....	59
5.4. Milliy iqtisodiyotga xorjiy investitsiyalarni jalb qilish shakllari.....	62
Nazorat savollari.....	68
<b>VI-BOB. INVESTITSIYA FAOLIYATIDA KAPITAL QURILISH VA KREDITLASH.....</b>	<b>69</b>
6.1. Kapital qurilish va kapital qo'yilmalar.....	69
6.2. Kapital qurilishda tanlovnii tashkil etish.....	74
6.3. Investitsiya faoliyatini kreditlashning ob'yektiv zarurligi.....	78
6.4. Kreditni rasmiylashtirish tartiblari.....	81
Nazorat savollari.....	86
<b>VII-BOB. INVESTITSIYALARINI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH...</b>	<b>87</b>
7.1. Investitsiyalarni loyihibaviy moliyalashtirish tushunchasi.....	87
7.2. Investitsiya loyihalarini loyihibaviy moliyalashtirish xususiyatlari.....	89
7.3. Sindikatlashtirilgan kreditlarni tashkil etish.....	92
7.4. Lizing munosabatlarini tashkil etish.....	95
7.5. Investitsiya loyihalari samaradorligini baholashning mohiyati va ahamiyati.....	98
Nazorat savollari.....	100
<b>VIII-BOB. BIZNESNI BAHOLASHNING USLUBIY HOLATI</b>	<b>101</b>
8.1. Baholash faoliyati tushunchasi va mohiyati.....	101
8.2. Baholash jarayonining sub'yekti va ob'yekti.....	105
8.3. Baholash maqsadi va qiymat turlari.....	108
8.4. Biznesni baholashning yondoshuv va usullari.....	111
Nazorat savollari.....	115
<b>IX-BOB. BIZNESNI BAHOLASHDA XARAJATGA ASOSAN YONDASHUV.....</b>	<b>116</b>
9.1. Aktivlarni (aktivlarning balans qiymatini hisoblash) jamlash usuli....	116

9.2. Tiklash va almashtirish qiymati bahosini hisoblash usullari.....	117
9.3. Tugatish (likvidatsiya qilish) bahosini hisoblash usuli.....	122
9.4. Tashkilotni «sof aktivlar» ko'rsatmasiga asoslangan holda baholash.....	124
Nazorat savollari.....	127
<b>X-BOB. INVESTITSION LOYIHALARNI BAHOLASH.....</b>	<b>128</b>
10.1. Loyihaning o'z-o'zini qoplash bosqichi.....	128
10.2. Daromadning sof joriy qiymati.....	131
10.3. Loyihalarning daromadliligi stavkasi.....	133
Nazorat savollari.....	134
<b>XI. QIMMATBAHO QOG'OZLAR QIYMATINING BAHOSI.....</b>	<b>136</b>
11.1. Qimmataho qog'ozlar qiymatini baholashning umumiy uslubiyati.....	136
11.2. Foizlardagi xavf.....	141
11.3. Fyuchers va forward shartnomalarinilarini baholash.....	145
Nazorat savollari.....	149
<b>XULOSA.....</b>	<b>150</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>152</b>

БЕЛГИЛАР ҮЧУН

Yodgorov V., Isamuxamedova Sh.,  
Saidov M., Davletov I., Berdieva D., Muxibova G.

## **Investitsiyalar va biznesni baholash**

**O'quv qo'llanma**

**Buyurtma 2/2012**

Bosishga ruxsat etildi 8.08.2012 y.

Bichimi 60x84, 1/16, Bosma tabog'i - 10 b.t.

“Arxitektura qurilish integratsiya va innovatsiya Markazi”ning  
bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent sh., Navoiy ko'chasi, 13.



